

Xalifa Mu'tasim Va Sher

Ertasiga ertalab Zirg'om o'rnidan turdi. Yuvinib kelib, onasiga salom berdi, ta'zim bilan uning qo'lini o'pdi. Keyin birga o'tirib nonushta qilishgandan so'ng odatda xalifa huzuriga kirganda kiyadigan kiyimlarini - ustiga sala o'ralgan qalpoq, abbosiyalar kiyadigan qora to'n, ichidan kamzul va uzun cholvor kiyib, bo'yning qilichini osdi, otini minib, Vardon bilan birligida xalifaning saroyi tomon yo'l oldi.

Mu'tasimning saroyi Somurroning sharqiy tomonida joylashgan bo'lib, bir necha hashamatli binolardan iborat keng maydonni ishg'ol qilgan edi. Chor atrofi devor bilan o'ralgan. Saroy qadimiylar shohlarining Madoin shahridagi binolari tarzida qurilgan. Uning tashqi katta darvozasi uch tavaqali bo'lib, o'rtaida ot-aravalalar bermalol o'tadigan katta eshik: ikki chekkasida odam o'tadigan ikkita kichkina eshigi bor edi. Ichkariga kirgan kishi binolar o'rtasidagi katta boqchaga ko'zi tushadi. U binolardan biri va eng kattasi Mu'tasimning hashamatli qasri. Qolganlari esa saroy ahlining turar joylari, mehmonxonadan iborat edi. Sherlar uchun qurilgan maxsus bino ham bor edi. Mu'tasim sherlarni asrash va tarbiya qilishga ishqiboz bo'lib, ko'pincha sher oviga o'zi chiqib turardi.

Zirg'om xalifaning o'sha saroyiga yetib kelganida kun ancha ko'tarilib qolgan edi. Darvozaga yaqinlashishi bilan soqchilar uni tik turib qarshi olishdi. Zirg'om otidan tushmay, darvozadan to'g'ri ichkariga kirib, xalifaning qasri yonida to'xtadi. Vardon esa darvoza yonida otidan tushib, uni yetaklaganicha Zirg'om orqasidan borib, uning oti jilovidan ushladi va ikkala otni otxona tomon yetaklab ketdi. Xalifaning maxsus hojibi uni qarshi oldi. Zirg'om xalifa huzuriga kirish uchun ruxsat so'rangan edi, hojib: "Kecha kechqurun ovga chiqib ketgan edilar, hali qaytganlari yo'q", - deb javob berdi.

- Yaqin orada qaytarmikinlar?

- Hozir kelib qolsalar kerak.

Hojib dam olishi uchun Zirg'omni qasr ichidagi katta xonaga taklif qildi va: "Xush kelibsiz, safardan eson-omon qaytib keldingizmi?" deb hol-ahvol so'radi. Zirg'om hojibga javob qilgandan keyin, xalifa nima sababdan chaqirtirganini bilmox uchun mamlakatda bo'layotgan voqealar to'g'risida so'rab, uni ancha gapga soldi-yu, lekin qanoatlanarli javob olomadi, safarga ketganidan keyin saroyda qilingan ba'zi yangiliklarni ko'zdan kechirish bilan o'zini mashg'ul qilib o'tirdi. Keyin boqchaga chiqib, undagi gul va daraxtlarni tomosha qilmoqchi bo'ldi. Hojib ham boqcha tevaragida u bilan birga yurgan edi, saroydagilar g'ovur-g'uvur qilib qolishdi. Kimdir "xalifa ovdan qaytdilar" deyishi bilan odamlar qasr tomoniga o'tadigan yo'l chetiga tizilishdi. Xalifa yonida ovga chiqqan kishilar oqliq va piyoda kirib kela boshladi. Keyin ovga chiqqan vaqtida vahshiy hayvonlar hujumidan saqlanish uchun kiyadigan ov kiyimlarini ko'y lagi ustidan kiyib olgan xalifaning o'zi kirib keldi.

Mu'tasim o'rta bo'yli, uzun va qizg'ish soqollni odam edi. Uning butun vujudida shijoat sezilar, o'ynab chiqqan paylari kuch-quvvatga to'la edi. U shu qadar kuchli ediki, bir o'zi ming qadoq[1] yukni yelkasida ko'tarib, bir necha qadam yerga olib bora olardi. Birovning bilagini ikki barmog'i orasiga olsa, uni ezib yuborardi, temirni egib chambarak qilar va chaqa pulni barmog'i bilan astoydil bossa, undagi muhr o'chib ketardi. U serjahl, ginasi qattiq odam edi. Ot minishga, chavgon o'yiniga o'ch edi. U qasr darvozasiga kelib otdan tushdi. Ko'pchiligi qo'mondon va oqliq askarlardan iborat bo'lgan kutib turuvchilar bilan salomlashdi. Ular orasida Zirg'omga ko'zi tushib, bir jilmaydi-da, unga salom berdi. Zirg'om chopib borib uning qo'lini o'pmoqchi bo'lgandi, rozi bo'lmagandek qo'lini tortib oldi[2] va "Sen ham shu yerdamiding?" deb so'radi.

- Janoblarining farmoyishlari bilan yetib keldim, - dedi Zirg'om.

- Kecha kechqurun bu yerda bo'lganingda men bilan ovga chiqqan bo'larding.

- Koshkiydi, amiralmo"minin, ayni muddao bo'lar-kan-a, ...hamma vaqt baxt va g'alaba sizga yor bo'lsin!

Xalifa qars tomon yuzlandi-yu, yana orqasiga qaytib, turgan kishilarga tarqalish uchun ruxsat berdi va Zirg'omning o'zini to'xtatib: "Seni shodlaniradigan bir gap aytmoqchiman, men bahaybat bir sher ushlab keldim. Qachon sherni ko'rsam, seni eslayman, chunki sening noming uning nomlaridan bittasi[3], - dedi-da, hojibni chaqirib, - ovchilarga ayt, sherni anavi qafasga olib kelishsin", - dedi. Keyin boqchaning bir tomonidagi hayvonlar turadigan joyga qarab yurdi. Yonida Zirg'om. U bilan so'zlashib bora turib, xalifa safari to'g'risida gap ochdi: "Bu safardan bizning istagimizni yaxshilab bajarib kelgan bo'lsang kerak, albatta". - Xojamning farmoyishlarini bosh ustiga oldim, u kishining madadi bizga yor bo'ldi. Cho'rilarini sotib oldik.

Xalifa uning gapini bo'ldi:

- O'zing sotib oldingmi?

- Yo'q, mening oldi-sotdi ishlarda uquvim kamroq. Lekin kerakli cho'rilarini sotib olishda kishilarga ko'maklashdim. Yaqinda ular bu yerga yetib kelib qolishadi. Men farmoningizga muvofiq tezroq, ulardan oldinroq jo'nayverdim.

Zirg'omning so'zini eshitib Mu'tasimning chehrasida boshqa bir holat ro'y berdi, boshini yerga egdi. Keyin u: "Mayli, bu haqda bafurja so'zlasharmiz", - dedi-da, boqchaning eshigiga ko'z tashladi. Xalifaning chakkasidagi taram-taram tomirlariga qon yugurdi. Zirg'omga imlab, xodachalar ustiga qo'yilgan temir qafasni ko'tarib kelayotgan kishilarni ko'rsatdi. Qafas ichida ko'zidan o't chaqnab bahaybat bir sher turardi. Yirtqich hayvonning shijoati Zirg'omga allanechuk ko'rindi-yu, xayoliga bir narsa kelgandek yuragi o'ynab, qovoqlarini chimirdi.

Xalifa tik qarab turardi. Qafas ko'targanlar yaqinlashishi bilan uni qo'llaridan yerga qo'yishga buyurdi. Sher quloqlarni kar qilgudek baland ovozi bilan bo'kirardi: "Sher jarohati qattiqligidan bo'kiryapti. Ko'kraginiq tepasidan otgandim. O'lib qolmasa edi deb qo'rqaman, lekin har ko'rganda bir shodlanishim uchun o'lmay yurishini istardim". Xalifa shunday dedi-yu, qafas tomoniga qadam tashladi. Uning hurmatini saqlab Zirg'om orqasidan yurdi. Sherning oldiga yetishlariga bir necha qadam qoldi.

Xalifaning qo'lida faqat bitta o'q yoydan bo'lak quroli yo'q edi, chunki kiyim-boshiga qarab turuvchi xizmatchisi u kelgan vaqtida shundan bo'lak hamma qurollarini yig'ishtirib olgan edi. Xalifa qafasga yaqin keldi-da, sherning jig'iga tega boshladi: urmoqchi bo'lgandek qo'lidagi o'q yoyni unga o'qtalar, sher esa bo'kirar va tipirchilardi. Sher ko'kraginiq yuqorisidan timmay qon oqar, qon tomchilari uning ko'kragi va oyoqlarida qotib qolgandi, ko'zlariga qon to'lgan, yumilay deb qolgan edi. Mu'tasim uni hozir o'lib qoladi deb o'ylab, tegajaklik qilib, unga o'q yoyni otgandi, u sherning naq ko'ziga borib tegdi. Sher jon achchig'ida unga hamla qilaman deb bir sakragandi, boshi temir panjaraga urildi. Uning g'azabi yana battarroq oshib, o'zini bilmay orqasiga qaytdi.

Mu'tasim bilan Zirg'om xavotir ichida shernen harakatlariqarab turishardi. Axir, u sher emasmi? O'lim oldida ham vahimasi bor-da.

Xalifa yonida Zirg'om shernen shu achinarli ahvoliga rahmi kelib, tikilib turarkan, u birdan qafasning bir chekkasini boshi bilan qattiq urib, ikkita panjarani sindirdi va u yerdan boshini tashqari chiqarib oldi. Zirg'om bilan xalifadan boshqa hamma bir-birini bosib-yanchib tumtaraqay bo'lib ketishdi. Sher "hap" etib xalifaga tashlandi-da, tirnoqlari bilan uning bilagiga yopishdi. Uni butunisicha yutib yuborguday bo'lib, og'zini katta ochdi. Mu'tasim holdan ketib, o'zini o'lganga chiqarib qo'ydi. Chunki o'zini

mudofaa qilishga va sherning changalidan qutulib chiqishiga biror chora qolmagan edi. Odamlar bo'lsa allaqachon hammasi chekka-chechkaga yashiringandi. Ammo Zirg'om joyidan siljimay sherga tashlandi, u bir qo'li bilan sherning pastki, ikkinchi qo'li bilan yuqori jag'ini yirib: "Mavlono, xizmatingizga tayyorman, xudoning amri bilan salomat qoldingiz", - dedi. Xalifa shu onda sherning ikkala jag'i ajrab ketganini ko'rdi va bilagini uning changalidan bir amallab tortib oldi. Shunga qaramay, sher Zirg'omga hamla qilishga urinmoqda edi. Zirg'om yonidan xanjarini chiqarib uni sherning ko'ksi, biqini va qo'lting'i ostiga sancha boshladidi. Uning qattiq jahli chiqqanidan, butun vajohati shernikidan ham haybatliroq bo'lib, mo'yabi dikkayib, ko'zi qizarib va qovog'i solinib ketdi.

O'takasi yorilib, har tomonga qochib ketgan odamlar sherning qonga bo'yanganini, Zirg'om uning ustiga minib olganini va xalifa Zirg'omga tikilib turganini ko'rib, yopirilib kelishdi. Ular g'ovur-g'uvur ichida xalifaning salomat qolgani uchun shukurlar aytib, Zirg'omning botirligiga qoyil qolib, hang-mang bo'lib turishardi. Bu tasodifiy hodisadan qo'rqiб rangi o'chib ketgan xalifa Zirg'omga zo'rg'a jilmayib, qaradi-da: "Barakallo, Zirg'om! Chindan ham sher ekansan", - dedi.

Xalifaning maqtovini eshitgan Zirg'om o'zini tutib oldi. Qo'lidagi qon tomib turgan xanjarni yerga qo'ydi-da, "Men amiralmo"minining qullariman, bu qilgan ishim sizning iltifotining tufayli bo'ldi. Bu yirtqich hayvondan o'ch olishga siz munosib edingiz, yolg'iz o'zingiz uni albatta o'dirgan bo'lardingiz, lekin men shoshilib, o'zimni yo'qotib qo'ydim, sizga chovt solganiga chiday olmay, unga tashlanib o'ldirdim. Qilgan jur'atim uchun meni avf etasiz", - dedi.

Zirg'omning bunday odob bilan uzb aytishi xalifaga yana yoqib tushdi. "Qolgan gaplarni keyin alohida o'tirib so'zlashamiz", - dedi-da, ketishga qo'zg'aldi. Shu payt sherning tirnog'i botgan bilagi og'riyotganini sezgan bo'lsa ham, xalifa o'zini dadil tutdi va odamlarni tarqalishga buyurdi. O'zi esa Zirg'om bilan qasr tomon yo'l oldi va hojibiga: "Biz chaqirtirgan tabibdan bo'lak hech kimga huzurimga kirishga ruxsat bermaygaysan", deb amr qildi. Tabib kelib xalifaning jarohatini ko'rdi va zarar qilmaganini, qo'lidagi qalqon joniga ora kirganini aytди va salomat qutulgan bilan muborakbod qilib, kechga qadar o'rnidan qimirlamay yotishini maslahat berdi.

* * *

Xalifaning bu ko'rgiligi butun saroy ahliga tarqaldi, uning holini so'ragani vazirlar, qo'mondonlar kelishdi, lekin hojib ularni xalifaning farmoyishidan voqif qilganidan keyin ular qaytib ketdi. Xalifa Zirg'omni o'z xonasi ichidagi maxsus hujraga taklif qildi. U yuz-qo'lini yuvib, u yoq-bu yoqlarini tuzatib o'sha hujraga kirdi. Xalifa unga minnatdorchilik izhor qilgandek o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin Zirg'om uni turishga qo'ymay, qo'liga yopishib, o'pdi. Xalifaning taklifiga muvofiq odob bilan uning yonida o'tirdi. "Zirg'om, sen tufayli yangidan dunyoga keldim", - dedi xalifa.

Zirg'om uyalib, boshini quyi soldi: "Xojam, avf etgaysiz, bunday maqtovga arzulgulik bir ish qilolganim yo'q. Sherni halokatga solgan sizning o'qingiz, uning qo'zg'algani jon talvasasi edi. Mabodo men biror ish qilgan bo'lsam, bu burchimdir, men sizning qulgingizman".

Xalifa unga qarab: "Ofarin senga, mening atrofimni ikki yuzlama, laganbardor kishilar o'rab oltan. Ularga shunchaki ishonch bildirsam ham, sening qahramonliging va sadoqatingni sezib, ko'pdan buyon suyub yuraman. Shunday qalbaki kishilar orasida xalifalar saroyida sendek qo'mondonning bo'lishi oson gap emas. Sadoqatingni avvaldan sezib, seni soqchilar boshlig'i lavozimiga tayinlagandim. Sen shu mansabga loyiq kishisan", - dedi-da, bu suhabatlarini birov eshitayotgan-eshitmayotganini aniqlash uchun eshik va deraza tomon qarab qo'ydi. Zirg'om yerga bosh eggancha sukut etib turardi. Keyin Mu'tasim boshini ko'tarib davom etdi:

- Farg'onadan tezroq qaytib kel, deb seni chaqirtiranimning sababini bilasanmi?
- Ojizman, janob oliylari.
- Davlatimizning barqaror turishi uning sirlarini maxfiy tutishga bog'liqligini bilmasang kerak?
- Bundan voqifman, xojam amin bo'lsinlarki, sirlarini saqlashda men o'z ko'ngillaridagidan ham mustahkamroqman.
- Sadoqating va yaxshi xizmat qilishingga birinchi ko'rganimdayoq ishonganman. Senda shu xislat mavjudligini sezib, seni suydim.

Zirg'om uni hurmatlab, tashakkur aytmoq uchun o'rnidan qo'zg'oldi:

- Bu ulug' marhamat, lekin men unga sazovor emasman, mendek bir askar amiralmo"mininning shunday iltifotlariga sazovor bo'lishi amri mahol. Payg'ambarning qoim maqomlariga xolis xizmat qilish bilan men biror ortiqcha ish qilibmanmi? Bu jami musulmonlarning vazifasi emasmi?

Xalifa uni qo'lidan ushlab o'tqazarkan:

- To'g'ri aytasan, bu albatta musulmonlarning burchi, lekin shu burchini ko'ngil bilan ado qiladigan kishilar ozda, shunday bo'lmaganda men Bag'doddan chiqib, bu shaharni qurishga majbur bo'lmagan bo'lardim, o'z qavmim va jamoamga va akam Ma'mun davlatdan umidvor qilib qo'yan bu eronliklarga qarshi kurashish uchun uzoq Turkiston va Farg'onadan askar olishga sira hojat bo'lmagan bo'lardi. Men har tomonidan dushman qurshovidaman. Ozarbayjon va Tabaristondagi uzoq dushmanlar menga ozlik qilganday, o'z shahrim va saroyim ichidagi kishilarni aytmaysanmi? Hatto o'zimga sirdosh qilib oltan va davlatimni himoya qilishda ishonganim mana bu turklarni ko'rmaysanmi, ular faqat mol-mulkim uchun menga yordam qilishyapti. Men ular bilan murosa qilib, allaqancha mol-dunyo sarflab avaylab kelyapman. Ular meni aldayapmiz deb o'ylashadi, - dedi-da, suketga botdi. Yoshlangandek tuyuladigan ko'zidan o't chaqnab, jiddiy qiyofaga kirdi. Zirg'omni salobat bosib, yana nima derkin deb yerga boshini quyi solib kutib turdi. Xalifa so'zini davom etdirdi:

- Farg'onada Afshinni ko'rdingmi?
- Ha, xojam, ko'rdim.
- U yerga nima uchun borgan ekan?
- Farg'onaga nima uchun borganini menga aytgani yo'q, yangi yil bayrami munosabati bilan el-yurtidan xabar olishga borgan bo'lsa kerak deb o'ylayman. Har holda yaqin orada kelib qolsa kerak.

Xalifa Zirg'omning so'zini ma'qulladi:

- Ha, albatta keladi-da, u bu yerdek sermaishat joyni qaerdan topardi, lekin...
- Uning sizga sadoqati xususida biror ishtibohingiz bormi?
- Ishtibohgina emas, balki aniq bilaman, lekin o'zimni chalg'itib, unga ishonch bildiraman, chunki biz urush davridamiz... Afshin askarlarini biz uchun kerak. Shunday bir vaziyatda sen mening sirdoshim bo'lib, saroyimdan jilmasligingni iltimos qilaman.

Zirg'om qulliq qildi:

- Men qulgingizman, buyurgan ishingizni bajarish vazifam.

- Sen hozirdan boshlab menga yaqin suhbatdoshsan. Botirligingga o'z noming juda mos kelsa ham, senga sohibb'ib" suhbatdosh deb nom qo'yishga jazm qildim. Chunki sen menga suhbatdoshsan, shu laqab senga ma'qulmi?

Zirg'om tashakkur tariqasida boshini egdi:

- Amiraldo'mininning menga marhamatlari behaddir. Men bunday muruvvatga sazovor emasman. Lekin, janoblari, kaminaning darajasini ko'tarmakchilar va...

Xalifa uning gapini bo'ldi:

- Nega o'zingni bunday hurmatga sazovor emasman deb hisoblaysan? Axir sherning changalidan meni qutqazgan sen-ku!

Zirg'om xijolat chekib boshini quyi soldi. Lekin xalifa oldida martabasi ko'tarilayotganini va shunga haqiqatan ham loyiq bo'lganini eshitsa, Jahon albatta sevinajagini o'ylab ko'ngli yanada ko'tarildi. U xalifaga qaradi:

- Xojamning ko'rsatgan iltifotlari uchun tashakkur aytishga tilim ojizdir.

- Hali shuni iltifot deb hisoblaydigan bo'lsang, kelajakda sen uchun mo'l qo'yilgan haqiqiy in'omlarimga nima derkinsan?

Zirg'om sukut etdi. Xalifa so'zida davom etdi:

- Sen hali uylanmaganiningni va onang bilan birga istiqomat etayotganiningni bildim. Shuning uchun bu qasr yonida maxsus bir hovlida tursanglar, deyman. Sening uylanish vaqtin ham yetib qolibdi, ha, shunday emasmi?

Zirg'om odob bilan boshini yerga solib turarkan:

- Xojam o'zlar biladilar, - dedi.

- Men senga g'oyatda chirolyi, ziyorak bir turkiy cho'rini mo' qo'ydim. Bundan bir yildan ziyodroq men uni bu Zirg'omga loyiq qiz ekan, deb ko'nglimdan o'tkazib qo'ygandim.

Xalifadan bu gapni eshitgan Zirg'om barmog'ini tishlab qoldi. Chunki uning ko'nglida butunlay boshqa sevgi chechak yozgan edi. U Jahonni sevgan, undan boshqaga ko'ngil berishni aslo istamasdi. U xalifaga qarshi chiqishdan ham, uning taklifini qabul qilishdan ham ojiz edi. U nima deyishini bilmay, gangib jim turib qoldi.

O'z taklifidan Zirg'omning tortinishini hech o'ylamagan xalifa uning xayolga cho'mib turganini ko'rib so'radi:

- Nega indamaysan? Yoki mening taklifim ma'qul tushmadimi?

- Yo'q, aslo! Amiraldo'mininning soyai panohlarida istiqomat etish men uchun eng yuqori istak-ku axir! - Lekin Zirg'om uylanish ustida gap ochmadi. "Uyalib buni aytmagandir", deb o'ylagan xalifa:

- Ha, uylanish-chi, balki sen boshqa kishilardek emasdirsan? Askarlarim ichida uylanishni istamaydigan biror odam yo'q-ku. Shuning uchun ham men Turkistondan cho'rilan sotib olib kelishga kishilar yubordim. Men turklarni Bag'dod yoki boshqa yerdagi kishilarga aralashib, ersifat bo'lib ketishlarini istamayman. Yoki bu safar olib kelingan cho'rilardan birortasiga uylanish niyatning bormi? Lekin har qancha o'ringaniningda ham butun Turkistonda men tanlagan qizdan chiroylirog'i ini topa olmaysan. Uning mena ma'qul bo'lgani bejiz emasdир, albatta. Uning tengsiz husnini ko'rgan qo'mondonlarim yo'lida jon fido qilishmoqda, lekin men qizni ulardan birontasiga ham berdirmay, faqat senga ravo ko'rdim.

Zirg'om va xalifaning taklifini qabul qilishga, na ko'nglidagi fikrini ochiq-oydin aytishga yo'l topolmay qoldi. Shunday bo'lsa ham o'zini dadil tutib, dedi:

- Hozir biz urush holati yoki unga tayyorgarlik ko'rish paytidamiz. Shu vazifadan bo'shagach, amiraldo'mininning amr-farmonlaridaman.

Mu'tasim qanoat hosil qilganday bo'ldi. Zirg'omning urushga tayyorlanayotgani unga ma'qul tushdi:

- Xo'p, mayli, biz urush holatidamiz. Lekin sen mening qasrimdan qimirlamasligining kerak. Borib onang va ro'zg'orlaringni bu yerga oldirib kel, shu bugundan boshlab noming "Sohib" bo'lganini onangga aytib qo'y. Men saroydag'i maxsus kishilarimga, qo'mondonlarimga va arkoni davlatga bu xususda shipshitib qo'yaman.

Xalifa o'rnidan qo'zg'oldi. Zirg'om ham turishga otlandi:

- Bo'lmasa, farmoningizni validamga yetkazish uchun uyg'a borishga ijozat bersangiz.

- Mayli, istasang, bor! Xodima shu bugunning o'zida sizlar uchun joy tayyorlab qo'yadi.

Zirg'om ta'zim qilib, orqasi bilan yurib, xalifaning oldidan chiqdi. U eshikka chiqib, otni olib kelish uchun Vardonga kishi yubordi. Zirg'om xayolga cho'mganicha Vardon bilan otga minib, uy tomon jo'nadi. Xalifaga yoqib qolgani va o'zi bilan birga istiqomat etishiga taklif etgani uchun u har qancha mammun bo'lsa ham, uylanish ustidagi gapidan hayron edi. Lekin bu taklif siyosatga daxldor bo'limgani uchun uning chorasi topilib qolishiga ishonardi.

Zirg'om uyiga yetib kelishi bilanoq onasi kutib oldi va Vardondan hol-ahvol so'radi. Keyin tayyorlab qo'yilgan ovqatini olib kelib xontaxtaga qo'ydi. Hammalari birga ovqatlana boshlashdi. Ona o'g'lining sukutidan biror yangilik yuz berganini sezdi:

- Amiraldo'mininiga uchrasha oldingmi, bolam?

- Ha, oyijon, uchrashdim.

- Ahvollari qalay? Sen Farg'onadan tezroq qaytib kel, deb chaqirganlarining boisini aytdilarmi?

Zirg'om duduqlanib qoldi. Xalifa bilan oralarida o'tgan hamma gapni onasiga aytib bersa, xalifaga bergan va'dasiga xilof ravishda sirni oshkora qilgan bo'lardi. Shuning uchun: "Ha, aytdilar, lekin qiziq bir voqe'a yuz berdi" deb qo'ya qoldi.

- Nima bo'ldi?

Zirg'om onasiga sher voqeasini, undan xalifani qutqarib qolganini va uning nomini xalifa Zirg'om emas, "Sohib" deb o'zgartirganini va buning sabablarini aytib berdi. Onaning ko'ngli ko'tarildi va shodligidan betiga qon yugurdi. Zirg'om: "Bundan tashqari, xalifa meni o'z yonlarida yashab turishga da'vat etdilar", - dedi.

Ona bir burda nonni olib yemoqchi bo'layotgan edi, o'g'lining so'zini eshitib, hayron bo'lib qoldi va ikkala oq ko'zini unga tikib:

- Yonlarida istiqomat qilishingga rostdan da'vat qildilarmi? Nimaga? - dedi.

- O'zlariga mulozim bo'lishim uchun, bu menga katta hurmat.

Onasi og'zidan chaynab turgan nonini yutmay turib:

- Xalifa mening ham sen bilan birga turishimni aytdilarmi? - dedi.

- Ha, sen ham, onang ham shu yerda istiqomat etasizlar, dedilar.

Onaning rangi o'zgardi. Og'zidagi taomni shosha-pisha chaynashidan uning tashvishga tushib qolgani sezilib turardi:

- Mayli, bolam, sen o'zing boraver, xalifaning qasrida yashash men uchun darkormas.

- Oyijon, nimaga unaqa deyapsan? Siz bormasangiz, men ham bormayman, albatta.

- Yo'q, bolam, sen boraver, xalifaga yaqin turish - katta obro', buni qo'mondonlar orzu qiladi. Men esa shu yerda turaman, vaqtiga vaqtiga bilan oldimga kelib turarsan. Seni qo'lim bilan ushlab, yuzlaringdan o'pib tursam kifoya.

Oناسинг тортинишдан яхашни истамайотганидан Зирг'ом таажиубланди:

- Ўо'қ, ойи, сиз мен билан у ўерга борасиз. Бирга яшаймиз, мен халифага ва'dа бераб келдим. Ва'dага вафо етмасликка чорам ўо'қ.

Она озгина Jim турди-да: "Майли, о'йлашиб ко'рамиз", - деди.

- Ойи, ваqt tang, ertaga ko'chishimiz kerak. Mas'udaga buyursangiz tayyorgarlik ko'raversa. Men Vardonga aytaman, u ham Mas'udaga yordamlashadi. Siz xalifaning saroyidagi ayollar bilan apoq-chapoq bo'lib, kunduz kunlari ular bilan suhbatlashib yoki ashula eshitib o'tirasiz. Bu yerda bitta o'zingiz o'tirgandan ko'ra saroya yashash yaxshi emasmi? Bundan tashqari, men uchun muhim bo'lgan bir maslahat vajidan sizning u yerda bo'lisingiz zarur.

Oناسинг betiga qon yugurdi, ahvoldi o'zgardi. Uning avzoyi o'zgarganligi ojiz ko'zlarining alang-jalang bo'lganidan sezilib turardi.

- Ammo ovunish, suhbatlashish uchun menga sen keraksan, bo'tam. Mening yolg'izim, ko'z qorachig'im sensan. U ўерга bormasligimning chorasi bo'lmasa, uyda turish yoki u yoq-bu yoqqa chiqib ketish ixtiyori o'zimda bo'lishini senga shart qilaman. Xo'sh, men uchun muhim bo'lgan bir maslahat vajidan siz u yerda bo'lisingiz kerak deyapsan. Ko'rib turibsan, men ko'zi ojiz bir ayolman. Menga qanday ehtiyojing bor?

- Ойи, siz mening nurim, chirog'imsiz. Siz xalifaning menga tayyorlab qo'yanan "baxti"dan qutqazishga yordam beradigan kishimsiz.

- Baxtdan qutqazish? Nima demoqchisan, ochiqroq ayt!

- Xalifa men uchun bir turk qizigasovchi bo'lyapti. Aytishicha, bu shaharda undan go'zal qiz yo'q emish. Uni boshqa hamma qo'mondonlaridan ko'ra menga munosib deb bilgan emish.

- Sen unga nima javob aytding?

- Yo'q deyishga tilim bormadi. Keyinroq javobini aytaman, deb va'da qildim.

- Nima, uni rad qilmoqchimisan?

- Bo'lmasam-chi, qabul qilaymi?

Она sukut etdi. Uning Jahonga bo'lgan muhabbatini esladi:

- Xalifaning taklifini qanday rad qila olasan?

Zirg'om yuragidagi dardini ochiq izhor etdi:

- Jahon-chi? Men unga mehr qo'yanman-ku?

- Meni shuning uchun birga bo'lasiz deyapsanmi? Xo'p, men seni bu tuzoqdan qutqazish chorasini ko'raman, bu qiyin ish emas, albattra.

Zirg'om xursand bo'lib ketdi.

- Unday bo'lsa hammamiz ertaga ko'chamiz. Siz meni Zirg'om deb chaqira ko'rmang, chunki xalifa mening nomimni "Sohib" deb ataydi, Zirg'om desangiz, mening qo'yanan nomimni yoqtirmabdi, deb xafa bo'lishi mumkin.

- Xo'p, o'g'lim, shunday qilaman.

Shu payt ular ovqatlarini yeb bo'lishdi. Ona ko'chish taraddudini ko'rishni Mas'udaga buyurdi. Zirg'om esa unga yordam berishga Vardonni qo'shdi.

Ertasiga ular hammasi xalifa saroyiga ko'chib borishdi va uning yonidagi bir hovliga joylashishdi.

Xalifaning boshqa xizmatlariga suyanishsa ham, ona-bola o'zlar uchun Mas'uda bilan Vardonni olib qolishdi.

Ahmad Ibn Abu Duod

Jahonning kelayotgani to'g'risida biror yangilik eshitishga ilhaq bo'lib Sohib xalifa saroyida bir qancha vaqtini o'tkazdi. Xalifa Sohibga tanmahramlikka tanlagan qizdan xalos bo'lish uchun u Jahonning tezroq yetib kelishini sabrsizlik bilan kutardi. Xalifa Jahonni ko'rgach, o'z qo'mondoniga boshqa biron qizni ep ko'rmasligi turgan gap edi. Shuning uchun Sohib dunyodagi hamma qizlarni sevgilisi Jahonning tirnog'iga ham olmas edi. Buning uchun xalifa undan xafa ham bo'lmasdi. Biroq Jahon nega kelmayapti ekan? Undan darak bo'lavermagandan Sohib qattiq tashvishda edi: ko'ngli g'ash, yuragiga qil sig'maydi. Bir kuni do'sti va xizmatchisi Vardonni yo'qlatib, undan: "Far-g'onaliklar xususida qanday fikr dasan?" deb so'radi.

Uning maqsadini sezgan Vardon:

- Ayam Jahonni aytyapsizmi? - деди.

- Borakallo. Otasining ta'ziysi tugagandan keyin Bag'dodga kelishga va'da bergen edi, lekin hanuz daragi yo'q. Biror kishi orqali xabar qilmadi. Sen bunga nima deysan?

- Ruxsat etsangiz, o'zim borib buni surishtirib kelsam?

Xizmatkorning bu qadar fidokorligidan mammun bo'lgan Sohib jilmaydi va: "Borakallo, Vardon, senga bu qadar og'ir vazifani yuklamoqchi emasman. Faqat nima qilsak bo'larkin, deb maslahat so'rayapman, xolos", - деди.

Vardon o'ylab, boshini ўерга egib turdi:

- Menimcha, janob Afshin Farg'onadan kelguncha yana bir oz tahammul qilsak.

- U qachon kelarkin?

- Yaqinda kelarmish degan xabar bor. Kelgan zamon o'zidan yoki hamrohlarining birortasidan surishtirib bilib olamiz.

Vardonning maslahati Zirg'omga mas'ul tushdi: "Bo'lmasa, buni Afshinning hamrohlaridan o'zing so'rab, bilasan". Vardon: "Xo'p, maqsadingizni angladim", - деди. Sohib kuldi.

- Men uchun qaysi maslahatni foydali deb bilsang, yashirmay bermalol aytaver! Yodingdan chiqmasin, men seni xizmatchim emas, do'stim, sirdoshim deb hisoblayman!

Vardon unga ta'zim qilib, bosh egarkan: "Men hamisha xizmatingizni jon-dildan ado etuvchi xodimingizman. Hozir menga ruxsat bersangiz, Afshinning karvonlari yetib kelmasdan, yo'liga chiqsam", - деди. "Mayli, bor, o'zingga ma'qul ishni qilaver!" в Б рuxsat berdi unga Sohib Vardon u bilan xayrashib, chiqib ketdi.

Zirg'om qasrda o'tirgan edi: "Xalifa sizni yo'qlayaptilar", deb bir kishi keldi. U otlanib, xalifaning qasri tomon yo'l oldi. Qasrga yaqinlashganda, unga: "Xalifa o'z xosxonalarida qozikalon Ahmad ibn Abu Duod bilan suhbatdalar", deb aytishdi.

Ahmadning xalifaga g'oyat manzurligi Zirg'omga ma'lum edi. U muhim ishlar xususida Ahmad bilan maxsus gaplashib olardi.

Zirg'om ruxsat so'rab, ularning oldiga kirib bordi. Xalifa xona to'rida, o'z kursisida, Ahmad ibn Abu Duod esa uning yonida, ikkinchi kursida o'tirardi.

Asli arab bo'lgan Ahmad ularga zo'r ixlos va muruvvat bilan tanilgan kishi edi. Mu'tasim arablarni o'zidan uzoqlashtirgan, ulardan iltifotini uzib, qadr-qimmatlarini ancha pasaytirib qo'yan edi. U o'ziga turklarni yaqin tutardi. Shunday bo'lsa ham Ahmadga ishonchi zo'r edi: vazirlari o'rniga u bilan maslahatlashar va uning maslahatisiz biror ishga qadam qo'ymasdi.

Odatda xalifalar oldida boshqa kishi gap boshlashi mumkin bo'lmasa ham, Ahmad Mu'tasim oldida bemalol gapiraverardi...

Xalifa oldida qozilar qozikaloni o'tiganini ko'rgan Zirg'om o'zining muhim bir ish yuzasidan chaqirilganini sezdi. U xalifaga salom berdi. Xalifa unga "alik" oldida: "Marhamat, qani, kelaver, Sohib", deb Ahmad ibn Abu Duod yonidan joy ko'rsatdi. Keyin u qoziga qarab dedi:

- Siz, ehtimol, bu qo'mondonni hamma biladigan nomi bilan emas, boshqa nom bilan chaqirayotganidan ajablanayotgandirsiz? Sizning bu yigit to'g'risidagi fikringiz maqbul, ko'pdan beri uning botirligi va sadoqati haqida so'z yuritardingiz. Men uning siz maqtaganingizdan ham a'lo ekanini amalda sinab ko'rdim. U men uchun o'zini o'lim to'lqiniga otdi: meni sherning changalidan qutqazib, o'z qahramonligini namoyish qildi. Shu vajdan uni o'zimga yaqin tutib, Sohib deb ism qo'ydim va saroyga keltirib joylashtirdim.

Oltmis yoshlар chamasida bo'lib, soch-soqoliga oq oralagan qozi Mu'tasim Zirg'omni maqtayotganini eshitib: "u maqtovga arziyidigan yigit ekan. Men uni dastlab ko'rishdayoq ma'qul topib, istiqboli ulug' bo'lar, deb umid tutgan edim. Ilohim, xizmatingizda barqaror bo'lsin!" - dedi.

- Shuning uchun hozirgi maslahatimizdan uni voqif etish kerak, - dedi Mu'tasim.

Zirg'om odob saqlab, xalifaning farmonini kutib o'tirardi. Xalifa unga dedi:

- Ey Sohib, Armanistondagi o'sha majusiy to'g'risida kelgan xabarlarni biz qozi bilan muhokama qilayotgan edik.

Xalifa Ardabildagi davlat boshlig'i Bobak al-Xurramiyini ko'zda tutayotganini sezgan. Zirg'om: "Bu odam biror voqeа sodir qildimi?" - deb so'radi. Uning xalifa bilan tuzilgan bitimni buzganidan, musulmon askarlari bilan o'talarida yuz bergen voqealardan va Bobakni qo'lga tushira olmaganlari tufayli uning ishi avj olib ketganidan Zirg'om xabardor edi. Qozi gapga aralashdi:

- Bobak al-Xurramiyining Armanistonda xalifaga itoat etmagani, u goh Afshin askarlarini, goh boshqalarni xalifaga qarshi gijgijlatgani sizga ayon. Biz bilan Armaniston orasi olis, urush ba'zan bizning foydamizga, ba'zan uning foydasiga hal bo'lib kelmoqda. Bobak u yerda mustahkam o'rashib olgan. Xalifa esa... - u jim bo'lib Mu'tasimga qaradi. Mu'tasim uning so'ziga qo'shimcha qildi:

- Ey Sohib, Afshindan ko'nglim to'q emasligini, undan qanday qutulishga hayronligimni senga aytgan edim. Sen uni o'z yurti, o'z fuqarosi, qavm-qarindoshi, urug'-aymoqlari ichida ko'rding. Xo'sh, uning xususida qanday mulohazaga kelding?

- Afshin u yurtlarda katta hukmdor. Uni yo'boshchi deb hisoblashar, shahanshoh deb atasharkan, qay bir kishilar uni "xudolar xudosi" deb yuborishdan ham toymas ekan. U musulmon diniga kirishdan avval shunday nomga ega bo'lgan ekan. Hozir u "xudolar xudosi" deb atalishini istamasa kerak. Ey xalifam, u shu qadar katta nufuzga egaki, bir marta xitob qilsa, son-sanoqsiz kishilarini uning chaqirig'iga tayyor bo'ladi. Xalifa istasalar, uni vazifasidan bekor qila oladilar. Meni uning o'rniga tayinlamoqchi bo'lsalar, xizmatlarida qonimni ham, jonimni ham ayamayman. Men o'zimni Afshindan qudratliroq deb o'ylamayman, lekin xalifaning sodiq qullariman. Qaysi xizmatga munosib ko'rsalar, men tayyorman, tangrining o'zi madadkor bo'lsin.

Qozi Mu'tasimga qarab:

- Sohib o'z sadoqatini va davlat xizmatiga fidokorligini ochiq aytyni. Bunday o'zgarishlardan kelib chiqadigan xatarli natijaga, albatta, uning idroki yetadi. Men Afshin yoki boshqa biror kishi bizning fikrlarimizdan voqif bo'lmasligini lozim ko'rardim. Agar ijozat bersangiz, menda bir mulohaza bor, shuni o'rta ga tashlasam, balki biror manfaati tegib qolsa ajab emas.

- Qani, eshitaylik, - dedi-da, xalifa Zirg'omga qaradi: - Men qozini vazir va maslahatchilarim maqomida hisoblayman. Vazirlarim va xos kishilarim ko'p, lekin ulardan bittasiga ham qozichalik ishona olmayman. Gapiring, qozi afandi!

- Afshin o'z yurtida podshoh, uning askar va yordamchilari yetarli. U sizga faqat mol-mulk orttirish, boyish maqsadida xizmat qilyapti. Ba'zilarning aytishicha, uning musulmonlarga xizmati faqat mol-mulki uchun, o'z holiga qo'yilsa, albatta, Bobak bilan birlashib, biz musulmonlarga qarshi jang qiladi. Bordi-yu, uning musulmon bo'lgani rost bo'lsa ham, har qalay sinalmagan-da. Biz unga qattiqqo'llik qilsak, to'nini teskari kiyib olsa ajab emas. Bobak bilan bir yoqadan bosh chiqargudek bo'lsa, o'zingizga ma'lum, biz uchun ancha xatarli ish bo'ladi. Menimcha, uni aldashimiz, "sen davlatimiz uchun eng ishongchli kishisan", deb ishontirishimiz, istaganicha pul-mol berib, o'zini va askarlarini sotib olishimiz va Armanistondagi o'sha majusiyga qarshi urushga solishimiz kerak. Yengib chiqsa, Bobakdan qutulgan bo'lamic. Shundan keyin Afshinning xoinligi xalifaga ochiq-oydin ayon bo'lsa, jazosini berish hech gap emas. Chunki u yakkalanib, suyanchig'i qolmagan bo'ladi. Agar uning bizga chin ko'ngildan xizmat qilayotgani aniqlansa, u vaqtida tegishli hurmat ko'raveradi.

Qozining so'zini eshitgach, Zirg'om uning fikri oqilona fikr ekanligiga ishonch hosil qildi. Zirg'omning o'ziga qolsa, u bunday hukm chiqara olmasdi, chunki u qahramon bo'lsa ham, bunday nozik fikrlay olmasdi. Bir kishi ayni vaqtida ham qahramon, ham o'tkir fikrli bo'lishi juda kam uchraydi.

- Qozi, bu eronlik yoki ushrusanalikning kuchiga ortiqcha baho beryapti, undan qo'rqtyapti. Askarlarimiz ichida ulug' sarkardalar borligini bu kishi unutganga o'xshaydi. Ularning har biri o'z kishilarini va qurol-yarog'i bilan davlatimizni himoya qilishga qodir.

- Xalifamiz rost aytyni. Chindan ham farmonlarida Ashnos, Itox, Bag'o, Sumo va boshqa bahodirlar bor. Lekin ular oddiy xalqdan chiqqan, ularning birortasi ham askarlar ichida Afshindek nufuzga ega emas. U o'zining behisob xalqi orasida qancha hokimiyatga ega ekanligini hozir eshitib turibmiz. Agar biz uni xafa qilsak, yuqorida zikr etgan kishilarimiz uning o'rnini bosishga ojizlik qilib qolar. Bobakning qarshi chiqishi o'rta ga suqilmasa, biz na Afshinning, na boshqalarning kuch-qudratini pisand etmagan bo'lardik. Siz xalifam, shijoatli va tadbirkor kishisiz. Tangri sizni xalifalik bilan siylaydi. Binobarin, hiylakorlik yoki sabrpeshalikka yurmaysiz. Ammo hadisda: "Urush hiylakorlik - makrdan iboratdir", deyilgan. Mening ra'yim shu. Yana hamma ish o'z ixtiyorligizda. Hamma a'yonlar qatori men ham sizning irodangizga bo'y sunaman. Sizga itoat etish yo'lida qonimizni ham, jonimizni ham ayamaymiz.

Xalifa: "Qozining so'zlariga nima deysan", degandek Zirg'omga qaradi. Zirg'om: "Men qozining gaplarini qaytarishga botinmayman. Yaxshi siyosat bobida u kishi o'ylagan fikrlarni men xayolimga keltirishdan ojizman. Mening javobimni o'zingiz eshitdingiz. Men qilichbozman, binobarin, farmoningizni tugal bajarish burchimdir. Xoh Ozarbayjonga, xoh Turkistonga, xoh Armanistonga qo'shin tortishga amr qilsangiz, butun kuch-qudratimni, g'ayrat-shijoatimni sarflab otlanaman. Ammo qozining andishalari, bergen maslahatlari ancha ma'qul. Shunday bo'lsa ham xalifamizning oliy tadbir va ra'ylariga itoat etamiz", - dedi.

- Ikki ish sababli ikkalangizdan maslahat so'radim,- dedi xalifa, - birinchisi, Afshinning yetib kelishi yaqin qolgani to'g'risidagi

xabar, ikkinchisi esa Armanistondan kelgan ayg'oqchimizning so'ziga ko'ra, la'nati Bobakning kuchayib borayotgani va biz tomonga qo'shin tortishi ham ehtimoldan uzoq emasligi masalasidir. Bobakning kelishini beparvo kutib o'tira olmaymiz. Qozi unga daldha berdi:

- Bobak mamlakatimizga qadam bosishga jur'at qilishiga sira aqlim bovar qilmaydi. O'zi "xalifa bizning ustimizga qo'shin tortib kelib qolmasmikin" degan xavotirda. Menimcha, hozir Afshinni yaxshilab kutib olish, undan keragicha foydalanib qolmoq uchun "sen yaxshi", deb turish kerak.

* * *

Ular shu suhbatda ekan, asr namoziga aytelayotgan azon tovushi eshitildi. Xalifa o'rnidan turishga otlanib, qo'lini qo'liga urib, xojibni chaqirdi-da: "Xalifa asr namozini o'qish uchun masjidi jomega kelarmishlar" deb jamoatga xabar qilib qo'yishini buyurdi. Zirg'om ham, qozi ham xalifa bilan o'sha masjidga borishi lozim bo'lди. Bu masjidni xalifa Mu'tasimning o'zi bino qildirgan. U shu qadar mustahkam qurilgandiki, islom mamlakatlarida yagona edi. Uning devor va mehrobi oynavandlik qilib ishlangan bo'lib, mehrobda turib namoz o'qiydigan kishi tashqaridan masjidga kirib kelayotganlarni bernalol ko'ra olardi. Masjid xalifaning qasriga yaqin bo'lgani uchun u namozni ko'pincha shu yerda o'qirdi. Xalifa o'rnidan qo'zg'alayotganda qozi bilan Zirg'om uyilariga borib tahorat olib kelishga ruxsat so'rab, tashqari chiqishdi.

Masjidga avval xalifa kirdi. Kishilar, sardorlar va vazirlar uni ko'rish uchun tik turishardi. Xalifa masjid ichida o'zi uchun ajratilgan hujraga kirishi bilan ketidan uning xos kishilar, jumladan, qozi Ahmad va vaziri Muhammad ibn Abdulmalik az-Zayyot hamda yuqorida nomlari zikr etilgan turk sarkardalar kirishdi. Zirg'om ham ichkari kirib, oddiy kishilar qatoriga borib o'tirdi. Devorga o'rnatilgan oynalar shunday shaklda ediki, namoz o'quvchilarga o'z shakllari boshqa bir masjidda namoz o'qiyotgan kishilardek bo'lib tuyulardi.

Zirg'om mehrobdag'i oynalarga qarab, orqa tomonidan tanish-notanish kishilarning masjidga kirayotganini ko'rib turib, namozni o'tayotgan edi, to'satdan tanishdek tuyulgan bir kishiga ko'zi tushdi. Uni yaxshilab ko'rib olish uchun sekin orqasiga qaradi: u Jahonning akasi Somon edi. Zirg'om avaylab orqasi bilan yurib, eshikka yaqinlashdi. Uning orqasiga qaytayotganini ko'rgan Somon undan oldinroq masjid sahniga chiqib ketdi. Somon Farg'onadalik vaqtida ko'rim sizligini bildirmaslik uchun yaxshi xil'at kiyib, o'ziga oro berib yurardi. Hozir u butunlay o'zgarib ketibdi. Zirg'om uni zo'rg'a tanidi. Somon achinadigan darajada ozib ketgan, kiyimlari to'zgan, qo'l va boshini bog'lab olgandi. Uning shu alfozda turganini ko'rib, Zirg'omning rahmi keldi va Jahonga biror gap bo'l madimikin degan fikrga kelib: "Somonmisan?" deb baland ovoz bilan so'radi.

- Ha, Somonman.

- O'zi nima gap? Senga nima bo'ldi? Jalon qani?

- Alovida bir joy bo'lса, boshimdan o'tgan hamma savdolarni birma-bir aytib berardim. Somurroda sizni qidirmagan yerim qolmadi. Holdan toydim. Ehtimol, shu yerdan toparman, deb masjidga qidirib kelgandim.

- Qani, orqamdan yuraver, - deb Zirg'om masjid sahnidan yura boshladi, - meni eski nomim bilan so'ragan bo'lsang kerak. Uni hozir hech kim bilmaydi. Meni bu yerda "Sohib" deb atashadi. Jalon qaerda? Kiyimlaring nega bunchalik xarob?

Ular ikkalasi masjid sahnidan chiqib, Ka'ba shaklidagi to'rt burchak bir binoga yetib kelishdi. Uyigacha borishga sabr-toqati qolmagan Sohib Somon bilan shu binoga kirib, uning qissasini eshitishga qaror qildi. Binoga kirib, Somonni supada o'tirishga taklif qildi-da: "Xo'sh, gapir-chi, Jalon qaerda, qanday falokat yuz berdi?" - dedi.

Somon xo'rsinib, boshini yerga egdi:

- Sizni xafa qiladigan xabar bilan keldim.

Zirg'om hayajonga tushib so'radi:

- Nima, Jahonga bir gap bo'ldimi?

- Yo'q, unga hech gap bo'lgani yo'q, lekin... - Somon gapini davom ettirolmay, "qult" etib yutindi.

- Lekinini ayt, nima gap o'zi? Jalon qaerda? So'zlay qolsang-chi axir!

Somon ko'ziga yosh oldi:

- U qaerdaligini bilmayman. Qaroqchilar yo'lда olib qochib ketishdi.

Zirg'om sherga o'xshab o'kirdi, Somonning ko'ziga qattiq tikildi, sochi tikka bo'lib, qo'rqinchli bir tusda: "Olib qochishdi, dedingmi? Bunga kim jur'at etdi?", dedi.

- Uni tortib olib ketgan yaramaslarning kimligini bilolmadim. Lekin siz bir oz sabr qiling, men bo'lgan voqeanning hammasini batafsil aytib bo'lay.

- Xo'p, gapir, lekin qisqaroq qil!

- Siz ketganiningizdan keyin bir necha kun ichida biz Farg'ona ahli boshiga ikkita kulfat tushdi, - dedi-da, Somon gapini birov eshitib qolishidan qo'rqayotgandek tovushini sekin qilib masjid sahniga ko'z yugurtirdi. Yaqin o'rtada qulq solayotgan kishi yo'qligiga qanoat hosil qilgach, davom etdi. - Kulfat bizga eng yaqin kishimizdan - otamiz bizni ishonib topshirib ketgan kishidan yetdi. Afshin otamning merosidan meni mahrum etish bilan qoniqmay, singlimga ko'z olaytirdi.

"Somonga tegishli bo'lgan hissaga ko'z olaytirgani yetmagandek, Jahonning merosiga ham qo'l cho'zibdi-da", deb o'ylagan va boshqa narsani xayoliga keltirmagan Zirg'omning a'zoyi badani jimirlashib ketdi.

- Demak, u insofsiz Jahonning merosiga ham qo'l cho'zibdi-da?

Somon o'zining soqolsiz taqir iyagini ishqlab turib, yo'talib qo'ydi-yu, hech narsa demadi. Bu xatti-harakatdan shubhalangan Zirg'om:

- Shunday emasmi? - deb so'radi.

- U ablah faqat merosga ko'z olaytirgan bo'lsa mayli edi-ya. Jahonning o'ziga ham ko'z olaytirdi. Bu achchiq haqiqatni sizga aytib, xafa qilganim uchun avf eting. Bu rost gap. U Jahonning botir Zirg'omga aytib qo'yilganini bila turib, o'ziga og'dirib olmoqchi bo'ldi. Jalon uni o'ziga tan mahramlikka qabul qilishi amri maholligini Afshin yaxshi bilardi.

Zirg'om qalt-qalt titrardi:

- Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

- Biz qochish chorasini ko'dik. Yengil-elpi yuklarimizni olib, Jalon bilan bir qofilaga qo'shilib, yo'lga tushdik. Bu ishimizni saroydagilardan oqsoch Hayzuron bilardi, xolos. Uni ham o'zimizga hamroh qilib, Afshin xabar topib qolmasin deb, shoshilinch ravishda uchalamiz Somurro tomon yo'l oldik. Issiq-sovuq demay, yo'l azobini chekib, ancha qiyinchilik bilan Xurosandan o'tdik va Hamadonga yaqinlashganimizda, hamrohlarimiz bizdan ajralib, bo'lak tomonga ketishdi. Biz esa endi tinch yerga yetib oldik,

xotirjam bo'laversak arziydi, deb o'yladik. Shu payt otliq qaroqchilardan bir to'dasi kelib, yo'limizni to'sdi. Kuchimiz yetgancha ulardan o'zimizni mudofaa qildik, hatto mening qo'llim sinib, boshim jarohatlandi. "Men o'lsam sadqai sar, ammo Jahon salomat qolsin", deb urindim. Lekin afsuski...

- Keyin nima bo'ldi? U jarohatlandimi yoki olamdan o'tdimi?
- Jahon sog'-salomat, lekin uni va oqsoch Hayzuronni olib qochib ketishdi. U menga: "Zirg'omga salom aytинг va bo'lgan voqeani unga yetkazing!" - dedi.
- Zirg'omning tutuni osmonga chiqib, qoni qaynab, ko'zlaridan o't chaqnardi:
- U qaroqchilar kim ekan? Birortasini ham tanib olmadingmi?
- Yo'q, ular "tanib qolishsa, sirimiz fosh bo'ladi", deb yuzlariga parda to'sib olishgan. Ovozlarini ham sira chiqarishmadi.

* * *

Zirg'om boshini quyi solgancha, jonsiz kishidek birmuncha vaqt jim qoldi. Keyin masjididan chiqib kelayotgan odamlarning g'ovur-g'uvuri qulog'iga kirib, o'ziga keldi. Xalifa ham masjidda ekanini eslatdi. Xalifa "Zirg'om nega yashirinib turgan ekan", degan shuhhaga tushmasin deb Somonga: "Meni kutib tur" ishorasini qildi-da, o'zi davlat arboblari yoniga borib turdi. Sal fursat o'tmay, tik turgan kishilar safdan chekinib, o'rtadan xalifaga yo'l bo'shatishdi va unga salom bermoq uchun kutib turishdi. Xalifa o'tayotganda turgan kishilarning yuziga birma-bir qararkan, Zirg'omga ko'zi tushdi, "qani, orqamdan kelaver" degandek unga ishora qildi. Xalifaning bu taklifi Jahon to'g'risidagi gaplarni bilib olishimga monelik qilmasmikin, deb Zirg'om ikkilanib qoldi. Xalifa qasrga yetmasidanoq odamlar asta-sekin tarqalishdi. Zirg'omdan bo'lak hech kim qolmagandi. Xalifa qasrga kirib borarkan, "sen ham birga yuraver" degandek uni yana chaqirdi. Ular ikkalasi xalifaning xos hujrasiga kirgandan keyin xalifa Zirg'omdan: "Namoz tugamasdan oldin nega masjididan chiqib ketding?" deb so'radi. Xalifaning bu savolidan Zirg'om xijolat tordi. O'zi oyna orqali tashqaridan kirgan Somonni ko'rganidek, xalifa ham orqadan kirgan-chiqqan kishilarning hammasini ko'rib turishini u o'ylamagandi. To'g'risi, kutilmaganda Somonning masjidda paydo bo'lishi Zirg'omning o'zini ham, qaerda turganini ham unuttirib yuborgandi.

- Men ko'raman, deb hech bir xayolimga keltirmagan bir kishiga ko'zim tushib qoldi, u bilan uchrashishim juda ham zarur bo'lganidan tashqariga chiqdim. Namozni sizning orqangizda ado etishim kerak edi, afv etasiz. Masjidda turib, menga ko'zingiz tushishini o'zimga bo'lgan ulug' iltifotingiz deb bilaman, - deya uzrini aytди.
- Sen sohibim bo'lganining uchun hamma ishlaringga qiziqaman. Ko'rgan-eshitganlaring ichida sen uchun biror ko'ngilsiz voqeа bo'lmasa, shuning o'zi bas.

Hamadonga borish uchun xalifadan ruxsat so'rash payti kelganini bilgan Zirg'om: "Modomiki, xalifamning soyai davlatlarida ekanman, ko'ngilsiz voqeа yuz bermagay. Lekin farg'onalik yaqinlarimdan bir jamoasi Iroqqa kelayotgan ekan, yo'lда bir to'siq ularning tezroq yetib kelishlariga monelik qilibdi. Menden madad so'rab kishi yuborishgan ekan. Ijozat bersangiz, bir necha kunga Hamadonga borib kelsam", - dedi.

Mu'tasim boshini egib eshitdi-da, so'ngra: "Mayli, bor, lekin ko'p jimxit bo'lib ketma! Agar askar yoki aloqachilar kerak bo'lsa, birga olib ket", dedi.

Tashakkur aytib Zirg'om unga bosh egdi. So'ng ruxsat olib Somonni qoldirib ketgan yeri - masjid tomon qaytib bordi. O'ziga Mu'tasim bunchalik e'tibor bergenidan shodlansa ham, Jahon va Afshin haqida eshitgan gaplaridan ko'ngli g'ash edi. Afshin ham Somurroga kelmagan. Zirg'om tezroq Hamadonga borishi kerak. U o'zi va Somon minib boradigan bekat otlarini tayyorlashga buyurib, onasi bilan xayrlashgani ketdi. Onasiga: "Zarur bir ish bilan ketyapman. Bir necha kun ichida qaytib kelaman", - dedi. Onasi oq yo'l tilab qoldi. Shu kuni kechqurun Zirg'om yo'lga chiqdi. Qattiq tashvishlaganidan yuragi hovliqar, ko'ngli o'zidan oldinroq Hamadonga qarab uchib ketayotgandek bo'lardi. Otlar almashtiriladigan har bir bekatga yetganda, u yerdagi odamlardan: "Shu atrofda biror yerda joylashgan qaroqchilar borligini eshitmadilgarmi?" deb surishtirib ko'rardi. Zirg'om yo'lда kam uxbab, tunni kunga ulardi. Shu yo'sinda ular Hamadonga yaqinlashdi. Hamadon yaqinida xilvat bir tog'lik joy bor edi. Xat-xabar eltuvchilar shu tog' yonidan o'tardi. Bekat ham o'sha yerda. Bekatga yetganidan keyin Zirg'om Somondan: "Qaroqchilarga duch kelgan yeringlarni eslay olasanmi?" deb so'radi.

- O'yashimcha, shu tog'ning orqasida bo'lsa kerak.
- Ular toqqa kun botar paytlarida yetib kelishgan va bekatchilar ular uchun yotadigan va hordiq chiqaradigan joyni ham tayyorlab qo'yishgandi. Lekin Zirg'om ertalabgacha chidashga toqat qilolmadı. Har qaerga ketayotgan va har qaerda kelayotgan xat tashuvchi va savdo ishi bilan yuruvchi kishilar shu bekatda tasodifan uchrashib qolishdi. Bekat xo'jayini Zirg'om xalifaning xos kishilarning ekanligini va bu yerga muhim ish bilan kelganini payqab boshqa kishilarni ham bundan voqif qilib qo'ydi. Ular hammasi Zirg'omning xizmatini bajonu dil bijarishga harakat qilardi. Zirg'om bekat xo'jayinidan:

- Bu yerda ko'p vaqtan buyon turasizmi? - deb so'radi.
- Bir necha hafta bo'ldi. Biz bekat odamlari hamma vaqt ko'chib yuramiz. Bizga biror xizmatingiz bo'lsa, bajonu dil ado etishga tayyormiz, - dedi u.
- Borakallo sizlarga! Bu soylarda yoki tog'larda o'nashgan yoxud bu yerlardan o'tib turadigan o'g'rilar yoki yo'lto'sar qaroqchilar borligini hech eshitmaganmisiz?
- Bu xususda juda oz eshitganmiz. Lekin kecha qaroqchilardan bir to'dasi mana shu tog'ning orqasida joylashgan deb eshitib qoldim. Ulardan hukumat hanuz bexabar bo'lsa kerak deb o'ylayman, - dedi.

Bekat sohibidan bu gaplarni eshitgan Zirg'om:

- O'sha qaroqchilarning joyini ko'rsatib beraoladigan bir kishini menga hamroh qiling, - dedi.
- Zirg'omning dovyurakligi va yolg'iz o'zi o'sha qaroqchilar tomonga yo'l olishga oshiqlishidan ajablangan bekat sohibi:
- Siz bu yerda o'tira turing, ularni aniqlab, bilib kelish uchun avval biror kishini yuboraylik, shunga nima deysiz? - dedi.
- Yo'q, yo'l ko'rsatadigan bir kishini biz bilan yuborsangiz kifoya, - dedi-da, yoniga qilichini osib, katta choponini kiydi va boshini katta ro'mol bilan o'rabit oldi. Yoniga Somonni va o'sha bekatdagi soqchilardan bir kishini olib, o'zi ularning oldiga tushib ketaverdi. Yo'l xavfli, o'nqir-cho'nqir, quyosh botib qorong'ilik quyuqlashgan vaqt edi. Zirg'om boshini yerga eggancha gapirmay, u yoq-bu yoqqa qaramay, yo'lida davom etardi. O'sha tog'dagi bir muyulishga borib yetishdi. Yo'l boshlovchi kishi old tomonlarida miltirab yonib turgan bir chirog'ini ko'rsatib: "Ularning turgan joyi ana o'sha, ular bizni sezib qolib ushlab olishlaridan qo'rqaman", - dedi.

Mu'tasim Bilan Arablar

Somon Zirg'omga: "Men ham siz bilan borsam bo'lardi", - degan edi, lekin Zirg'om uni ham qoldirib, yolg'iz o'zi piyoda jo'nadi. U kavushi bilan mayda toshlarni g'ijirlatib bosib borardi. Uning jahli chiqqanidan, tanho bo'lishiga qaramay yo'lidagi xavf-xatarni pisand qilmasdi. Zirg'om o'z jasorati va botirligiga qattiq ishonardi. Qaroqchilar joylashgan yerga chamasi bir o'q borib yetadigan masofa qolganda Zirg'omning ko'zi chiroq oldida u yoq-bu yoqqa o'tayotgan kishilarga tushdi. Itlarning irillashi qulog'iga chalindi. Lekin Zirg'om bularga e'tibor bermasdi. Uning yolg'iz kelayotganini ko'rgan qaroqchilar dushman ekanini xayollariga keltirishmadi ham. Negaki, dushman shunday paytda tanho yurishga yuragi dov bermasligini ular yaxshi bilishar edi. Ulardan biri: "Kim bu" deb ovoz chiqardi.

- Yo'qotgan narsasini qidirib yurgan yo'lovchi... boshliqlaringiz qaerda? - dadil javob berdi Zirg'om.

Bir lahma o'tar-o'tmas qaroqchilar orasida harakat va shivir-shivir boshlanib ketdi. Keyin uchiga olov yoqilgan tayoq ushlagan, yuzi ro'mol bilan o'ralgan bir kishi uzun choponga o'ralib, Zirg'om yoniga keldi. Har qancha tikilib qarasa ham, Zirg'om uni tanimadi. Lekin unga tashlanish yoki o'zini mudofaa qilish uchun hozirlanib, qilichini qo'liga oldi. Olov ko'targan kishi Zirg'omga yaqinlashib keldi-da:

- Xush kelibsiz, Zirg'om, xush kelibsiz, Sohib, - deb uning nomini atab qarshi oldi. O'z nomi tilga olinganini eshitgach, Zirg'omning yuragi hovliqib, u kishi bilan gaplashib qo'yishga ahd qildi. Lekin tanimagani uchun: "Siz kim bo'lasiz?" - deb so'radi. Kishi Zirg'omning yoniga kelib, yuzidagi pardani ko'tardi va qo'lidagi olovni o'z betiga yaqin keltirdi:

- Meni tanimadingizmi?

Zirg'om sinchiklab qarab, uni tanidi:

- Hammodmisan? Bu yerga nimaga kelib qolding?

- Meni bu yerga do'stingning jabr-zulmi keltirdi, - degach, bir hushtak chalgan edi, itlarning vovillashi bosilib, to'planib turgan kishilar tarqaldi. Keyin u Zirg'omning qo'lidan yetaklab yo'l boshladni. Somurroda davlatning ko'zga ko'ringan kishilaridan biri bo'lgan Hammodning bu ishiga tushuna olmagan Zirg'om hayratda edi. Hammod Zirg'omning yaqin oshnasi bo'lib, undan bir necha hafta ilgari uni Somurroda ko'rgandi. U Hammod orqasida xotirjam boraverdi. Ular katta toshlardan yasalgan, devorlari buzilgan eski binoga borishdi. Agar yo'lovchi olov yorug'ida u binoning buzilib yotgan qoldiqlariga sinchiklab qarasa, albatta, unda qadimgi eroniylarning naqsh va gullarini ko'radi. Ammo Zirg'om uni sezmadni. Ular bir hujraga kirishdi, unda na palos, na ro'zg'or asboblari bor. Yerda don solingan qoplar va idish-oyoq bosilgan qutilarni ko'rdi. Bular hozirning o'zida savdogarlardan tortib olib kelinganga o'xshardi. Hammod bir quti ustiga o'tirib, Zirg'omni ikkinchi quti ustiga o'tirishga taklif qildi:

- Bu narsalardan hayron bo'layotganga o'xshaysan?

- Nega hayron bo'lmay, bu yerni men qaroqchilar joyi deb eshitdim. Sen ham shulardan biri ekansan, deb o'ylayapman.

- Men ularning biri emas, boshlig'imani, senga ishonchim komil bo'limganda, birinchidan, bu sirmi bildirmagan va bu yerga seni boshlab kelmagan bo'lardim, ikkinchidan, ishongan do'stingning zulmi nimalarga olib kelganini ko'rib qo'y, deb seni bu yerga olib keldim.

- Do'sting, deb amiraldo"mininni aptyapsanmi? - tushunolmay so'radi Zirg'om.

- Amiraldo"mininni emas, turklar va farg'onali klarning amirini aptyapman. Yana ham aniqrog'ini ayt desang, u akasi Ma'mun kabi kofirlar amiridir.

Bunday kutilmagan gaplarni eshitar ekan, Zirg'om ko'zlab kelgan maqsadini ham bir chekkaga surib qo'ydi:

- Bunday gaplarni aytishingga yo'l qo'ymayman. Senga ixlosim bo'limganda, bu gaplaringni eshitib, chidab turolmagan bo'lardim. Lekin sadoqating esimda, ko'nglingdagi gaplaringni menga ayt. Yuragingda xalifaga bo'lgan g'ashlikni ketkazishga harakat qilaman. Biz sening ko'magingga va qilichingga muhtojmiz. Bizga qarshi kishilar ko'p. Shuning uchun bir yoqadan bosh chiqarishimiz kerak.

Hammod yaxshilab o'nashib o'tirib oldi. Uning chehrasida g'amginlik ko'rinish turardi:

- Xalifani mudofaa qilayotganing uchun men senga hech narsa demayman, chunki u turklar va farg'onali klarning do'sti. Shular tufayli o'z ahliga va qavm-qarindoshlariga yomon nazar bilan qaraydi. Sen esa hozir uning do'sti va eng yaqin kishisidan. Men seni bunga noloyiqsan demoqchi emasman. Bundan ham ko'proq martabaga arziysan. Lekin sen biz arablarning o'rnida bo'lganiningda, bu odamning qilayotgan zulmiga bardosh berolmagan bo'larding, albatta. Bizga o'tkazayotgan zulmi kamlik qilgandek, u dinimizga ham rahna solyapti. Arab zoti borki, hammasidan u in'omini kesib qo'ydi. Ularga maosh ham berdirmay qo'ydi.

Mu'tasimdan oldingi xalifalardan qaysi biri shu ishni qilgan?.. Arablar to'rt xalifa va umaviylar davrida qancha izzat-obro' va an'analarga ega bo'lganini, boshqa millatlar "g'ing" demay ularga bo'ysunganinigina emas, hatto eroniylar qilichi ostida vujudga kelgan Abbosiya xalifaligining avvalgi davrida ham arablar hukmronlikni qo'ldan bermaganliklarini senga eslatib qo'ymoqchiman. Mana, xalifa Ma'munni olaylik. Mu'tasim kabi mu'tazila[4] bo'lib, arablar bilan har qancha urush qilgan bo'lsa ham, lekin ularidan xayr-ehsonini ayagan emasdi. Mu'tasim yo'qchilik yoki qahatchilik sababli ularga beradigan in'omini kesib qo'ydi desak, xato bo'ladi. U turklarni, ushrusanalik va farg'onali klarning qo'lga olish uchun behisob mol-dunyo surʼat qilyapti. Ular uchun Somurro shahrini qudirib berdi. Turli joylardan xotin-qiz cho'rilar olib kelib, ularga hadya qildi, hamyonlarini oltin-kumushga to'ldirdi. Sen ham arab bo'lganiningda, xalifaning bunday ishlariga chidab turolmagan bo'larding.

Hammodning haq gapirayotganini anglagan Zirg'om uning so'zini rad etishga hech qanday dalil topolmadi. Lekin Mu'tasimga bo'lgan xayrixohligi uni himoya qilishni va biror uzbax axtarishni taqozo qilardi:

- Amiraldo"minin haqidagi fikrlaringni inkor etmayman, lekin sen "xalifa yomon niyat bilan bu ishlarni qilayotir", deb hisoblayapsan. Xalifa davlatga dushmanligi aniq bo'lgan ba'zi arablarga shunday qilyapti, xolos. Arablardan ba'zilari unga qarshi urush ochdi va uning farmonidan bosh tortdi. Ammo o'z xizmatini chin ko'ngildan ado etuvchilarini xalifa juda o'ziga yaqin tutadi, ularga in'omlar beradi. Mana, qozi Ahmad ibn Abu Duodni olaylik. U arab. Uning xalifa oldida qanchalik obro'ga ega ekanini mendan ko'ra yaxshiroq bilasan. Yaxshisi, o'zingni ol: arab bo'lishingga qaramay, u seni o'ziga yaqin tutmadimi? Obro'-martabangni ko'tarmadimi?

Hammod bosh chayqab: "Fikrimcha, sen do'sting xalifani mudofaa qilmoqchi bo'lyapsan. Minglab xor-zor bo'lgan, kambag'allik va yo'qsillikka uchragan arablardan ko'z yumib, qozi Ahmadni menga ro'kach qilyapsan. Yana sen menga o'zimni gapirasan.

To'g'ri, men ham mansabdor edim. Koski shunday mansab qurib ketsa! U Makkadagi Ka'badan musulmonlarni chalg'itish uchun Somurroda yasama Ka'ba qurib, meni unga mas'ul xizmatchi qilib qo'ydi. Makkadagi Ka'ba Hijoz arablari uchun daromad manbalaridan biri edi. Ular har yili hajga boradiganlardan manfaat ko'rardi. Xalifa esa ularni shu manfaatdan mahrum etdi.

Musulmonlar Hijoz arablari bilan aloqa qilishmasin, deb Somurroda o'sha Ka'bani qurdirdi.

Zirg'om uning so'zini bo'ldi:

- Lekin bu ishni Mu'tasim boshlagani yo'q. Bundan oldingi xalifa va amirlar ham shunga harakat qilishgan. Hajjoj va Mansurlar bunga uringan bo'lalar ham, uddasidan chiqolmay muvaffaqiyatsizlikka uchrashgan.
- Mu'tasim ham maqsadiga erisha olmaydi, chunki baytuloh Makkadadir, uni Somurroda barpo etish hech kimning qo'lidan kelmaydi.

* * *

Zirg'om bunday qarasa, suhbat uning bu yerga kelgandagi maqsadidan butunlay tashqariga chiqib ketyapti. U gapni qisqa qilmoqchi bo'ldi:

- Har narsa deganingda ham, bu gaplar sening qaroqchilik qilishingni oqlay olmasa kerak.

- Qaroqchilik dema, biz o'g'rilik degan narsani mutlaqo qilganimiz yo'q.

Zirg'om o'zini mudofaa qilayotgan Hammadning gapidan kulimsrab bosh silkib qo'ydi.

- Kulma, do'stim. Biz o'g'rilik qilayotganimiz yo'q. O'g'ri emasmiz ham. Biz o'z huquqimiz uchun kurashyapmiz.

Uning gapidan ajablangan Zirg'om "nima deyapsan" degandek bo'ynini cho'zib qaradi. Hammad davom etdi:

- Mana bu yerda yotgan mollar kambag'al, beva-bechoralarning haqi, xudo qur'onda "buni o'shalarga berilsin" degan. Bular yer egalarining daromadidan olingen ushr[5] yoki o'ljaga olingen mollarning beshdan biridir. Bularni islomning avvalidagi xalifalar boy va savdogarlardan olib, kambag'allarga sadaqa yoki ehson qilib berishardi. Mu'tasim esa uni berdirmay qo'ydi. Musulmonlar arab bo'lgani uchun ochdan o'lishi kerakmi? Xalifa kambag'allarni shu ko'yga solmoqchi bo'lgani uchun biz ularning haqini zo'rlik bilan olib beramiz.

Uning keltirayotgan vaji o'rinli bo'lgani uchun Zirg'om qoyil qoldi, lekin bahsni to'xtatmoqchi bo'ldi:

- Xo'p, mayli, yaqinginada sen Somurroda turganiningni bilaman. Xalifa maoshingni to'xtatib qo'ygani yo'q-ku. Unga qarshi chiqishning boisi nima?

Hammad xo'rsinib o'rnidan turdi. Uning yuzidagi jahl o'rnini qayg'u egalladi:

- Meni unga qarshi qo'yayotgan, gina-kuduratimni qo'zg'ayotgan bir narsa bor. Shu narsa tanamdagи jonimni hiqildog'imga keltirdi, yuragimga sanchilib, to'g'ri yo'lidan adashtirdi. Shuning uchun jonim boricha bu zolimdan o'ch olmay qo'ymayman.

Uning peshanasidan g'ar-g'ar ter quyilib ketdi. Zirg'om nima gapligini aniqlashga juda ham qiziqdidi. Uning gaplaridan sevgilisidan judolik azobidan shikoyatni sezdi-da:

- Birodar, o'zi nima gap? Ochig'ini aytib qo'ya qol. Men bu yerga o'zimga tegishli juda muhim bir ish bilan kelgandim. Sen esa o'z dardingni aytib, qayg'umga qayg'u qo'shding, - dedi.

- Sening ishing har qancha muhim bo'lganda ham, men chekkan qayg'u oldida pashshacha ham emas. Men bag'dodliklardan birining qizini sevib qolganman. U ham meni sevadi. Uni endi o'z nikohimga olishga chog'langan paytimda Mu'tasimning hamnishiñlaridan Horis as-Samarqandiy degan kishi lop etib chiqdi-da, uni o'ziga so'ratis, zo'rlik bilan ilib ketdi. Shundan keyin sen aytgan o'sha qozi Ahmad orqali xalifaga arz-dodimni yetkazdim. U menga: "Sen o'zingga boshqa qiz axtar, bu qiz senga tegmaydi", degan javobni qildi. Lekin u qizni men qattiq sevishimni bilardi, - dedi-da, Hammad "Ey Yoquta" deb bir xo'rsinib qo'ydi.

- Qizning oti Yoqutamidi?

- Ha, nomi Yoquta. Qani, ayt-chi, men xalifaning hamma yomonliklariga chidab kelganman, endi bunisiga ham chidaymi? Xudo xaqi, men xalifadan ham, hukumatidan ham noroziman. Men qaroqchilik qilish uchun emas, balki shu hukumatdan o'ch olish uchun bu ko'yga tushdim. Bu nohaqlikka qarshi kishilar juda ko'p.

Zirg'om Yoquta voqeasiga qiziqdidi, chunki o'zining boshiga ham shunday falokat tushgan edi. Bir falokatga uchragan yoki uchrashdan qo'rqib yurgan kishi shunday falokatga uchragan boshqa kishilarga hamdard bo'la oladi. Uylanmagan odam farzandidan ayrilgan otalarning dardiga uy-joy qilgan, bola-chaqa ko'rgan kishichalik qayg'urmaydi. Oshiqdagi hissiyotni faqat ishq-muhabbatni boshidan kechirganlargina tushunadi. Zirg'om Hammadga tasalli bera boshladi.

- Do'stim, ko'nglingni xotirjam qil. Bu ishingda, ehtimol, men senga yordam berarman. Endi mendan bir shingil gap eshit: men shu qorong'i kechada bu yerga sendan bir narsani so'rashga kelganman. Gapimga quloq sol! Avvalo bilib qo'yki, boshingga tushgan bu dardingga malham bo'luvchi avvalo men bo'laman, chunki ikkimizning dardimiz bir xil ekan.

- Gapir, botir, qulog'im senda.

- Umr yo'ldoshi bo'lamiz deb, va'dalashib qo'yan bir qizim bor. U Farg'onada edi, men esa Somurroda. Qiz akasi va oqsochi bilan Somurroga safar qilgan. Ular Hamadonga yetganda, qaroqchilar hujum qilib, qiz bilan oqsochni olib ketishgan. Akasi bu xabarni menga yetkazgandan keyin darhol uni izlashga tushdim. Aloqachi meni shu tomonga yo'llagani uchun, bu yerga kelib qoldim. Xo'sh, shu xususda sen qanday fikr berasan?

- Biz xotin-qizlarni olib qochadigan o'g'rillardan emasmiz. Qiladigan ishlarimizni senga aytib berdim. Bu atrofda o'g'rilar ham, yo'lto'sarlar ham yo'qligiga imonim komil.

- Axir, qizning akasi shu hodisa tepasida o'zi bo'lgan. Qochib borib, menga shu xabarni yetkazdi-ku.

Hammad bu gapga ishonmagandek bosh silkidi:

- Bu yerda biz bir necha haftadan beri yotibmiz. Bunday voqeani mutlaqo eshitganimiz yo'q. Ehtimol, xabarchi noto'g'ri aytgandir. Somonni tanigandan buyon uning niyati buzuqligini bilib yurgan Zirg'omning ko'zi ochildi:

- Xabar yetkazgan kishi mana shu qirning oldida turibdi. Uni hozir chaqirtirib kelaman. Voqeani o'z og'zidan eshitasan.

Hammad "Zirg'om aytayotgan kishisini bu yerga chaqirib kel!" deb odamlaridan biriga buyurdi. Ammo u odam "hech kimni topmadim" deb qaytib keldi. Shundan keyin Zirg'om o'zi borib axtardi. Somonni turgan yerida topmagach, boyagi yo'l ko'rsatgan kishidan surishtirdi. U: "Qaerga g'oyib bo'lganini bilmay qoldim", dedi. Zirg'om uni har qancha qidirtirsa ham, darak topmadi. Demak, bunda qandaydir bir sir bor. "U meni aldadamikin. Hatto Afshin to'g'risidagi gapi ham yolg'onmikin?" degan xayolga bordi. Jahon ustidagi gaplariga ishonchi yo'qoldi. "Endi Somurroga qaytishdan bo'lak chora yo'q" - dedi o'zicha Zirg'om. Keyin o'rtog'i Hammad yoniga borib: "Kel, ikkimiz birga Somurroga qaytaylik", dedi. U qabul qilmadi: "Qaytib borishimdan hech manfaat yo'q. Do'sting mol-mulkimgagina ziyon yetkazgan bo'lsa mayli edi, hech narsa demasdim. Lekin u ko'kragimga nayza sanchdi. Buni sira kechira olmayman, o'zing bilasan, mendan xafa bo'lma!"

Zirg'om unga yetgan musibatni o'yldi va sevgilisini tortib olgani uchun albatta o'ch olishi kerakligini ko'z o'ngiga keltirdi:

- To'g'ri aytasan, bu fikringga men ham qo'shilaman. Agar xalifa mening sevgilimga shunday ko'z olaytirishini bilsam, albatta, senikidan ham qattiqroq o'ch olishga yo'l izlagan bo'lardim. Mayli, o'zing bilasan, har holda meni unutma. Men ham sening ishingda jonimni ayamayman. - U bir oz jim turib, qo'shimcha qildi:
- Mabodo senga xat yozishim, kishi yuborishim yoki o'zimning kelishim lozim bo'lib qolsa, seni shu yerda uchrata olamanmi?
- Bu kechadan keyin qaerda bo'lismi o'zim ham bilmayman. Bu yerda omonatgina turibman. Ammo o'zing menga darkor bo'lib qolsang, qaerdan izlashim mumkin?
- Somurrodan, - dedi Zirg'om.

* * *

Zirg'om o'rtoq'i bilan xayrlashdi. Uning fikr-xayoli eshitgan bu gaplarida edi. Jahonning qiyofasi uning xayolidan nari ketmasdi. Chunki xuddi o'sha yerda, shunday qorong'i kechada uni o'g'rilar olib ketishgan deb eshitgandi. Xayoliga Jahonni ushlab olishayotgandek, u bechora "Zirg'om, qaerdasan, menga yordam ber", deb qichqirayotgandek tuyuldi. Uning badani zirqirab ketdi, tishlarini g'irchillatdi. Zirg'om shunday xayollarga cho'mib, o'nqir-cho'nqir yo'llar orqali yo'l boshlovchi ketidan aloqachilar turadigan joyga kelib yetdi. So'ng otiga minib, Somurro tomon yo'l oldi.

Qaytish yo'li kelgan yo'liga qaraganda yaqinroq bo'lsa ham, unga ancha olis tuyulardi. Somurroga yetib borish juda qiyindek ko'rindi. Chunki u tezroq yetib borib, o'tkir va serfarosat Vardonga uchrashib, bu ishda uning maslahatini olmoqchi edi. Zirg'om Somurroga kun botish paytlarida yetib bordi. Quyosh nuri zaiflashib, shu'lesi u yer-bu yerlardagina qolgandi. U dumaloqligi hamda sariq shu'lesi bilan qon ichida suzib yurgan girdob olovni eslatardi. Zirg'om Somurrodagi binolarga, xususan eng buyuk va ko'rkan bo'lgan xalifaning qasriga, katta masjidga nazar tashladi. Masjid minorasi balandligidan bulutlarni yorib ketgandek. Dajla daryosi shaharning shimolidan janubiga qarab oqyapti. Uning qirg'oqlarida mevasi osilib yotgan xurmo daraxtlari boshiga salsa o'rav, miltig'ini ko'tarib turgan askarlardek zikh turardi. Tabiatning bu go'zal manzarasi Zirg'omni o'ziga maftun etdi. U rohatlanib, bir oz turib qoldi. Ammo uning yonida xachir minib kelayotgan xat tashuvchini bu manzara uncha qiziqtirmasdi. Chunki u buni ko'raverib, qiziqmaydigan bo'lib qolgandi. Kishining kayfiyatiga qarab tabiat manzaralaridan ta'sirlanishi ham turlicha bo'ladi. Boshqalarga qaraganda oshiqlar tabiatning holatiga ko'proq moslashadilar.

Zirg'omning ko'ngli bu yerda tanholikni istab qoldi. U hamrohiga qarab: "Siz mendan oldinroq Somurroga kirib boravering", - deb ishora qildi. U yolg'iz o'zi qolib, quyoshning botishini kuzatib turardi. Quyosh uning ko'ziga olisdan, xurmo daraxtlari orqasidan qizg'ish jilvalanib ko'rindari. Quyoshning bir chekkasi ufqqa tutashdi. U cho'zilib, filning xartumi shaklida ufq orqasiga kira boshladi. Qolgan qismi ham, sekin-asta g'oyib bo'ldi. Quyosh o'rnini qizg'ishroq bo'lib, so'ng qora tusga kirgan ufq egalladi, hamma yoqni qorong'ilik bosdi. Zirg'omning yuragi siqilib, yo'lga tushish kerakligini esladi. Otiga qamchi urib, asta-sekin yura boshladi va shaharning quyi tomonidagi daraxtzor yerga borib yetdi. Daraxtsiz joydan unga Dajla daryosi ko'rindi. Uning qirg'og'i bo'ylab qasrga bormoqchi bo'ldi.

Havo toza. Hamma yoqni sukunat qoplagan. Dajlaga yaqinlashganda Zirg'omni yana xayol olib qochdi. Ot daryo bo'ylab bormoqda. Zirg'om jilovni qo'yib yuborgan. Mayingina shamol esadi, hamma yoq jimjilikda, faqat daraxt barglarining shitirlashi va ot tuyog'ining taqir-tuqur ovozidan bo'lak hech narsa eshitilmasdi. Chuqur xayolga botib ketayotgan Zirg'omning qulog'iga hech qanday ovoz kirmasdi. To'satdan orqa tomondan: "Xudodan qo'rqinglar, meni qo'yib yuboring, odamlar, menga yordam beringlar", deb dodlayotgan bir ayolning ovozi eshitildi. Zirg'om yuragiga o'q qadalgandek cho'chib ketdi. Ovoz bo'g'ilib chiqqa boshladi. Bu xuddi Jahonning ovoziga o'xshagini uchun Zirg'omning a'zoyi badani jimirlashib ketdi. "O'g'rilar bechora Jahonni ham shunday qilishgandir, dodlaganda hech kim yordamga kelmagandir, men bu ayolga yordam qilsam, ajab emas Jahonga ham yordam qo'lini cho'zguvchi biror mardni xudo tuyassar qilsa", dedi-da, otdan tushdi va qilichini yalang'ochlab: "Mana men yordamingga tayyorman! Hoy badbaxtlar, unga tegmanglar!" deb baqirgancha ovoz kelayotgan tomonga yugurdi.

Kecha tim qorong'i edi. Zirg'om hech kimni uchratmagach, bu "Xayolmi yoki jinlar Jahonga o'xshab dodlab, meni gangitayotibdimi?" deb qo'rmdi. Lekin hech qanday fursat o'tmay, bu ovoz yaqinlashdi, daryo qirg'og'idan "Xudo haqi menga yordam bering, o'limdan qutqaring" deb ikki qo'lini ochgancha bir ayol chopib kelardi. Uning orqasidan ikki kishi quvib kelyapti. Ulardan biri qilichini yalang'ochlab: "Qaerga qochyapsan, hozir o'diraman", deb do'q urardi.

Zirg'om u kishiga qarab: "To'xta, unga tegma, bo'lmasa bo'yningni sug'urib olaman", - deb do'q urdi.

U kishi quloq solmay, xotinni quvlab yetib olay deganda, ayol Zirg'omning oldiga kelib, oyog'iga o'zini tashladi. Quvib kelayotgan kishi qo'lidagi qilichi bilan ayolga hujum qilmoqchi bo'layotganda, Zirg'omning qilichi bir zarb bilanoq uning tanasidan boshini judo qildi. Keyin sheringiga yopishib, uni ham o'dirmoqchi bo'lganda, uning qurolsizligini payqab to'xtadi va: "Kim bo'lasiz?" deb ovoz chiqardi.

- Bizni so'rashga nima haqqing bor? Sening ishing emas, qizni qo'yib yubor-da, yo'lingga jo'nay ber! Kimligimizni senga keyin ko'rsatib qo'yamiz.

- Joyingdan qimirlama, nomard, bo'lmasa, seni ham boshingni uzaman, hozir o'zingni menga tanit va bu qiz voqeasini aytib ber!
- Bu qiz xojasidan qochgan. Bizni uni tutib kelish uchun yuborgan edi. Axtarib shu yerdan topdik. Xojasiga borishdan bosh tortgandan keyin, sheringim po'pisa qildi, sen oraga tushmaganingda ushlab olib ketgan bo'lardik. U sheringimning o'limiga sababchi bo'ldi. Sen buning uchun javob berasan, albatta.

Charchab, holdan ketgan qiz ko'kat ustida yonboshlab olgan edi, uning gapini eshitib irg'ib turdi-da: "Yolg'on, xoinlar, yolg'on aftyapsizlar", - dedi.

Qizning ovozini eshitib, Zirg'om uni yana Jahonga o'xshatdi. Yuragi duk-duk ura boshladi. "Yo'q, bu Jahon emas, Jahon bo'lganda meni ovozimdan tanimasimdi", - dedi-da, u kishiga qarab: "To'g'risini ayt, meni qo'rqtmay qo'ya qol, bo'lmasa, seni ham shering bilan bir go'r qilaman", - dedi.

- Qizning gapiga ishonma, bu xalifaning xonardonidan qochgan. Uni ajratib olishga kimning yuragi dov beradi?

- Men ajratib olaman, jo'na, yo'lingdan qolma.

- Ha, ha, sen kimsan o'zing? Uni men ajratib olaman, deyishga qanday tiling bordi? - Zirg'om teskari qarab, qizni qo'lidan ushladi, yigitga: "Bor, jo'na, o'sha xalifaga yoki bu qizga xo'jayinlik qiladigan kishiga borib, qizni Sohib ajratib oldi deb ayt", - dedi. Sohib nomini eshitgandan keyin u kishi o'zini yo'qotgudek dovdirab orqasiga tislandi:

- Janob, kechirasiz, tanimasni siylamas, xato qilibman. Siz ekaningizni payqamabman, - dedi-da, orqasiga qarab jo'nab qoldi.

Zirg'om esa qizning qo'lini qo'yib yuborib, o'z joyida qimirlamay turgan otini jilovidan yetaklab keldi va qizga qarab: "Yur, qizcha, qo'rhma, xataridan omon qolding, endi nima gap o'tganini menga tushuntirib ber!" - dedi.

Qiz bo'g'iq ovoz bilan:

- Xudoga shukur, bu balodan meni qutqazish uchun sizni yetkazdi. Siz bo'limganingizda, zum bo'lib ketgan bo'lardim.
- Qizning ovozidan zavqlangan Zirg'om uning yuziga qaramoqchi bo'ldi. Uning xayolidan Jahon o'tib turgani uchun: "Shu qiz Jahonning o'zi emasmikan?" degan fikrga keldi. Lekin tunning tim qorong'iligi qizning yuzini ko'rishga imkon bermasdi. Zirg'om unga: "Rostini ayt, sen kim bo'lasan?" dedi.
- Men birovning cho'risi edim, xojam xudo uchun meni ozod qildi, tanish bir yigit o'ziga meni so'ratdi, oramizda sevgi ham paydo bo'lidi. Umr yo'lodzi bo'lishga u bilan ahd-paymon qilishdik. Shundan keyin xalifaning mulozimlaridan Horis as-Samarqandiy degan kishi meni ko'rib qolib, o'ziga xotinlikka so'ratuvdi, men qabul qilmadim.

Horisning nomini eshitib, Zirg'om Hammoddan eshitganlarini esladi va "u yigitingning ismi nima edi?" deb so'radi.

- Ismi Hammod.

- Unday bo'lsa, sening isming Yoqtami?

Qiz: "Bu notanish odam mening ismimni qaerdan bildi?" - deb hayron bo'lidi va tili g'uldillab:

- Mening ismimni siz qaerdan bilingiz? Hammodni tanysizmi, u hozir qaerda? - dedi.
- Uni taniyman. Lekin hozircha unga erishishga yo'l yo'q, sen gapiningi tugatganidan keyin uning voqeasini aytib beraman.
- Qiz qattiq sevinganidan o'zini yo'qotayozdi.
- Men Horisning iltimosini rad qilganidandan keyin u qozi Ahmadni xalifaga vosita qildi. Xalifa meni ko'rib, uzoq tikildi-da, qozining qulog'iga nimanidir shivirladi va menga: "Men bir o'ylab ko'rgunimcha sen rasmiy xotin bo'lmay, Horisning shunday qo'lida tura turasan", deb amr qildi. Horis meni uyga eltib borib qamab qo'ydi-da, nikohiga o'tishim kerakligini goh aldab, goh do'q qilib uqtira boshladi. Bir necha haftadan keyin menga tegishib, "Jazmaning Somurrodan boshqa yerga ketib qoldi", - dedi. Men uning gapiga ishommadim va Hammodynning xalifa qasri yaqinidagi joyiga qochib borishga otlandim. Horisning yordamchilaridan bo'lgan mana bu ikki kishi meni ushlab qaytarmoqchi bo'lidi. Qaytishga rozi bo'limganidandan keyin, "o'ldirimiz", deb menga do'q qilishuvdi qo'rqiб dodladim. Ana shu vaqtida ovozimni eshitib, meni qutqazishga siz kelib qoldingiz, xudo xayringizni bersin!

Qiz gapini tugatgach, do'sti uchun uni qutqazganidan Zirg'om behad shodlandi. Lekin Hammod o'sha uchrashgan kechadan keyin u yerdan chiqib ketishini va qaerga borib joylashuvi noma'lumligini eslab, suket qilib turdi. Ko'z o'ngidan Jahonning siyosasi o'tib turardi va o'ziga-o'zi: "Men bu qizni qutqazganidem, Jahonni ham qutqazadigan kishi topilganmikin?" - dedi.

Shodligidan yuragi yorilayozgan Yoquta Zirg'omdan sevgilisi to'g'risida ko'rgan-bilganlarini eshitishga oshiqib, uning yonida piyoda borardi. Hadesa, Zirg'om gapiravermaganidan keyin u: "Hammod haqida gapirib beraman degan edingiz, rostdan u Somurrodan chiqib ketganmi?" - deb so'radi.

- Ha, Horis aytgandek, u Somurrodan ketib qolgan...

- Qaerga ketgan?

- Bilmayman, u bilan men bir necha kun muqaddam Bag'doddan tashqarida uchrashdim. Qaergadir borishini aytdi. Sen tufayli u Horisdan ham, xalifadan ham achchig'langanini senga gapirib berdi. Senga bo'lgan muhabbat mustahkamligiga ko'nglingni to'q qilaver.

Yoquta yuzlarini yumdalab dodlay boshladi:

- Voydod, men endi qaerga boraman, qaerda tunayman, uni qaerlardan izlayman?
- Qayg'urma, xudo o'sha kunlarga yetkazguncha mening uyimda, onam bilan birga turasan. Zarur bir gap chiqib qolsa, u menga xat yozishga va'da bergen.
- Xudo xayringizni bersin, lekin...

- Singlim, tashvishlanma, onam bilan tinch, totuvlikda yashaysan. Hech kim senga ko'z olaytira olmaydi. Uyda u kishi tanho o'zlar turadilar, seni qiz qilib olib, sen bilan ovunadilar.

Shu paytda Yoquta saroyga yaqinlashib qolganini sezib, to'xtadi-da: "Xalifaning qasri yoniga kelib qolganga o'xshayman", - dedi. Zirg'om: "Men shu saroyning ichkarisida bir qasrsa yashayman," - dedi.

Yoquta ketiga tislandi:

- Xalifa bilib qolsa, menga yomon bo'lmaydimi?
- Xotirjam bo'laver. Sen mening uyimda tinch bo'lasan.

Shu payt ular saroyga yetib kelishgandi. Zirg'omni ko'rgan soqchilar unga yo'l bo'shatishdi, ulardan bittasi kelib otini otxonaga yetaklab ketdi. Zirg'om Yoquta bilan uyiga yetib keldi. Uni ko'rgan xizmatchilardan bir nechta onasiga xabar qilish uchun ichkariga yugurib kirib shamlarni yondirdi. Ular hovlining o'rtasiga borgach, shamlar yog'dusida Zirg'om qizga sinchiklab tikildi. U Jahonga juda o'xshab ketgani uchun Zirg'om sarosimaga tushib, yuragi orziqib ketdi va ichida "Ajabo, bu qanday tasodif?" - dedi qizga zavqi kelib. Shunchalik iztirobdan turishiga qaramay, uning yuzidagi salobati, husn-jamoli, xususan, yuz-ko'zi va ovozi bilan Jahonga juda-juda o'xshaganligi Zirg'omni hayron qilmay qo'ymadni. Uni qutqazish yo'lida tortgan azob-uqubati qizga mehr qo'yishini taqozo qilardi. Kishilar manfaati uchun azob chekkan odam tabiatan ularni sevadi. Shuning uchun ham kishi o'z farzandlari ichidan o'ziga ko'proq qaram-hoja mand bo'lganiga ko'proq mehr qo'yadi. Ota o'z farzandi yo'lida qanchalik mashaqqat tortsa, unga mehri shunchalik oshadi. Zirg'omning ko'ngli Jahon bilan band bo'limganda, u albatta Yoqutaga mayl qilgan bo'lardi. Oftob esa o'g'lini kutib olishga hozirlandi. Uning oyoq ovozini eshitish bilan oldiga yugurib borib, quchoqlab o'pdii. U hovlida yana boshqa bir yot kishi harakatini sezib: "O'g'lim, yoningdag'i hamrohing kim?" deb so'radi.

- Onajon, bu sizga hamroh bo'ladigan qiz, - dedi.

U o'g'lim Jahonni olib keldi, deb o'yladi-da, Yoqutaning oyoq ovozi kelayotgan tomonga qarab: "Jahon kelib qoldimi?" deb so'radi.

Onasini Jahonni tilga olishi Zirg'omning yuragini larzaga keltirdi, eski yarasini yangiladi. U bir xo'rsinib: "Yo'q, oyi, Jahon emas, do'stlarimdan birining qaylig'i. Men uchun hurmatli bir ayol", - dedi.

Yoquta Oftobning yoniga kelib, uning qo'lini o'pmoqchi bo'lgandi, u kamtarlik qilib qo'lini o'pgani qo'ymadni va "Xush kelibsiz, jonom, ismingiz nima?" - deb so'radi.

- Nomim Yoquta, onajon.

Yoqutaning tovushini eshitgan Oftob g'alati bo'lib qoldi, ajablangandek labini cho'chchaytirib, ikki oq ko'zini pir-pir o'ynatdi:

- Ajabo, bu ovozni tanigandek bo'yapman.

- Oyi, uni siz Jahonning ovoziga o'xshatyapsiz shekilli, haqiqatan juda o'xsharkan. Men ham uni dastavval eshitib, shunday gumon

qilgandim.

Oftob unga javob bermay, sukul etdi. Keyin Yoqutani qo'lidan ushlab, yoniga o'tqazdi va bag'rige bosib quchoqlab: "Borakallo, qizim, zab kelibsang-da" - dedi-da, Zirg'omga qarab: "Bu Yoqutaga sen qanday duch kelib qolding? Qaerda ekan?" - dedi.

- Sizga aytgan ishimdan qaytib, shaharning quyi tomonidan kelayotuvdim, ikki kishi bu qizni quvlab kelayotgan ekan. Uning qo'rqiб dodlaganini eshitib, oldiga bordim-da, haligilar qo'lidan qutqazdim. Keyin to'g'ri uyga boshlab kelaverdim. Bir odam bu qizni majburan o'ziga xotinlikka olmoqchi bo'lganida u qochibdi, ular buni ushlab o'sha odamga eltil berishmoqchi ekan.

- U odam kim ekan?

- Xalifaning mulozimlаридан - Horis as-Samarqandiy degan kishi.

- Qiz nega uni istamadiykin, axir u badavlat, obro'li odam-ku.

- Chunki bu qiz Hammod degan bir arab yigitini yaxshi ko'rар ekan, oyi, siz uni tanimaysizmi?

- Sen bilan bir kelganda ovozini eshitganga o'xshayman. U hozir qaerda?

- Shaharda emas, ketgan, u qaytib kelgunicha Yoquta bu yerda istiqomat etib turadi. Maylimi, sizga bemalolmi?

- Menga yoqqanda qanday, sen ish bilan ketganiningda menga hamdam, ovunchoq bo'ladi, hozirning o'zidayoq buni men ko'p yildan buyon tanib yurgan kishidek his qilyapman. Hay, hay, umring uzoq bo'lqur qizim-ey.

Qizning kiyim-kechaklarini yangilab, yuvib-tarab kelishni Oftob Mas'udaga buyurdi. Keyin ovqat keltirildi. Zirg'om onasidan: "Vardon kelmadimi?" deb so'radi.

- Bir necha kun bo'ldi, kelib seni so'radi. Qaerga ketganiningni unga ayta olmadim.

- Afshin xususida u sizga hech narsa demadimi?

- Uning bu yerga kelib, Somurrodan tashqarida askari bilan to'xtaganini, bir necha kundan keyin biz tomonga o'tishini aytdi.

Vardon uning oldiga ketgan bo'lsa kerak yoki bugun-erta borar.

Ona-bolaning suhbati uzoqqa cho'zilmadi. Ular dam olish uchun o'rinalardan qo'zg'alishdi. Erta bilan turgandan keyin Zirg'omni yana xayol olib qochdi. U tezroq Vardonni topib, Jahon to'g'risida Afshinning hamrohlaridan eshitganlarini bilishga oshiqardi.

Shu kuni kechqurun xalifa Zirg'omni yo'qlab kishi yubordi. Zirg'om qora kiyimlari va qalpog'ini kiyib xalifaning umumiyl qabuliga bordi. Ijozat olib, xalifa oldiga kirdi va ta'zim qilib, tik turdi. Xalifaning yonida qozi Ahmad o'tirardi. Uni ham o'tirishga taklif qilib, ochiq chehra bilan: "Safardan qachon qaytding?" - deb so'radi.

- Kecha kechqurun keldim, janob xalifam. Bugun o'zim huzuringizga kelish uchun tayyorlanayotgan vaqtimda, xalifa sizni chaqiryaptilar, deb uymiga kishi borib qoldi.

- Safardan qaytayotganingda yo'lda kimni uchratding?

Horis kelib albatta Yoquta to'g'risida xalifaga shikoyat qilganini bilgan Zirg'om: "Ikki kishi qiyayotgan bir qiz bolani uchratdim", - dedi.

- "Tarki odat, amri mahol" degandek, u qizni qutqazgandirsan? Borakallo! - dedi xalifa.

"Tarki odat, amri mahol", deb xalifa ilgari o'zini sherning changalidan qutqazganiga imo qilayotganini sezib, Zirg'om xijolat tortsa ham, o'zini bilmasga solib:

- Shu ahvolni ko'rib turib, ko'z yumib ketishga insofim yo'l bermadi. Qizning joniga ora kirdim. Qutqarib olib keldim. Keyin bilsam, u qiz davlat arboblaridan biriga tegishli ekan. Janobingizning homiyliklarini eslab, "kel-e, boshimga tushganini ko'rарman", dedim. Bu nojo'ya xatti-harakatim uchun afv etgaysiz, - dedi.

Mu'tasim kuldil:

- Halol ovni ushlabsan. Uni qo'lda saqlashga hammadan ko'ra o'zing loyiqsan. Qizni yaxshilab ko'radingmi, qalay ekan?

- Chakki emas, mavlono!

- Mana endi iqror bo'lib, qo'lga tushding.

Xalifa nima demoqchi bo'lganini Zirg'om tushunmay turgandi, qozi gapga aralashdi:

- Xalifa sen uchun bir qizga kishi qo'yanlari esingda bo'lsa kerak.

- Ha, esimda bor, - dedi Zirg'om.

- O'sha qiz xuddi shuning o'zi. - Bu tasodifdan taajjublangan Zirg'om nima deyishini bilmay gangib qoldi. Qozi so'zini davom ettirdi:

- Bir necha hafta burun Horis bu qizni o'z nikohiga olishni talab qilib olib kelganda, xalifaning nazarlari tushgan edi. Boshqa bir kishi ham uni o'ziga mo'ljal qilib yurar ekan. Shunda xalifa menga qarab: "Bu qiz Sohibga munosib", dedilar-da, Horisga: "Men talab qilganimcha buni sen saqlab turasan", deb buyurdilar. Horis bugun ertalab kelib: "Zirg'om Yoqutani menden tortib olib ketdi", deb ustingdan shikoyat qildi. Xalifa: "Bu qiz Sohibniki, sen ovora bo'lma", deganlaridan keyin lom-mim deyolmay chiqib ketdi. Shuning uchun senga janob xalifa: "Halol ovni ushlabsan, iqror bo'lib qo'lga tushding", deyaptilar.

Zirg'omning "xalifaning iltifotlari uchun rahmat" deb duo qilishdan bo'lak iloji qolmadi:

- Amiraldo'minin o'z qullari xususida nimaiki qilsalar, ixtiyorlari.

Shundan keyin Mu'tasim: "Somurroning eng go'zal qiziga ega bo'lding, qo'sha qaringlar!" dedi-da, qo'lini qo'liga urib hojibni chaqirdi va qulog'iga nimanidir shivirlagandi, u "xo'b" deb chiqib ketdi. Keyin ustiga quyoshdek yaltirab turgan gavhar bo'yin tumor qo'yilgan bir likopcha ko'targan xodim kirib keldi. Uni Sohibga taqdirm et, deb xalifa imlagach, unga uzatdi. Uning yaltirashidan xayoli qochgan Zirg'om tashakkur aytmoq uchun o'rnidan turgan edi, Mu'tasim: "Bu gavhar bo'yin tumorni Yoquta bo'yninga taqib yasanadi", - dedi.

Zirg'om hurmat va minnatdorchilik qilib, bosh egib, unga ta'zim qildi va "amiraldo'mininning iltifot va marhamatlari benihoya bo'ldi", - dedi.

- Senga bundan ham ko'proq in'omlar qilsa arziydi.

Zirg'om bo'yin tumorini olib, ro'molchasiga o'radi-da, xalifani yana duo qildi, keyin ruxsat olib, uning yonidan chiqdi. Yo'l-yo'lakay xayol surib, uyiga bordi. Ammo Yoqutani nikohiga olish masalasi uni jilla ham tashvishlantirmadi, chunki uni nikohiga o'lgan-olmagani xalifaga bildirmay, egasi kelguncha uyida saqlab turib, u kelishi bilan oshiq-ma'shuqni bir-biriga topshirmoqni o'yлади.

Zirg'om uyga kelgach, onasi: "Xalifa seni nimaga chaqirgan ekan?" deb so'radi. "Yoquta to'g'risida", - dedi Zirg'om.

Bu gapni eshitgan Yoqutaning badani jimirlashib ketdi, chunki u Horisning chaqimchilik qilishidan qo'rqiб yurgandi. Lekin Zirg'om onasiga kulib gapirganini ko'rib, u ancha xotirjam bo'ldi, nazokat bilan unga bir qarab qo'ydi. "Ochiqroq aytib ber, o'zi nima gap?" deb ona yana so'radi.

- Horis ustimizdan xalifaga shikoyat qilibdi. Xalifa uning shikoyatini rad etdi va Yoqutaga yaxshiroq qarab turishni menga topshirdi.

Shundan keyin qizning ko'ngli yorishib, Zirg'omga tahsinlar aytdi. Uning xalifa oldidagi obro'yini va unga so'zi o'tishini ko'rib, mehri yana ziyoda bo'ldi. Yoqutaning ko'ngli Hammorra bo'lsa ham, Zirg'omning o'zi kutgandan ham ortiq ekaniga iqror bo'ldi. Zirg'omdan xalifaning gapini eshitgandan keyin Yoquta uyalib, yuzlari qizarib ketdi. Dono va o'tkir irodali bu qiz uyalinqirab, qizarib-bo'zari: "Janob Sohibning marhamatlari uchun minnatdorman. Meni ham oriyatdan, ham o'limdan qutqazdilar. O'z himoyalari olib, martabamni ham ko'tardilar", - dedi.

Zirg'om cho'ntagiga qo'lini uzatib, bo'yin tumorni oldi-da: "Bu amiralmo"mininning senga tuhfalar", - dedi.

Yoquta nima deyishini bilmay uni olib, Oftobga uzatdi. Oftob uni qo'liga olib, ushlab ko'rди-da: "Bu senga munosibga o'xshaydi", - deb qizning bo'yniga taqib qo'ydi.

Ana shularning hammasi Zirg'omning g'am-tashvishini zarracha kamaytira olmadi. Kecha kechqurun va bugun ertalab yuz bergan hodisalar Zirg'omga o'z sevgilisini eslatardi. Xususan, Yoquta bo'yniga taqqan gavhar bo'yin tumorni aytmaysizmi. Zirg'om o'ziga-o'zi: "Jahon shu yerda bo'lганда bu tumorni taqish albatta uning haqqi emasimdi", - derdi. U shunday xayolga bordi-yu, Vardonni surishtirish uchun uydan chiqib ketdi. Qo'rquvdan o'zini yo'qotib kelayotgan Vardonni u yo'lakda uchratdi. Zirg'omni ko'rib u salom berdi. Zirg'om shoshilib so'radi:

- Ha, bormisan? Nega muncha jimjit bo'lib ketding?

Ikkalasi bir chekkadagi uyg'a borib o'tirishdi. "Afshin kechikib kelganligi tufayli ushlanib qoldim. Uning Somurroga kelganiga bir-ikki kungina bo'ldi. Topshirig'ingizni bajarishga zo'rg'a shu bugun muyassar bo'ldim", - dedi Vardon.

- Jahon to'g'risida nima xabar topib kelding?

Vardon bir lahma sukut etib turgach: "Afshinning maxsus kishilari orasida uning hamma kirdikorlaridan xabardor bir o'rtog'im bor. O'shaning aytishicha, Jahon ulardan ilgari Farg'onadan chiqib ketgan emish", - dedi.

- Bu gapni sen ketganiningdan keyin Jahonning akasi Somondan eshitgandim.

Somonning nomini eshitib Vardonning rangi o'chdi.

- Somon shu yerdami? Qani u ablah? Hozir u la'nati munofiqning jonini sug'urib olaman.

Vardonning bu qadar jahli chiqqanidan taajjublanib Zirg'om:

- Somonni nega o'ldirmoqchi bo'lyapsan? U nima qilibdi? - dedi.

- Uning qiliqlarini hozir aytib beraman. Ammo o'zi nima deganini oldin menga gapirib bersangiz.

- Uning aytishicha, Afshindan qochib, singlisi Jahon bilan Farg'onadan chiqishgan emish. Hamadonga yetishganda qaroqchilar duch kelib, Jahonni va oqsochini asir olishganmish. Somon esa bizga bu xabarni yetkazish uchun ulardan qochib Somurroga kelganmish.

- Qaroqchilarning qilgan ishidan xabardor bo'libsiz. Endi u la'natinining bugungi qilgan ishini men sizga aytib beray: menga topshirgan vazifangizni bajarmoq uchun kecha kechqurundan ishga kirishdim. Lekin uni zo'rg'a bugun erta bilangina ado eta oldim. O'sha o'rtog'imga uchrashdim, u hamma bo'lgan voqeani birma-bir aytib berdi. O'rtog'im menga gapirayotgan paytda Somon otiga minib, qir tomonga o'tib qoldi, lekin men uni yaxshi taniy olmadim. Suhbatdoshimdan: "Bu kim bo'ldi, bevaqt nima qilib yuribdi?" deb so'radim. Uning aytishicha, xuddi shu odamning o'zi shu bugun tongotar paytida kelib, Afshin bilan suhablashgan, Jahonni qaroqchilar olib ketganini aytgan, bu ishda aybdor Zirg'om, deb sizni yomonlagan emish. Bu gapni u ketib bo'lгandan keyin o'rtog'im menga aytdi. Afsuski, ilgariroq bilganimda u badbaxt ko'saning bo'ynini sug'urib olgan yoki bo'g'ib o'lдirgan bo'lardim.

Zirg'om Somonning munofiqligini, niyati buzuqligini avvaldan sezib, uning hech bir gapiga ishonmay yurardi, lekin Jahonning olib ketilgani haqidagi xabardan ikkilanib, o'ziga-o'zi: "Bu yigitning ikkiyuzlamachilagini bilarding, lekin Jahon to'g'risida bergen ma'lumotini ham yolg'on deb hisoblaysanmi?" - deb qoldi.

Shu orada "Bobak qo'zg'olon ko'taribdi, harakati kuchaygan emish", - degan xabar kelib qoldi-da, xalifaning Afshin butun askarlar bilan Ardabil tomonga otlansin degan farmoni e'lon qilindi. Shu vajdan Afshin bilan uchrashish Zirg'omga muyassar bo'lmay qoldi.

Farg'onadan Jo'nash

Jahon akasi va oqsochi bilan birgalikda Farg'onadan qochib ketishga qat'iy qaror qilgandan keyin o'ziga tegishli qimmatbaho, yengil narsalarni joylab qo'ydi. Iroq yo'lidagi dashtu biyobon, cho'l sahrolardagi xatardan emin bo'lish uchun birga ketadigan yo'lovchilar masalasini hal qilishni u akasiga topshirdi. Somon singlisi topshirig'ini bajo qilganini aytdi. Ular "yaqin yerdagi dam oladigan bir joyga ketyapmiz", degan bahona bilan tayyorlangan yuklarni yo'l yoqasiga tashiy boshlashdi. Endi safar payti yaqinlashmoqda. Bundan keyin o'z shahriga qaytib kelmasligini bilgan Jahonga kindik qoni to'kilgan, yer-suv'i, havosi va soyasalqiniga o'rgangan joydan judo bo'lish, otasining qasri, birga yashab, birga o'sgan yaqin qavm-qarindoshlarini tashlab ketish juda og'ir tuyulardi. Uning yuragi siqildi, chehrasidagi quvnoqlik yo'qoldi. Akasi unga ketishga dalda bersa, oqsochi yo'l azob-uqubatlarini ko'z o'ngiga keltirardi. Jahonning o'zi esa Farg'onadan ajralish tufayli yuz beradigan hamma ogl'irliklarni bir tomonga surib qo'yib, niyatidan qaytmashi.

Safarga otlanadigan kechasi saroy boshlig'ini chaqirtirib, saroya va unda yashaydigan kishilarga yaxshi qarab turishni tayinladi, o'zining tez qaytib kelmasligini unga sir tariqasida uqtirib, ishonchni oqlashi, serharakat bo'lish kerakligini ham alohida ta'kidlab qo'ydi. Saroy boshlig'i Jahonning boradigan yerini bilmasa ham, har holda uning safarga chiqishidan afsuslandi. Agar uning Iroqqa ketayotganini bilsa, u ham, boshqa tanishlarning hammasi ham qayg'urib, yig'i-sig'i qilgan bo'lishardi, albatta. Chunki qizning mehrbonligi, ziyrakligi va husn-jamoli tevarak-atrofdagi hammani o'ziga maftun qilgan, uni xuddi ma'budadek ulug'lashga odatlanishgan edi.

Ertasi erta bilan Jahon sayohatga yoki yozlik dam oladigan yerga ketayotgandek qashqa otini minib chiqdi. Uning yonidagi akasi va oqsochi ham otga minishgan. U shahar darvozasidan chiqarkan, otasidan qolgan mol-mulk, bog'-rog'larni tashlab ketayotganiga achinib, ko'ziga yosh oldi: lekin sevgilisi yonida bo'lishdan ko'ra buyukroq baxt-saodat yo'qligini eslab o'ziga-o'ziga tasallি berdi. Bular hamroh bo'lgan savdogarlar karvoni Hind mamlakatidan har xil attorlik mollar va kiyim-kechak ortib, Xurosonga bormoqda edi. Jahon ham o'z buyumlarini va yo'l anjomolarini ana shu savdogarlarnikiga qo'shadigan bo'ldi. Bu ishni asosan akasiga topshirib, o'zi safar kiyimlarini kiyishga taraddudlandi. Shundan keyin ba'zisiga yuk ortilgan, ba'zisiga odamlar minib olgan, bir-biriga matashtirilgan tuya va xachirlardan iborat karvon kechqurun yo'lga chiqdi. Itlar, qozon-tovoq va o'r'in-to'shaklar ham ularda.

Kirakash va molboqarlar esa tuyada borishmoqda. Chunki karvon o'z odamlari, hayvonlari va uy anjomlari bilan yurardi. Ular kunduzning uzun-qisqaligi, havoning issiq-sovug'i va boshqa sharoitlarni hisobga olib yo'l yurardi. Safarga, uning xavfu xatariga o'rgangan, yo'l-yo'rinqi bilgan, jismoni baquvvat qo'riqchilar karvon atrofini qurshab, qo'riqlab bormoqda. Ularning Amudaryo bilan Toshkent daryosi (Sirdaryo) oralig'idagi sahrolarda tarqoq holda yashaydigan turkman qabilalari bilan aloqa va do'stliklari bor. Ikki daryo o'rtasidagi masofada haftalab, ba'zan ikki oy lab yuriladi. U yerlarda qaroqchi, yo'lto'sarlar ancha topiladi. Shuning uchun ham agar karvon katta bo'lmasa, u yerlardan yurishga kishi jasorat etolmaydi. Yo'lida yurilganda karvon harbiy intizomni qo'llaydi, dam olish paytlarida chodirlar tikiladi, qo'y yoki qoramol so'yilib, qozonlar osiladi. Kishilar ovqatlanib, dam olishadi. Jahon bunday safarni umrida boshidan kechirmagan va eshitmagan edi. Lekin u yo'l mashaqqatlariga tishni tishga qo'yib chidar, sevgilisiga uchrashish orzusi bilan o'ziga o'zi tasalli berar edi. Bu, kishilarni hayratga soladigan muhabbat mo"jizalaridan edi, albatta.

Ularning bu uzoq safarda tortgan mashaqqatlarini, kunduzning issig'i, kechasining izg'irini, ular olib borayotgan ob-ovqat tugab qolib, tortgan tashnalik va ochliklarini to'liq tasvirlaydigan bo'lsam vaqt yetishmaydi. Shuning uchun gapni muxtasar qilaman: Karvon Ray shahriga yetib borganda: "Endi karvondan ajralish kerak, chunki u Iroqqa boradigan yo'ldan yurmaydi, shimol tomonga burilib ketadi", - dedi Somon singlisiga. Jahon akasining ra'yiga bo'yundi. Yuklari va mol-mulkular bilan karvondan ajralib o'z yo'llariga qarab ketishdi. Shu kuni kechqurun Hamadondan nariroqda bir qancha otliq kishilar bular ustiga bostirib keldi. Otda ketayotgan Jahon mardlik bilan o'zini mudofaa qildi. Somon ham sovuqqina qarshilik ko'rsatdi. Bular kuchsizlik qilib, mag'lubiyatga uchrashdi. Otliqlar Jahonni va oqsochini ushlab oyoq-qo'lini bog'lashdi. Somon esa "Bu hodisadan Zirg'omni voqif qilaman", degan bahona bilan qochdi.

O'zining asir olinganini ko'rgan Jahon ularning boshlig'ini chaqirib: "Bu nima qilganlaring? Sizlarga mol kerak bo'lса, mana yuklarimiz, bularni olib, bizni bo'shatib yuboringlar, sizlardan hech da'vogar bo'lmaymiz", - dedi. Otliq kishilar o'zlarini tanitmaslik uchun ovozini chiqarmas, basharasini ham o'rabiq qilgandi.

Jahonning gapiga birinchi bo'lib ovoz chiqargan bir otliq: "Biz o'g'ri emasmiz, molga muhtoj ham emasmiz. Bizga Farg'ona malagini yer yuzidagi eng ulug' kishiga olib borib topshirish vazifasi yuklangan. U kishiga yaxshilikcha rozi bo'lмаган bu qiz, endi majburan rozi bo'ladi", - deb javob berdi.

Uning gapini eshitgan Jahon o'ziga tuzoq qo'yilganini sezdi. U, bularning rostakam o'g'ri bo'lishini, mol-mulk bilan daf bo'lishini istardi. Bu, albatta, mag'lubiyatdan qo'rqqani uchun emasdi. Qizning dadilligi, dovyurakligi ma'lum. Uning butun fikr-yodi sevgilisida. Moli ketsa ham, o'zi omon qolib, sevgilisiga yetib borsa bas. Nima gapligini puxtarq bilib olish uchun Jahon: "Ey do'stlar, qilayotgan ishlaringiz ulug' odamlar qiladigan ishga o'xshamaydi", - dedi.

- Kishi shundan bo'lak chora topmagandan keyin nima qilsin? Qadr-qimmati baland, so'zi yerda qolishini nafsoniyati ko'tarmaydigan bir kishi sovchi bo'lib borsa-yu, noumid qaytib ketsa, durustmi, axir? - javob berdi otliq.

- Unday bo'lса, u kishi birovga sovchi bo'lismi ham, jazmanlikni ham yig'ishtirib qo'yishi kerak, - qat'iy gapirdi Jahon.

- Rostakam jazman bo'lса-yu, lekin sevgilisini qo'ldan boy berib qo'ygan bo'lса, nima qilsin?

- Bunday safsatani qo'ying. Men sizlarni faqat moltalab o'g'rilari deb o'ylayapman. Mana mollarimiz, hammasi qo'lingizda. Bizni qo'yib yuborsangiz, bu mollarga yana ikki hissa qo'shib berishga so'z beraman.

- Beradigan mollarining uchun ming qullug'. Lekin o'zingni bo'shatib yubora olmaymiz. Biz seni olib ketayotganimizdan, niyatning ro'yogba chiqmay qolganidan pushaymon bo'lma. Negaki, jahonda eng ulug' bir zotning qo'liga boryapsan, u bilan tuzuk muomalada bo'lsang, sendan ko'ra baxtli odam bo'lmaydi, - dedi noma'lum kishi.

U odam "jahonda eng ulug' bir zot" deb kimni aytayotganini Jahon fahmlamadi:

- Maqsadingizga tushunmadim, "ulug' zot", deb kimni aytmoqchisiz?

- Bir necha kundan keyin hammasini tushunib olasan. Hozir xotirjam bo'laver. Biz seni izzat-ikrom bilan olib boramiz. Ko'zlangan joyga yetib organimizdan keyin aysh-ishrat, rohat-farovonlikdan boshing chiqmaydi.

Jahon oqsochi bilan yo'lda bir necha kunni o'tkazdi. Begona odamlar bu ikkalasining qo'l-oyog'ini ertasi erta bilanoq yechib qo'yishgandi, oziq-ovqat, yotish-turishlaridan xabar olib, izzat-hurmat bilan xizmatlarini baho etib borishardi.

Jahon istasa, ularning qo'lidan qochib ketishning imkoniyatini bor edi. Lekin qochishni lozim ko'rmadi. Ochig'i, buning oqibatidan qo'rqardi. Olihimmat kishilarning vijdoni hatto o'limdan qochishga ham yo'l qo'ymaydi.

Shu yo'l yurishida Jahon necha-necha shahar, qishloq, tog'u tosh va o'rū qirlarni bosib o'tdi, turli millat kishilarini ko'rdi. Bir kun u o'zini Ozarbayjondan o'tayotganini fahmladi. Karvonboshi unga bugun Armanistonda ekanliklarini va hademay Ardabilga kirib borishlarini tushuntirdi. Jahon o'zini Bobak Xurramiyga olib borishayotganini endi bildi. Bir vaqt Bobak uni otasidan so'ratganida o'zi qabul qilmaganini esladi-da, Bobakning qo'liga ketayotganini taxmin qildi va o'zini undan himoya etish tadbirini ko'ra boshladi. Bu ishda muqarrar akasining qo'li borligini payqab, unga ishongani uchun afsus-nadomat chekdi.

Haqiqatan ham Jahon Somondan dargumon bo'lib yurgani to'g'ri edi, chunki akasining tabiatida tubanlik bor edi. Otasi Somonni merosdan mahrum qilib, hamma mol-mulkni Jahonga vasiyat qilib ketgani uchun, unda singlisiga adovat o't olib ketgandi. U o'z niyatlarini to'g'ri odamlarga o'xshab botirlik bilan yuzaga chiqara olmagandan keyin, makkorlik, hiylakorlik yo'liga o'tib olgandi. Shum niyatlar xalq uchun eng zararli kishilardir. Bular pok, vijdonli kishilar manfaatini poymol qilmay turib, shum niyatiga erisha olmaydi. Somon Xurramiya maslagiga qo'shildi. Xurramiya - xo'jayinlarga qarshi kurashadigan maxfiy bir uyushma bo'lib, shu davrda uning rahbari Ardabil hokimi Bobak Xurramiy edi. Xurramiyalar Bobak hukmdorligini quvvatlash uchun maxfiy ravishda harakat qilishardi. Tabiatan juda shafqatsiz bo'lgan Bobakning jon-tani ayollar. Qaerda biror chiroyli ayol bor deb eshitsa bas, uni o'z obro'si bilan, bo'lmasa, pul-mol, bu bilan ham bo'lmasa, zo'rlik bilan saroyiga keltirishga harakat qilardi. Uning shu dovrug'i hamma yoqqa tarqalgan edi.

Bobak bizning Jahonimizning husn-kamolidan xabar topib, Somon orqali unga sovchi yubordi. Otasi rozilik bermagandan keyin "Uni menga yetkazib bersang, seni xursand qilaman, mol-davlatga ko'maman va katta bir mansabga tayin etaman", deb Somonga va'da berdi. Somon otasi hayotligida bu ishning uddasidan chiqolmasdi. Cholning vafot etishi va Somon merosdan mahrum qilinishi bu ishlarni tezlashtirib yubordi. Somon navro'z kunlari Farg'onada xurramylarning bir o'tirishida Bobakning noibi Isbehbaz bilan uchrashdi. U yashirin ravishda shunday o'tirishlarda qatnashar va otasiga bildirmasdan, bir necha kunlab uydan g'oyib bo'lib ketar edi. Qanday hiyla ishlatish kerakligi ustida ular bilan maslahatlashardi. U Isbehbaz bilan o'tirishganda Jahonni Ardabilga yetkazib berishga so'z berardi. U tabiatan tuban bo'lgani uchun oshiq-ma'shuqlar sevgisini bir chaqaga olmaydigan nomard ham edi. Uning shum niyati, xususan, Afshin bilan ko'rishib, otasining vasiyatini eshitgandan keyin avj olib ketdi. Uning butun fikr-zikri Afshindan alamini olishda bo'lib qoldi. Isbehbaz bilan til biriktirib qo'ygan hiylakorligini amalga oshirishni u

boylik, obro' topish va raqibidan o'ch olish vositasi deb bildi. Shunday qilib, u Jahonni Iroqqa o'tib ketayotganda asir olish uchun bir necha kishi Ray bilan Hamadon o'rtaida poylab turishi, olib ketishgandan keyin: "Uni qaroqchilar majburan mendan tortib olib ketdi", deb xalq o'rtaida ayyuhannos solishi to'g'risida Isbehbaz bilan kelishib oldi. Uni olib ketishgandan keyin Somon Zirg'om bilan Afshining o'rtaida rahna solish uchun Iroqqa bordi. U Zirg'omning botirligini, Jahon uchun jon fido qilishga tayyorligini yaxshi bilardi. Jahonni Afshin olib ketdi, degan gapga ishonsa, Afshinni o'ldirmay qo'ymasligini ham bilardi. Somon olisni ko'rolmaydigan, kaltafahm edi. Shuning uchun o'ylagan tadbirini o'rinnlata olmadidi. Uning hiylasi Zirg'omga ma'lum bo'lib qoldi. Lekin kaltafahmli tufayli u "Vazifamni to'liq bajardim va maqsadimga erishdim", deb Iroqdan qaytdi.

Jahon esa Armanistonning o'sha vaqtdagi viloyat markazi bo'lmissiz Ardabilga yaqinlashayotganini sezgach, oldida turgan xavf-xatarga qarshi kurashish tadbirini ko'ra boshladidi. U Bobak to'g'risida ancha narsalar eshitgandi. Uning rasvo va aysh-ishratga berilgan odam ekanini, Ardabilda istiqomat qilishini ham bilardi. Uni olib ketayotgan kishilar qorong'i tushmasdan serdaraxt bir o'rmonga yetishdi. Bu ardabilliklarning yashirinadigan joyi bo'lib, biror falokat yuz bersa, shu o'rmonda jon saqlashardi. Uy jihozlari va idish-tovoq yasash uchun kerakli yog'ochni ham shu o'rmondan kesib ketishardi.

Shu o'rmonga qarab turib Jahon Bobakning zulmidan o'zini mudofaa qilish tadbirini o'lay boshladidi. U Zirg'omni eslab: "Boshimga tushgan savdolar qulog'iqa yetsa, holi nima kecharkin?" - deb qo'ydi.

Jahon shu xayol og'ushida ekan, ular Ardabilga boradigan yo'lidan burilib, o'rmonga kirayotganlarini sezdi. Kishilardan bittasi kelib Jahonga qashqa otining jilovini o'rmon tomon burish lozimligini aytdi. Buning sababini bilmasa ham, Jahon otini o'sha tomonga burdi. Bir-biriga birikib ketgan daraxtzorni kesib o'tib ular noqulay yo'lidan borishardi. Jahon esa bu tariqa yurilayotganining boisini bilish maqsadida goh o'ng, goh so'l tomonni diqqat bilan kuzatardi. Shu payt ularning boshlig'i Jahonning yoniga kelib: "Bu tomonga burilganimizdan ajablanayotgan yoki xavfsirayotgan bo'lsangiz kerak?" - dedi. "Men hech narsadan cho'chiyatganim yo'q, lekin Ardabilga yaqin qolganda bu noqulay yo'lidan borayotganimizdan hayron bo'lyapman, xolos", - dedi qiz. Boshliq Jahonning jur'ati va dovyurakligiga tahsin aytib: "Yo'lning chekkasida tikib qo'yilgan bayroqni ko'rmadingiz shekilli" dedi.

- Yo'q, ko'rmadim, qani bayroq?

Boshliq uni yetib kelgan joylaridagi bir tepalikka olib chiqdi:

- Huv anavi bayroqni ko'rmayapsizmi? - dedi-da, bayroq tomonga ishora qildi.

Jahonning ko'zi bayroqqa tushdi-yu, uning Afshinniki ekanini payqab, yuragi orqasiga tortib ketdi:

- Bu musulmonlar bayrog'i-ku, - dedi u.

- Ha, to'g'ri, bir kishi kelib: "Kattamiz Ardabilni tashlab chiqib ketdilar, u yerni musulmonlar bosib oldi" - deb xabar yetkazdi.

- Siz Bobakni aytapsiz shekilli, u qaerga ketibdi? - hayajon bilan so'radi Jahon.

- U Armanistonning ichkarisiga kirib, Ars daryosi yonidagi Bazz degan bir shaharchaga o'zini olibdi. Buni bizga xabarchi aytdi.

Jahon: "Bu kishi mehribon, marhamatl odamga o'xshaydi. Odamlar jang qilish bilan ovora bo'lib ketsa, bizni, balki bo'shatib yuborar", deb umid qildi-da: "Demak, bizni Bazzga olib ketyapsizlarmi?" deb so'radi.

- Hovva, Bazz bu yerdan bir necha kunlik yo'lli.

- Nahotki, meni o'zlarining bilan birga borishga majbur qilsanglar?

Bu savoldidan Jahonning "bizni bo'shatib yuborishingiz mumkinmi?" demoqchi bo'layotganini sezgan boshliq:

- Kattamizning farmoni qat'iy. Uni buzishning sira iloji yo'q. Basharti biz sizni bu yerda bo'shatib yuborsak, qaroqchilar qo'liga tushmaganningizda ham, yirtqich hayvonlarga yemish bo'lasizlar, - dedi.

Jahonning orqasidan Hayzuron kelardi. Jahon unga qayrilib qarashi bilan u: "Bobakning oldiga borishdan nega mucha qo'rmasang? Sendek malika undan qo'rqarmidi?" - dedi.

Hayzuronning gapi Jahonga dalda bo'ldi, u buni biror mo'ljal bilan aytayotganini tushundi. Ular yana yo'lda davom etishdi. Jahon tevarak-atrofga qarar, u yerlarning jumjutligini, o'rmonning kengligini o'ylab borardi. Olisdan Ardabil shahriga ko'zi tushdi. Uning katta maydonida askarlar va islom bayroqlari g'uj-g'uj.

Jahon Afshining Farg'onada qolganini va Ardabilga kelganlar uning askaridan bir bo'lagi ekanini bildi.

Choshgoh vaqt edi. Jahon bilan Hayzuronni olib borayotgan kishilar qorong'i tushib, kechasi bu o'rmonda qolib ketishdan qo'rqi, otlariga ustma-ust qamchi bosishardi. Ular o'rmondan chiqib, yo'lda davom etisharkan, Arshak, Xash va Barzand shaharlaridan o'tishdi. Bobakning urush vaqtini hisobga olib, askarlarning oziq-ovqatlarini saqlab qo'yiladigan omborlari ustida, bu shaharlarning qo'rg'onida musulmonlar bayrog'i ko'rindi. Oldinga yurilgan sari Jahon havoning sovuqligini his etardi. Shu yo'sinda ular Bazzga kirib borishdi.

Bazz shahar emas, qal'a yoki tuproq qo'rg'onga o'xshagan bir joy ekan. Chunki u qo'rg'onga o'xshash bir necha qasrlardan iborat bo'lib, qasrlar ustida bir qancha qubba, atrofini vahimador paxsa devor o'ragan. Qubbalar tepasida Xurramiyalar bayrog'i osilgan. U tomonlarning yeri tog'liq bo'lib, askarlarning yuk bilan o'tishi g'oyat mashaqqatli. Binobarin, Jahon Bobakni musulmonlar olishi mumkin bo'lmaydigan shu mustahkam istehkomga joylashgan ekan deb bildi.

Jahonni olib kelayotganlardan biri Bazzga kirishga, Jahonni qasrga tushirishga ijozat olmoq uchun oldinroq chopib ketdi. U qaytib kelib, bular kirmoqchi bo'lib turgan darvozadan emas, boshqa bir darvozadan kirishlariga ishorat qildi. Qo'rg'on ichkarisiga kirgan Jahon o'zini qafasga tushganday his qildi. Uning bu ahvolini payqagan Hayzuron otini qamchilab, boshliq yoniga keldi-da: "Bizni qaerga olib bormoqchisizlar?" - deb so'radi.

- Ulug'imiz hozir Bazzdan tashqaridalar. Go'zal qayliqlarini ayollar qasriga eltilib qo'yishni buyurdilar. U kishi o'zi qaytguncha izzatu ikromda yashayverasizlar.

Uning "qayliqlari" degan so'zini eshitib Jahon cho'chib ketdi, lekin o'zini bardam tutib, qasr yoniga kelguncha indamadi. Qasr alohida devor ichida bo'lib, sahni va tomorqasi bor. Soqchilar ularni istiqboliga tik turib, yo'l bo'shatishdi. Jahon Hayzuron bilan otidan tushmay, katta darvozadan ichkari kirishdi. Ularga kiradigan kichik darvozagaga yaqin kelganda, Jahon, undan keyin Hayzuron ham otidan tushdi. Xizmatchilardan bittasi yugurib kelib, ikkala otni olib ketdi. Jahonning yuzi ochiq bo'lgani uchun uning husn-jamolini ko'rib, hamma hang-mang bo'lib qoldi.

Bularni olib kelgan karvonboshi Jahonning oldiga kelib, ehtirom bilan tik turgancha: "Hurmatli sayidam, sizni xohishingizsiz bu yerga olib kelishga jur'at qilganim uchun avf etasiz, chunki ulug'imizning topshiriqlariga ko'ra, men bu ishga majbur edim. Lekin qynalmay kelishingizga iloji boricha harakat qildim. Endi shu qilgan yaxshiligidini ulug'imiz amir oldilarida gapirib qo'ysangiz, negaki, bundan keyin hamma ish sizning ixtiyorlingizda bo'ladi", - dedi.

Jahon so'radi:

- Otingiz nima?
- Behzod.
- Meni hozir qaerga olib borasiz?
- Qasrning oqsochi oldiga. U sizning orom olishingiz uchun zarur bo'lgan hamma yumushlarni bajaradi. - Tik turib ularning gapiga qulqoq solayotgan Hayzuron: "Bu qasrdagi kishilar ichida sizga tanish biror ayol yo'qmi?"**БТ**" dedi.
- Bu xotinlarning ko'pini taniyman. Ular har xil millatdan. Ularning ichida Haylona degan bir ayol bor. O'zi asli amirlar xonardonidan. Amirimiz janob Bobak uni keltirib, o'z haramlariga qo'shmaslaridan burun erining Armanistondagi hovlisini bilardim. Uni olib kelganlardan bittasi men o'zim bo'lib, yo'lida tanishganmiz. U aqli, xushchaqchaq ayol. Sayidamga, ehtimol, o'sha xotin yoqar, u bilan apoq-chapoq bo'lib ketishar. Mana, oqsoch ham kelib qoldi. Endi qaytishimga ijozat berasiz, nomim Behzod, - dedi-da, yigit orqasiga qaytdi.

Jahon oqsoch kelib yetguncha o'z qasri oldida turgan malikadek hech hayajonlanmay, viqor bilan turaverdi. Oqsoch yoshi o'tgan, novcha bir ayol edi. Ko'rinishidan yoshlik paytida go'zal bo'lgani sezilib turardi. U yaltiroq, guldar kiyim kiygan, bo'yniga marjon, qo'liga bilaguzuk, qulog'iga zirak taqqandi.

Jahonga ko'zi tushishi bilanoq yo'l mashaqqatlari ham kor qilmagan husn-salobat uni o'ziga maftun qildi. Uning ko'zlarida u yerdagi o'nlaracha xotinlarning birontasida ham uchramagan ajoyib latofatni ko'rди. Asir olinib kelganiga qaramay, uning hanuz shaxdamligidan hayratga tushdi. Jahonning obro'si kattaligidan va Bobak uni o'ziga so'ratganida qabul qilmaganidan ham oqsoch xabardor bo'lgani uchun, endi uni ko'ngli siniq, g'amnok va yolborgan holida ko'rарman, deb o'ylagan edi. Ammo uning avvalgidek bo'y egmay, zarra hayajonlanmay turganini ko'rib: "Bechora, taqdiriga tan beribdi-da", deb o'yladi. U Jahonning oldiga kelib muborakbod qilarkan: "Xush kelibsiz, Farg'ona malagi! Sizni bu yerga majburan keltirishgani, har qalay, men uchun og'ir, lekin boshga tushganni ko'z ko'radi. Endi avvalgi ra'yingizdan voz kechishingizni iltimos qilaman", - dedi.

Jahon unga jilmayib qaradi-yu, javob bermadi va yerga tikilganicha u bilan qasr yo'lqididan boraverdi. O'z kundoshlarini ko'rish uchun o'lib-qutilib har tomonidan mo'ralashayotgan qasr ichidagi mahramlarga uning ko'zi tushmadi ham. Uning tengsiz husnini va kelishgan qomatini ko'rgan mahramlar: "Bobakning butun fikr-yodi, muhabbatni unga o'tib ketar ekan", deb hasad qilishdi. Ammo Jahon hech narsaga parvo qilmagandek oqsoch ketidan boraverdi. Oqsoch uni qip-qizil gilamlar bilan chiroyl qilib bezatilgan bir xonaga olib keldi-da: "Mana bu uy sizniki, bemalol farog'at qiling", deb taklif etdi. "Mening o'z engil-boshlarim qaerda? Yuklar bilan birga uni ham tortib olishgandi", - so'radi Jahon. Oqsoch: "Hozir hammasini keltiraman", - dedi-da, chiqib ketib, quti va sandiqlarni yubortirdi.

Jahon Hayzuron bilan bu uyda yolg'iz qolganidan keyin, endi tuzoqqa ilinganiga to'la ishondi. Yuragi siqildi, o'zini har qancha bardam tutsa ham bo'lindi, yig'lab yubordi. Hayzuron uning yonida bardam turib, tasalli berardi. Lekin qizning yuziga oqib tushayotgan ko'z yoshlarini ko'rib, uning ham yuragi bardosh bera olmadi. Jahonning oyog'iga yiqilib, kiyim-boshlarini ko'ziga surtdi:

- Oh, jonim, qanday baloga yo'liqdik, qaerlarga kelib, bandi bo'lib qoldik. Shu topda Zirg'om qaerda ekan? - kampir dodlay boshladi.

Jahon lom-mim demay yum-yum yig'lardi. Shundan keyin Hayzuron Jahonning oldida bu qadar zaiflik qilgani chakki bo'lganini sezib, o'zini to'xtatib oldi-da: "Lekin men sening donolik bilan ish ko'rishingga, dovyurakligingga qattiq ishonaman. Nima qil desang, qilishga tayyorman", - dedi.

- Behzod shu qasrdagi xotinlar ichida Haylona deganni maqtaganini eshitdingiz, agar o'sha bilan tanishib olsak, bizga bop ulfat bo'lib qolsa ajab emas, o'shani topib bu yoqqa olib kelsangiz, qanday bo'larkin. Oldin kiyimlarini topishib berib, keyin borsangiz. Hayzuron uning kiyim-kechaklarini topishib berib, Haylonani qidirgani ketdi. Quyosh botishga yaqinlashib, xizmatchilar qasr shamlarini yoqa boshlashdi. Jahon kiyimlarini almashtirib bo'lib yonboshladi, tevarak atrofga ko'z yogurtirdi. O'zining shunday ahvolga tushib qolganini, Farg'ona bilan shu turgan joyining orasi bir necha oylik masofa ekanini, Somurro ham xuddi shunday olisligini xayolidan o'tkazdi. Keyin u Zirg'omni o'ylab, o'ziga-o'zi: "Mening boshimga tushgan bu falokatdan xabari bo'ldimikin? Turgan yerimni, hol-ahvolimni unga ma'lum qilsam, balki meni qutqazib olib ketarmidi?" - dedi. U akasi Somonni eslab: "Unga nima bo'ldiykin? U jang vaqtida halok bo'ldimi yoki boshqa joyga qochib ketdimi?" - dedi o'ziga-o'zi.

Jahon shunday xayollar ichida o'tirarkan, birdan eshik taqilladi. Hayzuron kirib: "Sayidam, Haylonani olib keldim", - dedi.

Jahon uning istiqboliga o'rnidan turmoqchi edi, Haylonaning o'zi yugurib kelib ko'rishdi va eskidan tanishdek kulib u bilan hol-ahvol so'rashdi. Uning chiroydan tashqari xushmuomalasi, yoqimtoyligidan o'ziga juda monand dugona topilganiga xursand bo'ldi, o'zini go'yo Farg'onada, otasining qasrida, o'z ahli ichida o'tirgandek sezdi.

Haylona malla soch, moviy ko'z, oq yuzli, labidan tabassum arimaydigan ayol edi. Jahon ham tabassum bilan uning mehribonligiga tashakkur aytди. Haylona unga dalda berish va ko'nglini ovlash uchun: "Xush kelibsiz, Farg'ona malagi! Sizning husningiz, donoligingiz ta'rifini eshitganimizga ancha bo'ldi, ko'pdan buyon yo'lingizga muntazir edik", - dedi.

- Men o'zimni jahannamga ketdim deb o'ylab turuvdim, sizni ko'rib, g'amim bir oz yengillashdi.

Uning tovushini eshitib, Haylona zavqlandi, o'ziga hamandard deb bildi. Shu payt o'z o'tmishini esladi shekilli, ko'ngli buzilib, "Qismatimiz shunday ekan, jonimni qoqay, siz o'z musibatingizni boshqalarnikiga qiyos etsangiz, sizniki hech narsa bo'lmay qoladi. Agar ular menga qilgan zulmni ko'rganingizda, "iya, menga juda ham rahm qilishibdi-ku", deb hisoblardingiz.

- Ularning fe'l-atvorini aytib bersangiz, ehtimol, tashvishlarim yengillasharmidi, - dedi Jahon.

Haylona og'ir xo'rsindi:

- Mening ko'rinishimdan va forschanı yaxshi gapira olmayotganimdan eronlik emasligimni sezgan bo'lsangiz kerak. Men turk ham, arman ham emasman. Armanistondan ushlab kelingan otamning Ammuriyyadagi uyida katta bo'lgan yunon qiziman. Menga arman ruhoniylaridan biri sovchi yuborib, xotinlikka oldi-da, o'z shahriga olib ketdi. U bilan ikki yilgina birga yashadimmi, yo'qmi, ta'rifim Bobak Xurramiyga yetipti, - u ovozini pasaytirdi. - Bobak meni erimdan tortib olmoqchi bo'ldi. Erim unamagach, uning yo'q paytini mo'l turib, o'z kishilarini yuborib, zo'rlik bilan meni bu yerga oldirib keldi. Mana, bir qancha yil o'tib ketdi, lekin men hamon shu yerda qamaldaman. Erimning qayerdaligini va mendan keyin qay ahvolga tushganligini bilmayman. U mening qayerdaligimni biladiyu, lekin olib ketishga yo'l topolmay sarson. Kim biladi, uni o'ldirib yuborishdimi? - Haylona shunday dedi-da xo'rliqi kelib, piqillagancha ko'z yoshini artdi va kulimsirab: "Bu sarguzashtimni aytishdan maqsad sizning g'amingizga g'am qo'shish emas, sizga tasalli bermoqchiman", - dedi.

Jahon o'zicha: "Bu bechoraning boshiga og'ir savdolar tushgan ekan", - dedi-da, o'z sarguzashtini ham unga aytib bermoqchi bo'ldi, lekin uyaldi.

Xo'rsinib, gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi:

- Bobakning o'zi qayerda? Bu yerda qanday hayot kechiriyapsizlar?
- U bu qasrda emas. Shu shaharcha qo'rg'onlari yaqinidagi boshqa bir qasrda yashaydi. U yerda o'z istehkomlarini kuzatib turadi.
- Bu qasrdagi ayollardan istaganini u yerga oldirib borib, bir kun-ikki kun u bilan ishrat qiladi.
- Bilishimcha, u bir muhim ish bilan ovora bo'lib, bu qasrdan ham, qasrdagilardan ham xabar olmay qo'ygan emish.
- Shunday, u katta bir jangga hozirlik ko'ryapti.
- Kim bilan jang qilmoqchi? - qiziqib so'radi Jalon.

- Iroqdagi musulmonlar ahvolini bilib kelish uchun o'z ayg'oqchilarini yuborgan edi. Aylg'oqchilar kecha qaytib kelib, musulmonlar Afshin qo'mondonligida Bobakka qarshi katta hujumga tayyorlanayotgani xabarini aytishibdi.

Afshin nomini eshitgach, Jahonni qaltiliq bosdi va hamma baloning boshi shu Afshinining o'zi ekanini esladidi. Haylona diqqat bilan tikilsa bormi, shu topda Jahonda yuz bergen o'zgarishni ko'zlaridan bilib olsa bo'lardi. Lekin Jahonni birinchi ko'rishi.

Farg'onadagi katta mulkdor hokimning qizi ekanini, Bobak uni so'raganda rozi bo'limgani uchun majburan olib kelinganini biladi xolos.

- Afshin o'zi kelganmi? - deb so'radi Jalon.

- Bilmadim, lekin kelgan bo'lishi kerak. Bobak yo'lga poyloqchi va to'siqlar qo'yish uchun bir qancha odamlari bilan Bazzdan chiqib ketgan, u bir necha kunsiz qaytmasa kerak, - dedi Haylona.

Bu xabardan Jahanning ko'ngli yorishdi. Aylg'oqchilarning Iroqdan qaytib kelganini eshitib: "Ularning orasida sizga tanish kishilar ham bormi?" deb so'radi Haylonadan.

- Mening xodimam ularning bittasi bilan tanish.

Shu paytda Hayzuron Jahonga kechki ovqatni olib kelib, gapga qulop solib turgandi. U Haylonaga qarab: "Qaysi xodimangiz?" - dedi.

- Sizga meni ko'rsatgan xodimam.

- Ha, uni tanib oldim, u chindan o'zingizga o'xshagan xushchaqchaq ayol ekan, - dedi Hayzuron.

Haylona gapida davom etdi:

- Shuning uchun o'sha aylg'oqchi buning ilinjida, hamma vaqt unga tufhalar olib keladi, uning maslahati bilan ish qiladi, shunga uylanmoqchi.

Bu gapni eshitib, Jahanning chehrasi ochildi. Ular Hayzuron bilan ko'z urishtirib, bir-birlarining ko'ngillaridagini bilib olishdi. Hayzuron ayloga:

- Men shu xodimangizdan bir narsani iltimos qilmoqchi edim. Agar oshig'i yana Iroqqa boradigan bo'lsa, shu iltimosimni unga aysa, siz shu ishda menga yordam bera olasizmi? - dedi.

- Bosh ustiga, siz tayyorlaydigan narsangizni tayyorlay bering, - dedi Haylona.

Hayzuronning yuziga qon yugurdi. Chunki u endi o'z sayidasi xususida shu aylg'oqchi orqali Zirg'omga ma'lumot yuborish imkoniyatiga ega bo'lgandek edi. Shundan keyin suhbat tugab, Hayzuron o'rtaga dasturxon yozdi. Hammalari birgalikda ovqatlanishdi. Safarda toliqib kelgan Jahanning dam olishi kerakligini eslab, Haylona ketishga ijozat so'radi va "ertaga erta bilan o'zim kelib sizni uyimga olib ketaman", - deb gapni bir yerga qo'yib, chiqib ketdi.

Bobak Va Jalon

Jahon kechasi ne-ne xayollarni o'ylab yotdi. U Zirg'omga xat yozmoqchi bo'ldi-yu, xatim atayin yoki bilmasdan begona qo'lga tushib qolsa, natijasi yomon bo'larmikin, degan andishaga bordi-da, yozmoqchi bo'lgan so'zlarini og'zaki aytib yuborishga qaror qildi. O'ylagan fikrini erta bilan turib Hayzuronga aytdi U: "Durust o'yabsan, janob Zirg'omga "Jahon Bazzda, Bobak huzurida", degan fikrni bildirsak kifoya", - dedi. "Mening ham ra'yim shunday", - dedi Jalon.

- Hozir Haylonaning oldiga boramiz. U yerda men xodimasiga uchrashib, qiladigan ishini o'ziga yaxshilab uqtiraman.

- Yaxshi bo'ladi, - dedi-da, Jalon kiyinib, borishga tayyorlana boshladi. Uydan chiqishga harakat qilayotganlarida bir xodima kelib: "Sayida Jalon qayerdalar?" - deb so'radi.

Jahon o'z nomini aytib chaqirilganidan "Bobak kelib qolgan bo'lsa, qizni olib kel, deb bu xodimani yubordimi" deb cho'chib ketdi. U jim turgan edi, Hayzuron turib, nima ishi borligini surishtirdi. U Jahanning akasi kelganini, u bilan ko'rishmoqchi ekanini aytdi. "Akasi" degan so'zni eshitgan hamona Jalon ikki fikr o'tasida qoldi: biri, "akam Zirg'om to'g'risida yaxshi gap topib kelganmikin", deb shodlanishi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, "bu qallob, ayyorga ko'zim uchayotibdimi", deb xafalanishi bo'ldi. U xodimaga: "Ayting, kira qolsin", - dedi.

Yig'idan qizarib ketgan ko'zlaridan yosh oqizib Somon kirdi. Jahonga ko'zi tushishi bilan, dodlab oyog'i ostiga o'zini tashladi. Shu bilan o'zini ko'yishdan Jahanning alahsitgan bo'ldi. Jalon uning nimaga yig'layotganini tushunmadi-da, "Sizga nima bo'ldi, nega yig'layapsiz?" - deb so'radi.

U yig'idan bo'g'ilgan tovush bilan: "Bilmadim", dedi.

- Bilmadimiz nimasi... aytavering... gapiring...

Somon javob bermay, boshini yerga egib, yeng uchi bilan ko'z yoshini artaverdi. Jalon "Qayerdan keldingiz?" - deb so'ragan edi. "Somurrodan" - deb javob qildi.

- Zirg'om qalay? U bilan uchrashdingizmi? - Jalon Zirg'omni so'rashi bilan Somon yana yig'lay boshladi. Jahanning yuragi notinchlanib, birdan o'nidan turib baqirdi:

- Gapiring, sizga nima bo'ldi? Zirg'om qalay?.. O'zi qayerda?

Somon orqasiga qaytib: "Tura tur, men nafasimni rostlab olay", degandek, Jahanning qo'lidan ushladi. Keyin: "Uning qayerdaligini bilmayman", deb javob qildi.

- Somurroda edim, demadingizmi?

- Ha, Somurodda edim, lekin Zirg'om u yerda emas.

- Zirg'om Somurroda emasmi?

- Ha, singlim, u yerda yo'q, hamma yerdan surishtirdim. Uni ko'rdim degan biror odamni uchratmadim.

Jalon angraygancha akasiga qarab qoldi. Somon yana gap boshladi:

- Nima desam bo'ladi? Zirg'om Somurroda yo'q, Farg'onaga ketgandan keyin qaytib kelganini hech kim ko'rmabdi.

Uning gapini eshitgandan keyin Jahonning qoni qaynadi, jahlidan o'zini yo'qotib qo'ya yozdi, lekin chidadi, o'zini bardam tutdi. Hayzuron kelib Somonning qo'lidan ushlab, o'zi tomon torti-da: "Ochig'ini ayt, nima gap eshitding?" b'T" dedi. Somon singlisi eshitib qolmasin, deb ovozini pasaytirib dedi:

- Bizga qaroqchilar hujum qilib, Jahonni va sizni ushlab olishgach, bu falokatdan bahodir Zirg'omni ogoh qilishni o'zimga ham farz, ham qarz deb bildim-da, Somurroga yugurib, to'g'ri uyiga bordim. Uyi bo'm-bo'sh, hech zog' yo'q. Keyin undan-bundan surishtirib boqdim, hech kimdan biror darak topmadim. Ammo bir odam menga aytidi... - dedi-da, tupugini yutub, boshini eggancha jim bo'lib qoldi. Bu gaplarining hammasini Jahon eshitib turgandi. U to'xtalib qolgandan keyin, Jahon bo'yynini cho'zib yana quloq soldi.

- Xo'sh, eshitganingni ochiqroq gapiraver, - Hayzuron unga ishora qildi.

Somon gapini davom ettirdi:

- O'sha kishining aytishicha, hammamizning boshimizga yetgan o'sha katta dushmanimiz o'z odamlaridan bir to'dasini Zirg'om tomonga ham yuboribди. Ular yo'lning tuyulishida biqinib yotib, Zirg'om o'tishi bilan uning ishini to'g'rila shgan emish. - Somon yig'lab yubordi.

Jahon uning gapini eshitib, yig'laganini ko'rgandan keyin yig'isi to'xtaguncha o'zini tutib turdi. Keyin puchakdan sarani ajratadigan kishidek uning betiga tikildi. Go'yo Jahonning ko'zidan olov shu'lesi chiqib, ko'ziga tushayotgandek Somon unga qarolmay, boshimi yerga solib turardi. Odatta munofiq kishilar birovga tik qaray olmaydi. Xususan, mag'zini chaqqan Jahon Somonning yolg'on so'zlayotganini payqadi. Somon "bu xabar Jahonni albatta, esankiratib qo'yadi. O'zini qayerga qo'yishini bilmay qoladi", deb kutgan edi. Lekin aksincha bo'lib chiqdi. Jahon akasi Somonning o'tmishdagi qiliqlarini birma-bir xayolidan o'tkazdi-da, "iflos niyatiga yetish uchun atayin yolg'on gapiryapti", degan qarorga keldi:

- Aka, haqiqatan rost gapiryapsizmi?

- Bo'lmasa, shuncha gapni ichimdan to'qib gapiryapmanmi? Men senga ko'rgan-eshitganlarimni aytib berdim. "Ishqilib, bu yolg'on bo'lsaydi", deb orzu qilaman.

Jahon bir dam boshini yerga egib turdi:

- Mening bu yerdaligimni sizga kim aytdi? Qasrga sizni kim kiritdi?

Singlisining bu savoliga javob topolmay, Somon shoshilib, g'o'ldirab qoldi. Chunki Jahon shu yerdaligini bilishi uning qaroqchilar bilan muqarrar aloqasi borligini ko'rsatib turardi. U hech narsa deyolmay lol qolgandi. Javob axtarishiga ham qo'ymay, Jahon dedi:

- Bas, javobning keragi yo'q. Niyatingizni fahmladim. Shuning o'zi menga kifoya. Endi xurrami do'stlaringiz oldiga boring, ular bu xizmatingiz uchun sizga mukofot berishar, boring, tezroq jo'nang! - Jahon uydan tashqari chiqdi. Chunki u Haylonanikiga borish taraddudida turgan edi. Somon boshini chayqab gapiga Jahon ishongani va uydan haydab chiqarganidan ajablangan bo'lib chiqib ketdi. Hayzuron Jahonni xoli topib: "Menimcha, Somonning gaplariga beparvolik qilmay, Zirg'om haqida aniq bir gap topib keladigan kishini yuborishimiz kerak", - dedi.

- Somonning gapi yolg'onligiga shubham yo'q. O'sha Haylona aytgan ayg'oqchiga Somurroga borib, Zirg'omni xalifa qo'riqchilarining boshlig'i, deb so'rashini iltimos qilsangiz.

Keyin Jahon bilan Hayzuron Haylonani ko'rgani borishdi. Mezbon ikki aziz mehmonni ochiq chehra bilan qabul qildi. Haylona bilan Jahon suhbatlashib o'tirarkan, Hayzuron ayg'oqchiga beriladigan topshirig'ini yaxshilab tushuntirdi.

* * *

Bobakning oqsochi qasrning xojasi bo'lib, aytgani aytgan, degani degan edi. Qasrdagi hamma ayollar va bichilgan[6] xodimlar oqsochning shijoatidan qo'rqishar va topshirig'ini bajarishga bajonidil harakat qilishardi. Chunki u xizmatkorlar bilan Bobak o'tasida vositachi edi. Jahon o'z tabiatidagi xushmuomalalik va ehtiyyotkorlikni o'zgartirmadi. Oqsoch uni qadrlar, hurmatini joyiga keltirardi. Bir necha kundan keyin sevinchidan yuzlari bo'rtgan oqsoch Jahonning oldiga kelib salomlashdi-da, "Sizga xushxabar - kuyov keldilar", dedi.

Oqsochning bu gapidan Jahon cho'chib ketdi, unga javob ham qilmadi. "Kuyov deganimdan uyaldi shekilli", deb o'yladi-da, oqsoch: "Men ulug'imiz Bobakning oldilaridan keldim. U kishi safardan qaytdilar. Sizning kelganingizni bilib, bag'oyat xursand bo'ldilar, "uni menga chaqirib kel", deb buyurdilar", - dedi.

Jahon oshiqmay, hayajonlanmay so'radi:

- Qayerga?

- Qasrlariga, - dedi oqsoch.

- Mana shu biz turgan joy u kishining qasri emasmi?

- Ha, bu yer ham u kishining qasri, lekin o'zları bilan istiqomat qilishi lozim bo'lgan xotinlarni u yerga oldirib borishga odatlanganlar.

Jahon bunga rozi emasligi va qabul qilmasligini ishorat qilib, boshini chayqab, "yo'q" alomatini bildirdi. Boshqa gap qo'shmadi. Sherning changali orasida turib, dangal "yo'q" deya olganidan oqsoch taajjublanib unga qaradi:

- Bu qasr bilan Bobakning qasri orasida usti yopiq bostirma bor. Xotin kishi bunda o'z uyida yurgandek, bemalol yuzi ochiq yuraveradi. Uni hech kim ko'rmaydi. Qani, bo'la qoling, sira qo'rqedigan joyi yo'q.

Jahon qimirlamay o'tiraverdi. Oqsoch bu qizning takabburligidan xafa bo'lib, qattiqroq muomalaga o'tdi:

- Qizginam, sizga yaxshilikcha aytayapman, tura qoling. Bu odam bilan o'ynashib bo'lmaydi, jahli chiqqanda hech kimni ayamaydigan odam. - Oqsoch tovushini pasaytirib, unga yaqinroq keldi va yalingandek qo'lini uning yelkasiga tashladi:

- Men sizga faqat yaxshilikni ravo ko'raman, negaki sizni birinchi ko'rishimdan qayshi ko'rib qolganman, jonimni qoqay, turing, tezroq bo'ling.

Jahon boshini ko'tarib, unga qaradi:

- Yaxshi ko'rganingiz uchun qulluq. Lekin men bu uydan chiqmayman.

Jahonning javobi oqsochning g'azabini qaynatdi, u eshiq tomon burilib chiqib ketdi. Hayzuron bular o'rtasidagi hangomani tik turib tinglayotgandi. Jahonning u ayolga qilgan muomalasi yoqmay, chiqib ketgandan keyin, o'ziga Hayzuron dashnom bermoqchi bo'lganini sezgan Jahon undan oldin gap boshladи:

- Onajon, koyimay qo'ya qoling, men bu ahmoq zolimning qo'lidan keladigan ishdan qo'rqiymayan. Men unga bosh egib, o'z xohishim bilan borarmishmanmi, chuchvarani xom sanabdi. Men sira ham bormayman, osmon qo'lida bo'lsa, tashlab yubora

qolsin. Men yolg'izligimga, bu yerda asira ekanimga qaramay, o'zimga yarasha nufuzim, sultanatim bor deb hisoblayman. Men o'zimni otamning qasrida, qavmu qarindosh, urug'-ayg'omlarim orasida deb bilaman. Qo'yavering, u qo'lidan kelganini qilsin, Farg'ona malagi - Zirg'omning sevgilisi birovga bo'y sunish nima ekanini bilmaydi.

Sovuqdan eti uvushgan Jahon o'rnidan turib, ipakli yo'l-yo'l kamzulini egniga tashlab, boshiga gulli katta ro'molini o'radi. Chunki bu yerkarning iqlimi sovuq iqlim edi. "Yoniga borishni rad qilganimni eshitib Bobak nima qilar kin", deya xayol surib u boshini ko'tarmay, uy ichida u yoq-bu yoqqqa yurdi. Oxirgi nafasi qolguncha o'z nomusini saqlashga, o'zini mudofaa qilishga qat'iy qaror qildi.

Jahon shu xayolda ekan, Hayzuron uning yonida qimirlamay turardi. Shu payt ilgari eshitilmagan qattiq bir yo'tal tovushi eshitildi. Bu Bobakning yo'tali ekanini payqashdi. Uning qasrga kelganini juda kam ko'rgan ayollar shoshib qolib, u yoq-bu yoqqa yugurishar, hamma yoq g'ovur-g'uvur bo'lib ketgandi. Jahon oqsochning Bobakka allanimalar gapirayotganini eshitib, peshayvonga qarab turgan derazadan mo'raladi. Bobak jadal bilan kelayapti. Ikki tomonda unga ta'zim qilayotgan xodimlar va boshini egib hurmat bilan salom berayotgan ayollar. Ko'pchiligi otashparast bo'lgan, ularning hammasi butga topingandek Bobakka topinar, u esa kibr bilan kelardi.

Jahonning ko'zi Bobakka tushishi bilan jahdan qaltirab ketdi. U otasining qasrida ekan paytlarda kishilarning ta'zim qilish hangomasini ko'p ko'rgan, ko'zi pishib qolgan edi. Shuning uchun undan ajablanmadidi. Lekin o'zi ular qatori Bobakka ta'zim qilishni istamadi. Avval baland martabada bo'lib, keyin bir oz pasaygan kishi o'z obro'sini qo'lidan bermaslikka uringanidek, Jahon ham unga bo'y bermay turaverdi.

Bobak yag'rindor, xum kalla, barkash yuz, ko'zlaricha qachaygan, lablari qalin, ko'kragi ko'tarilgan bir odam edi. Yurgan paytida yerga "minnatdor bo'lsang bosaman", degandek viqor bilan qadam tashlardi. U turganda ham, o'tirganda ham bir xilda mutakabbir edi. Mabodo biror narsasi yerga tuhsa, engashib uni olishga a'zolari bo'y bermaydi. Hamma vaqt va hamma yerda uning nomini ulug'laydigan, soyasiga ko'rpacha soladigan, nima desa, buyrug'ini jon fido qilib bajaradigan laganbardorlari ko'p. Xurramiyalar boshlig'i va urush sarkardasi bo'l mish Bobakday bir odamning shunday bo'lishi ajablanarli emasdi. Buning ustiga Bobak shijoatli, qattiqqo'l, paytlari baquvvat, o'z kuch-qudrati bilan g'ururlanuvchi kishi edi. Agar u ayshu ishratga qattiq berilmasa, nafs balosiga girifor bo'limasa, ulug' kishilar - yo'l boshchilar safidan joy olgan bo'lardi. Lekin u sharobga ruju qilib, xususan tinchlik vaqtlarida ko'p ichadigan bo'lib ketgan. Shu kuni u o'z qasrida ichkilik bazmi qurib, Jahonni olib kelishga kishi yuborgan, uni kutib sharobxo'rlik qilib o'tirgandi. Oqsoch: "Jahon kelishdan bosh tortdi", deb xabar bergan vaqtida, sharobdan boshi aylanib, garang bo'lib turgandi. "Ha-ha, hali gap shunaqami, men unga bosh tortish nimaligini ko'rsatib qo'yaman", - deb jahl bilan Jahonning oldiga kelayotgandi. U Jahonning xonasiga yaqinlashganda, oqsoch ilgariroq yurib eshikni ochdi-da: "Mana, Jahon shu yerda", - deb orqasiga qaytdi va Hayzuronni tashqariga chaqirib, nariroqqa olib ketdi.

Tik turgan Jahon Bobak kirkach, o'tirib oldi. Bunday mensimaslikni Bobak o'zi uchun tahqir deb hisobladi, lekin qizning ajoyib jamolini va ko'zidagi sehrli boqishni ko'rarkan, o'zini yo'qotib qo'ydi. U fors, gruzin, cherkas va rum go'zallaridan ko'pini ko'rgan bo'lishiga qaramay, bu qadar sehrli malakka ko'zi tushmaganini sezdi-da, jahdan bir parda tushdi, lekin "o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas" deganlaridek, hamisha odamlarda itoat va ta'zim ko'rgan bu hukmdor takabburlikni qo'ygisi kelmay: "Meni ko'rib, o'rningdan turish o'rniga, o'tirib oldingmi?" - dedi.

Jahon esa irodasi mustahkam bo'lishiga qaramay Bobakning haybatini ko'rib, suvdan chiqqan qushdek bir seskanib tushdi. Keyin sochini tuzatgan bo'lib, boshini ko'tardi-da, unga tikilib qaradi. U qizning ko'zlariga qaragan Bobakning ko'kragini bir o'q teshib o'tdi-yu, vujudidagi bor jahli g'oyib bo'lib ketgandek tuyuldi. Jahon:

- Qalbim sizni bo'l maganidan keyin turganimdan sizga nima foyda? - dedi.

Jahonning javobidan ro'shnolik kutgan Bobak uning yonidagi ko'rpachaga o'tirdi:

- O'sha qalb menga nasib bo'larmikan, degan umiddaman. Unga mendan ko'ra mustahiqroq kishi bo'limasa kerak, deb o'ylayman. Musulmon askarlarining ashaddiy dushmani, Xurramiya toifasining boshlig'i, buyuk davlatmand va bahodir Bobakning kimligini bilasan, albatta. Seni men majburan oldirib kelganim yaxshi bo'lmasdi, lekin yaxshilik yo'li bilan uddasidan chiqqa olmaganim uchun shunday qildim. Xo'sh, endi men to'g'rimda fikring qanday?

Uning yalinayotganini va o'zini yaqin tutmoqchi bo'layotganini ko'rgan Jahon: "Sizni bahodir, dovyurak va qattiqqo'l kishi, shu bilan birga asir deb bilaman", - dedi.

Bobak hayajonlanib ketdi:

- Asir? U nima deganligi?!

- Ha, xuddi shunday. Siz asirsiz, maishat, shahvoniy his asirisiz. Qattiqqo'l ulug' podshoh uchun bunday asirlik yarashmaydi... Og'zingizdan sharob hidi anqiydi.

- Sen nodon qiz, o'zini musulmon bilib, ichkilikni o'ziga harom qiladigan yahudiylarga o'xshaysan. Jahonda sharobdan maza narsa borni? U hamma lazzatlarning onasi, u kishini baquvvat qiladi, qonni jo'shtiradi, nafsni zo'raytiradi.

- Taajjub, o'zingiz zo'r saltanat egasi, musulmonlarning ashaddiy dushmani bo'la turib, bu shahvoniy narsalarni dunyoning ziynati deb hisoblaysiz? Bahodir degan ulug'vor, hurmatli, so'zi o'tadigan, olisdagilar haybatli, yaqinlarga iltifotli bo'lishi kerak.

Bobak uning gapini bo'ldi:

- Men shunday emasmanmi?

- Shunday emas ekansiz. Uzoqdagilar ba'zan sizdan qo'rqu, lekin yaqinlar sizni sevmas ekan. Tevarak-atrofingizdag'i odamlar laganbardorlik qilib, nomingizni ko'tar-ko'tar qiladi: ko'zdan g'oyib bo'lishingiz bilan sizni yomonlashga tushadi. Chunki siz ularni qoyil qoldiradigan ish qilmagansiz.

Bobak o'zi mag'lubiyatga uchraydigan masala ustida qiz bilan janjallahishini ep ko'rmadi. Ikkinci tomondan, u qizga ortiqcha yalinishni ham xohlamaadi. Jahonning nasihatgo'y yoki rahnamo sifatida muomala qilayotgani unga og'ir tuyuldi:

- Hozir bu mashmashani bir yoqqa qo'yib turaylik. Qani tur, ketdik, - deb o'rnidan turdi va Jahonni qo'lidan ushlab turg'izish uchun unga qo'lini uzatdi. Jahon qo'lini bermadi, o'tirgan joyidan qimirlamadi.

Bobak yana qo'lini uzatdi. Jahon o'rnidan turdi-da, qo'lini orqasiga qilib:

- Bobak, haddingizdan oshmang, bu ishlaringiz bilan boshqalardan eshitishni istamagan bir gapga munosib ekaningizni o'zingiz quvvatlagan bo'lasiz. Menden nariroq turing!

Bobak yalinishga o'tdi:

- Bo'lmasa, senga mendan bo'lak kim yaqin kela oladi? Axir, sen mening qaylig'imsan. Baxtga erishgin, deb seni turk mamlakatining eng olis yeridan ne mashaqqatlar bilan oldirib keldim. Endi meni baxsiz qilma!

- Qidirgani qiz-juvon bo'lib, buning o'zi nufuzli hukmdor bo'lgan kishi hech qachon baxsiz bo'lmaydi. Chunki uning istagan narsasiga qo'li yetadi. Mol bilan bo'lmasa, qilich bilan muddaosini amalga oshiradi. Qasringizda yuzlab go'zal ayollar bo'lsa-yu, bitta men bo'yusunmaganim uchun o'zingizni baxsiz hisoblasangiz! Siz meni bu yerda yo'q deb hisoblayvering, o'z holimga qo'ying.

- O'z baxtimni senda bilmaganimda yoki sensiz yashashim mumkin bo'lganida, seni keltirish uchun bunchalik ovora bo'lman, ne-ne tadbirlarni ko'rmagan bo'lardim. Do'stim Somon bo'Imaganda, bu baxt menga tuyassar bo'lmasdi.

Shu payt Jahan o'zini ikki qo'llab Bobakka topshirgan kishi akasi Somon ekanini aniqlab oldi. Hozir u kimdan va qanday qilib o'ch olishni bilmash edi. U Somon haqidagi gapni eshitmaganday bo'lib so'radi:

- Meni qasringizdagagi ayollar qatoriga qo'shmaq uchun shuncha aziyat chekdingizmi?
- Seni ulardan ortiq izzat-hurmat qilib, ajoyib gavharlar tortiq qilaman. Kiyimning eng yaxshisini kiydiraman, butun muhabbatimni senga bag'ishlayman. O'zingni bu shaharning xojasi qilib qo'yaman, nima desang, aytganiningni muhayyo qilaman.
- Shunaqa deng, menga gavharlar taqasizmi? Gavharlar quruq yaltiroq tosh, xolos. Ular kishining odamiyligini oshira olmaydi. Mana bu sandig'im gavharlar bilan liq to'la. Farg'onada qasrim, yer-suvarim, hamma-hammasi bor. U yerda men bir malika edim, lekin o'sha davlat, mol-mulk, yer-suvni boshimga bitgan bir balo deb, voz kechdim.

Bobak uning gapini bo'ldi:

- Eshituvimga qaraganda, otang - Hokim Ushrusana amiri Afshinni senga vasiy qilib ketgan emish. Xayr, bu gaplarni qo'yib turaylik, yaxshisi, yur, birga tanovul qilaylik. - U Jahonning yoniga yaqin bordi. Jahan g'azablanib, ketiga tislandi. Bobak ko'zini ola-kula qilib unga qaradi-da:

- O'z xohishing bilan bormasang, majburan oldirib ketaman. Men aytganimni qilmay qo'ymaydigan kishi ekanimni bilasan. Seni men Farg'onadan Armanistonga olib keltirsamu, orasi yuz qadam kelmaydigan bir qasrdan ikkinchi qasrga olib o'tishni men uchun qiyin deb o'laysanmi?

- Ko'z o'ngingizda turganim uchun meni Farg'onadalik vaqtidan ko'ra yaqinroq keldi deb hisoblayapsiz shekilli? Yo'q, yaxshi bilib qo'yingki, men sizdan hamon Farg'onada yoki undan ham olisroqda turgandek uzoqman.

- Ikki panjam orasida turib, shu gapni aytapsanmi?- g'azabi qo'z'adi Bobakning. - Istanasam, seni temir changalimga olaman, istasam, odamlarimga buyurib, bog'latib olib ketaman. Mayli, hali ham bo'lsa yaxshilab o'ylab ko'r.

Jahon ham bo'sh kelmay, o'zini undan yuqori tutishga harakat qilardi. Nihoyat unga mag'rur bir nazar tashladi:

- Bo'yimdan bo'g'ib olarsiz. Balki kishilaringizni chaqirib, meni bog'latarsiz yoki o'ldirtirarsizu, lekin iflos niyatingizni amalga oshirish, biron yerimga tegish qo'lingizdan kelmaydi. Istanasiz o'ldiring, o'ldirishga yuragingiz dov bermasa, o'zimni o'zim o'ldiramanu, tahqir va tahdidingizdan qutulaman. Sizdan ustunroq, sizdan dovyurakroq va kuchliroq bir qiz bilan gaplashayotganiningizni unutmang. Meni qasringizdagagi ko'chadan topilgan, asir qilingan yoki sotib olingen cho'ri ayollarga tenglashtirayotgan bo'lsangiz, yanglishasiz. Siz Farg'ona hokimining qizi bilan gaplashyapsiz. Falakning gardishi bilan uning poyqadami sizning tomoningizga yetib qolibdi. Uni o'zingizga do'st qilib olingu, bas, boshqa xayolga o'tmang, yoki bu yerdan tuyog'ingizni shiqillatib qoling-da, meni ham, o'zingizni ham tinch qo'ying.

Jahon bu gaplarni ulug' saltanat egasidan sira top tortmay gapirardi. Bobak esa uning oldida o'zini yengilayotgandek his qilardi.

Jahon har bir nazar tashlaganida, uning yomon niyatlaridan biri qulab tushayotgandek bo'laverdi. U Jahonga qarab:

- Xo'sh, nima demoqchisan? - dedi.

- Meni o'z holimga qo'ying, demoqchiman.

- Xo'p, senga bir necha kun muhlat beraman, tanangga yaxshilab o'ylab ko'r! Menga itoat etsang, baxt topishingni bilib qolarsan, - dedi-da, teskarri qarab, rangi o'chgancha uydan chiqib ketdi. Bobakning oqsochi Hayzuron ularning ba'zi gaplarini eshitib, Jahonning dovyurakligi va Bobakning sira pisand qilmayotganidan ajablanib turishgan edi. Jahonga teskarri bo'lib qolgan oqsoch shundan keyin uning tomoniga o'tdi. Shu vaqtidan boshlab yuzaki emas, balki astoydil xushmuomala bo'lib qoldi.

Jahonning Bobakka aytgan gaplari uni qo'rkitish uchun emasdi, balki u yomon niyatidan qaytmagan taqdirda, o'zini mudofaa qilishning, bunda ham iloji bo'lmasa, o'zini o'zi o'ldirishning chorasini ham ko'rib qo'yandi. U Iroqqa ketgan ayg'oqchingiz Zirg'om to'g'risida olib keladigan xabarini kutish uchun Bobakdan bir necha kunlik muhlatni undirib olishga ataylab harakat qildi, xabar kelgandan keyin, o'shangar qarab ish ko'romoqchi bo'ldi.

Shu kuniyoq Jahon voqeasi butun qasrdagilarga yoyildi. Hamma xotinlar unga hayron qolishdi. Ular bunga yosh bola kattaning yoki nodon odam aqlli kishining ishiga ajablanib qaragandek qarashdi. Haylona Bobakning qasrdan chiqib ketganini bilib, Jahonning oldiga yugurib keldida, bo'lgan voqeani surishtira boshladi. Jahon kamtarlik bilan izoh berib, Bobak oldida ko'rsatgan jasoratini xaspo'shladi. Jahonning bu ishi Haylona oldida uning obro'sini yana bir necha pog'ona ko'tardi.

Shunday qilib, Jahonning bu ishi butun bazzliklar og'ziga tushdi. Ularga zarbulmasaldek bo'lib qoldi. Jahon esa bu gaplarga e'tibor bermasdi, fikr-xayoli faqat Zirg'omda, qanday qilib bo'lmasin, unga o'z boshiga tushgan falokatlarni ma'lum qilishda edi. Xoin Somonni qaytib uchratmadidi.

Iroqqa ketgan ayg'oqchingiz qaytishini Jahon bir necha kun sabrsizlik bilan kutdi. Jahon Haylona bilan sirdosh bo'lib, boshidan o'tgan qiyinchiliklarni unga aytib bergandi. Haylona Jahonga hamandard bo'lib, uning to'g'risida qayg'uradigan bo'lib qoldi.

Ayg'oqchingiz qaytib kelishini u ham Jahon kabi intazorlik bilan kutardi. Agy'oqchi qaytib keldi. Xuddi shu kuni Jahon Haylonaning uyida bo'lib, xodima uning xizmatida edi. Hayzuron esa qayergadir ketgan. Aftidan, Jahon xodimaning chehrasida bir o'zgarish ko'rdi shekilli, Haylonaga qarab: "Xodimangizdan so'rang, jazmani nima gap topib keldi ekan?" - dedi. Bu tasodifdan hayron bo'lgan Haylona: "Ayg'oqchini keldi, deb o'laysapsizmi?" dedi.

- Ha, kelganu, lekin sevinchli xabar topib kelmaganga o'xshaydi.

Jahonning bu karomatidan taajjublanib, Haylona xodimanini imlab chaqirdi-da, "Do'stimiz Somurrodan qaytdimi? Qachon keldi?" - deb so'radi.

- Ha, keldi, ikki soat chamasi bo'ldi.

- Nega shu mahalgacha bizga aytmadining?

Bularning gapiga quloq solib turgan Jahon hayajonlandi, sabri tugab, xodimadan: "U senga nimalar dedi?" - deb so'radi.

- Somurrodan surishtirib daragini bilib kelsin, degan kishingizni u surishtiribdi-yu, ammo hech darak topmabdi.

- Uning o'zini ko'rib, so'rasak bo'larmikin?

- Bilmadim, - dedi xodima. - Oqsoch ruxsat berarmikin?

- Farg'ona malagi istagan narsaga ulbatta ruxsat beradi. Chunki Jahon oqsochni sehrlab, ko'nglini o'ziga rom qilib oldi. Jahon jazmanimni ko'rib, undan bir narsani so'ramoqchi ekan, deb oqsochga borib aytgil,- dedi Haylona.

Xodima borib jazmanini birga olib keldi.

- Ko'rgan-bilganlaringni aytib ber, - deb Jahon Somurroga borib kelgan ayg'oqchidan so'radi.

- Zirg'om to'g'risida surishtirdim, lekin uni hech kim bilmadi, - javob berdi ayg'oqchi.

- Xalifa saroyidan surishtirmadingmi?

- U yerdan ham surishtirdim, hech daragini topmadim.

- Uni soqchilar boshlig'i deb so'raganingda, balki topgan bo'larding.

- So'radim, odamlar soqchilar boshlig'ining oti Sohib deyishdi.

Jahon o'zini tutolmay qoldi.

- Aytayotgan gaping rostligiga ishonching komilmi?

- Kishilar, soqchilar boshlig'iga zo'r e'tibor berayotganlari uchun men uni diqqat bilan tekshirdim. Eshituvimga ko'ra, u shijoatl, botir kishi emish. Xalifa uni juda e'ozzlarmish, qasridagi qizlardan bir go'zaliga uylantirib, qimmatbaho tuhfalar bergan emish. Uning bu gaplaridan rost so'zlayotgani Jahonga aniq bo'ldi. Uning uylaniganligi to'g'risidagi gapi bo'limganda, Jahonning xayoliga Sohib deyayotgani Zirg'omning xuddi o'zidir, degan fikr kelishi ham mumkin edi. Lekin Zirg'om buni tashlab, boshqaga uylanishiga Jahonning aqli sira-sira bovar qilmasdi. Akasining: "Afshin Zirg'omni o'ldirtyrgan", degan gapi Jahonga rostdek tuyuldi-da, o'ch olishga ko'proq intildi. Umidsizlik uning boshini aylantirib, qayerda turganini ham unutib qo'ydi. Shu payt Hayzuronning chaqirayotganini eshitib, uyalib ketdi. Ko'ngli tan-holikka mayl qilib, uyiga qarab yugurdi. U Hayzuron chaqirganini ham unutdi. Haylonaning yonidan chiqqa turib, Hayzuronga duch keldi.

- Sayidam, qayerga oshiqyapsan? - dedi Hayzuron.

- Siz meni chaqirgan edingiz, oz bo'lmasa unutayozibman. Nima demoqchi edingiz?

- Qasr bog'ida aylanib yuruvdim, Bobak o'z qasridan chiqdi. Men uni qo'rg'on tomon borar desam, bu qasrga kirdi-da oqsochiga: "Hozir Jahonni ko'rmoqchiman", - dedi. Oqsoch bu gapni darrov senga yetkazishimni topshirdi.

- Rostdanmi? Bobak meni ko'rmoqchi bo'libdimi? - hayajonlanib so'radi Jalon.

- Ha, o'z uyingda ko'rmoqchi bo'libdi.

- Tag'in kelib-kelib, mening uyimda ko'rishmoqchimishmi? Endi nima qilaman? Ey yaxshilik xudosi, o'zing madad qil! Qutulish mushkul bo'ladijan bir tuzoqqa ilinganga o'xshayman, - dedi-da, u Hayzuronga qarab so'radi: - Iroqdan qaytib kelgan ayg'oqchining gapini eshitdingizmi?

- Ha, sayidam, eshitdim.

- U haqda qanday fikrdasiz?

- Uning gapidan Zirg'om Somurroda emasga o'xshaydi.

- Uning Somurroda emasligi meni tashvishlantirayotgani yo'q. Akam Somonning aytgan gapi rost chiqib qolmasa, deb qo'rquyapman, eshitmaganmidingiz axir?

- Eshitganmanu, lekin rostmi, yolg'onmi kim biladi?

Hayzuron bilan Jalon shu tariqa asta-sekin so'zlashib kelib, uyg'a yaqinlashishdi. Jalon birdan ketiga tislani: "Endi hozir Bobakka ro'para bo'lismish kerak. Unga nima deyman-a? Ehtimol, undan bir yangilik xabar eshitarman", - dedi.

Shu paytda uydan "Jalon, Jalon", deb Bobakning chaqirayotgan ovozini eshitgan Jalon oyoqlari bir-biriga chalishib ketayotganiga qaramay, o'zin dadil tutib, eshikdan ichkariga mo'raladi. Uyda o'tirgan Bobak o'rnidan turib, ochiq chehra va tabassum bilan uni qarshi oldi. Uning jilmayishini, xususan, o'rnidan turib qarshi olayotganini va "Farg'ona malagi meni nazariga ilmay, kelganimda loaqal o'rnidan turmagan bo'lsa ham, men uning hurmati uchun turyapman", deganini eshitganidan keyin Jahonning ko'ngli ozgina taskin topdi:

- Jalon sizni emas, balki yomon fe'llaringizni koyigan edi.

Bobak o'tirdi va Jahonni ham o'tirishga taklif etdi-da, "Agar Bobak o'sha yomon fe'llarini uloqtirib tashlasa, uni sevarmiding?" - dedi.

Bobak bu gaplarni astoydil aytayotgani Jahonga ayon bo'lga bo'lsa ham, unga shubha bilan qaradi:

- Jahalingizni chiqqargan qizni bir masxara qilib, undan o'ch olmoqchi bo'libsiz-da. Men o'zimni xavfu xatarda qoldirib bo'lsa ham sizga xayrixohlik qilib gapirgan edim.

- Yo'q, Jalon, men seni masxara qilayotganim yo'q. Sen aytgan gaplarni yaxshilab o'ylab ko'rdim. Bu yerdan chiqib ketgach, butun vaqtimni gaplaring mag'zini chaqish bilan o'tkazdim. Aytganlaring asta-sekin menga ta'sir qila boshladи. Qaysi nasihatingni ko'z o'ngimga keltirsam, o'zimdan o'zim xijolat bo'lib, o'tmishdagi qilmishlarim uchun nadomat chekdir. Haqiqatan men kayf-safoga, xotinlarni ko'paytirishga mukkadan ketgandim, chunki xotinlardan birortasi tugal yoqmagan, ko'nglimga o'tirmagan edi. Sen qanday qilib shu vijdon-shuurimni o'zgartirganining sezmay qoldim... Menda ilgari hech bo'limgan bir o'zgarish paydo bo'ldi. Sen yaxshilik xudosi menga yuborgan muqaddas ruhga o'xshaysan. - Bobak zo'r ehtirom bilan gapirardi. - Endi meni qiziqtiradigan narsa, "sizni sevaman", deb aytishinggina qoldi, xolos. - Shunday dedi-yu, chakkasidan chak-chak ter oqdi.

Undagi bu o'zgarishdan Jalon taajjublandi. Astoydil gapirayotganini ko'zidan payqagani uchun uning makkorligidan qo'rquyap qo'ya qoldi. Bu badmuomala odamning shunday shirinsuxanlik bilan muomala qilayotganini taqdirlab: "Bu gaplarni chindan aytapsizmi?" - dedi.

- Albatta, mening birovni andisha qilib gapirmasligimni o'zing tushunasan. Men nasihatingga amal qilib, sharob ichmaydigan bo'ldim. Sen tufayli boshqa xotinlardan ham voz kechmoqchiman. Jalon, gaplaring rost, baxtli hayot ikki tomonlama muhabbatda ekan. Mana, men seni sevaman, sen ham meni sevasanmi? Endi "yo'q" deyishga senda hech bir asos yo'q.

Jalon boshini yerga egib, Zirg'omni yo'qotgani va uning taqdiri haqida xayol surib qoldi.

Yoqimsiz Bobak ko'ngil berishni so'rayotganini, xizmatiga bel bog'lab, sharobdan, xotinlardan aloqasini uzishga ahd-paymon qilayotganini ko'rib, "uning gaplariga rozi bo'lsammikan" dedi Jalon o'ziga-o'zi. Lekin xayolidan sevgilisi o'tdi. U adashgan bo'lib, keyin topilib qolsa nima bo'ladi. "Qaysi yuzim bilan unga qaray olaman", - deb ancha xayol surib qoldi. Bobak esa uning og'zini poylab turardi. Hadeb Jahondan javob chiqmagandan keyin: "Sen Afshinni o'ylayapsan shekilli?" - dedi.

Afshin nomini Bobak tilga olgach, u haqda biror narsa bilsa kerak, deb o'ylagan Jalon: "Afshin haqida xayol surayotganimni siz qayerdan bildingiz, uning menga qanday aloqasi bor?" - dedi.

- Axir u senga vasiy emasmi?

- Vasiy bo'lsa nima bo'pti?

- Sen yashirsang ham, eshitgan narsamni men sendan yashirmayman. Otang Afshinni senga vasiy qilib tayinlagandan keyin, u seni

xotinlikka olmoqchi bo'lganda, qabul qilmagan ekansan, shunday emasmi?

Jahon uyalib, qizardi. Ko'zida g'azab uchqunlari chaqnadi. Boshini yerga solib, javob qaytarmay turdi. Bobak:

- Ushrusana podshohi Afshinni, qolaversa Armaniston hokimi Bobakni o'z iffati va fazl-kamolotini saqlab qolish maqsadida qabul qilmagan bir qizga sadqa bo'lsang arziydi, - deb kesatdi-da: - Afshin sendan qonli o'ch olgan deb eshitdim. Qarab tursin, o'ch olish qanday bo'lismeni men ko'rsatib qo'yaman unga.

Afshindan o'ch olish niyati borligini aytgandan keyin Jahon uni qabul qilishga chog'landi. Lekin ko'nglida hamon Zirg'omni ko'rish maqsadi turardi:

- Gapingizdan men tufayli Afshindan o'ch olish niyatida ekaningizni sezyapman. Shuning uchun ijozat bersangiz, bir narsani eslatib qo'ysam: siz meni o'zingizga o'xshash fors millatidan ekanimni, arablarga munosabatda forslar ham dushmanlik niyatidaligini va bu narsa katta yer egasi, hokim otamga ham qanchalik ravshanligini bilasiz. Shuning uchun siz, Afshin va Tabariston shohi Moziyor musulmonlar davlatini qulatishga til biriktirishgansizlr. Shunday emasmi? Rostini aytin, janob.

- To'g'ri aftyapsan, haqiqatda shunday.

Jahon yana so'radi:

- Musulmon askarlari bilan birga Afshin sizga qarshi urushmoqchi ekanining ma'nisi nima?

- Afshin: "Men sizlarga yordam beraman", deb musulmonlarning molini yig'ib, o'z mamlakatiga jo'natib olmoqchi. Molni olib bo'lgandan keyin hammamiz birlashamiz-da, ularning davlatini ag'daramiz.

Jahon unga shubha aralash bir nazar tashladi-da, dedi:

- O'zingiz shu askarlarning sardori, Xurramiya toifasining boshlig'i, kishilarning yerga bosh qo'yib sajda qilishgacha hurmatini qozongan bir kishi bo'la turib, nega bu nayrang tuzog'iga ilinib qoldingiz?

- Sen buni nega nayrang deb hisoblayapsan? Afshin menga avvaldan tanish odam. Biz bu ish to'g'risida u bilan kelishib qo'yanmiz: va'dadan qaytmaslikka qasamyod qilganimizga bir necha yil bo'ladi. Tabariston shohi ham biz bilan birga. Har yili shu va'damizni yangilab turamiz. Bizni aldashdan unga nima foyda bor?

Jahon Bobakning ko'zlariga tikilib turib, dedi:

- Afshin mol-dunyo topmoq uchun sizni aldaydi, chunki siz musulmonlarga qarshi muhorabaga otlanmasangiz, unga rizq eshigi yopilib qoladi. Ammo Tabariston shohi Moziyoring niyati tuzukroq bo'lsa, ajab emas. Lekin sizning ishingiz uni qizitirmaydi. Mening talabimni qabul qil, desangiz, askarlaringiz bilan birga aldanib, muhorabaga kirishingizni istamayman. Chunki unda g'olib chiqsangiz, Afshin sizdan sheriklik haqini talab qiladi. Mabodo, mag'lub bo'lib qolsangiz, mag'lubiyatingizdan foydalanib qoladi. Uyqudan uyg'ongandek Bobakning ko'zi ochildi. Jahon uning ko'zlaridan pardani olib tashlagandek bo'ldi. Jahonning o'zidan ustun ekanini sezdi-da:

- Rahmat senga, juda ma'qul fikrni aytding, haqiqatda Afshin makkor ekan, - dedi.

- Sizdek bir zotning hamma ishni o'z qoliga olishi, boshqalarga o'mak bo'lishi, taqsimga qo'shiladigan va o'ja talashadigan sherigini bo'lmasligi kerak. Shu fikrimga qo'shiladigan bo'lsangiz, yarashish quvonchida ham, jang tashvishida ham sizni qo'llab-quvvatlayman. Nikohimiz masalasi esa urushdan xotirjam bo'lingandan keyin hal bo'lismeni oldingizga shart qilib qo'yaman. Ana shundagina men: "Forslar ichidan eng ulug' kishi menga nasib bo'ldi", - deb maqtansam arziydigan bo'ladi.

Bobak zavqlanib ketdi:

- Lekin, qani, ayt-chi? Hozirdan boshlab meni sevasanmi? - Jahon g'olibona tabassum bilan:

- Muhabbat sizni qachondan qiziqtiradi? - dedi.

- Muhabbatimga arziydigan ayolni topsam, uning sevgisiga loyiq bo'lismeni istayman. Meni sevasanmi, yo'qmi?

Jahon o'zini ozgina tutib turdi-da: "Ha... yo'q..." dedi gapini tugatishga ham tili bormay. - Bu urushdan qutulguningizcha singil o'z akasini sevganidek sevib turaman.

- Bo'ldi, Jahon shu gaping menga yetarli, - dedi Bobak xursand bo'lib.

- Lekin, - dedi Jahon, - odamlar meni shu ismim bilan tanimasligi kerak. Chunki kim bilsin, balki men askarlar ichida yo'l-yo'riq ko'rsatib, so'zlab qolarman-da, nomim chiqib ketar. U vaqtida Afshinmi, boshqasimi, meni tanib qolishi mumkin. Boshqalarga o'zimni tanitishni istamayman. Hozirdan boshlab mening ismim "Gulnor" bo'lsin,- dedi.

Bobak rozilik bildirib:

- Xo'p, mayli, kelishidik. Gulnor bo'la qolsin, - de-di-yu, shu payt buzuq maishatparast kishilar anjumanidan qutulib, muhabbatli, yaxshi odamlar suhbatiga tuyassar bo'lgandek bo'ldi. Bunday yaxshi o'zgarish faqatgina chin muhabbat tufayli sodir bo'ladi, xolos. Bobak "lazzat ayshu ishratda", deb bilib, faqat jismoniy shahvatga mukkasidan ketgandi. Butun ko'nglini o'ziga maftun qilgan, ko'ziga olovdek ko'ringan birorta ayol bilan o'zi orasidagi chin muhabbat lazzatini totib ko'rmasgandi. Shuning uchun ahvoli o'zgarib, qalbida bir rohat his qildi. Jahonga bosh egib, uning maslahatisiz biror ishga qadam qo'yaydigan bo'lib qoldi. Jahonni ilgari tanimagan bazzliklar orasida uning nomi Gulnor bo'lib ketdi.

Bobak ketish uchun qo'zg'alarkan:

- Gulnor, bugun baxt-saodatimning boshlangan kuni. Hech qachon o'zimni hozirgidek baxtli sezgan emasman, - deb o'rnidan turdi-da, gapini davom ettirib: - Mening bir iltimosim bor, unga qarshilik ko'rsatmassan deb o'layman, suhbatdoshlarim ichkilik bazmiga odatlangan, oralarida sharob ichishga qattiq berilganlari bor. Ularga hozirgacha to'g'ri yo'l ko'rsatadigan kishi bo'limgan. Bu odatlarini birdan yo'q qilishga o'tsam, mendan xafa bo'lib qolishadi. Hozirgi urush paytida ularga juda muhtojman. Shuning uchun ularni o'zimdan bezdirmay, suhbatlarini davom ettirib, birga ichishayotgandek bo'lib yursam, keyinroq biror maslahat chiqib qolar.

- Mayli, o'rgangan odatlarini asta-sekin tashlatishingiz sharti bilan, - dedi Jahon.

Bobak Jahonga "shartning qabul qildim", degandek ishorat qildi va shu bilan Jahonning uning ustidan qozongan g'alabasi nihoyasiga yetdi. Chunki manmanlik va qo'pol muomalalikda nom chiqargan bir kishi ipakday muloyim bo'ldi qoldi.

Mana bu, er kishilarni yomon yo'ldan qaytarish uslubini yaxshi bilgan aqli ayol tadbirining kuchidan dalolat beradi. Ayollar bu kuchga avval o'ziga muhabbat uyg'otish yo'li bilan erishadi. Ular erkakning qalbiga ega bo'ldimi bilingki, jiloviga ham ega bo'ladi. Ammo dakki berish bilan uni tuzatmoqchi bo'lsa, yomonlikka battaroq yopishadigan qilib qo'yadi.

Bobakning o'zgargani va shartini qabul qilgani uchun Jahonning sevinchi ichiga sig'masdi! Chunki bunda o'z sevgilisining qismatini bilguncha va Afshindan o'ch olinguncha, Jahonga o'zini saqlab turish imkonini tug'ilgan edi. Shu payt akasi Somonni eslab, Jahon Bobakni to'xtatdi:

- Mening ham sizdan bitta talabim bor. Shuni amalga oshirib bersangiz.

- Nima istasang, bajarishga tayyorman.
 - Akam Somonning menga qilgan xiyonatini yaxshi bilasiz. Undan men o'ch olmoqchi emasman. Lekin uni bu shahardan chetlatsangiz, chunki bu yerda turishi askarlar uchun xavfli. Uni o'ldiring yoki qamang demayman. Vasvasasidan qutulishimiz uchun chetlatsangiz kifoya.
 - Uning xoinligidan foydalangan bo'lsam ham, shahardan chetlatmoqchi bo'lib turgandim. To'g'ri, u bo'limganda men Farg'ona malagiga erisha olmagan bo'lardim. Lekin u singlisiga sotqinlik qilganidek, bir kun menga ham xoinlik qilishi mumkin. Yaqin orada uni bu mamlakatdan badarg'a qilaman. Mening qasrimda istiqomat qilishni istamaysanmi?
 - Yo'q, meni shu qasrdan qo'zg'atmang. Bu yerdagi odamlarga o'rganib qoldim. Agar biror maslahat yoki tadbir ustida kerak bo'lib qolsam, va'dalashib, uchrashaylik.
- Bobak tabassum bilan oshiqi beqarordek Jahonga tikilib turib, so'zlarini qabul qildi. Jahon ochiq chehra bilan o'rnidan turdi. Bobak u bilan xayrlesharkan: "Hozirdan boshlab bir-birimizning gapimizdan chiqmaydigan bo'ldik. Meni sevasanmi?" - dedi.
- Biz siz bilan aka-singilmiz. Siz menga akasiz. Singil o'z akasini sevgandek sizni sevaman. Sizga singil o'z og'asiga boqqandek boqaman. Sizning osoyish va rohattingiz yo'lida o'zimni ayamasligimni tez fursatda ko'rasisiz.

Zirg'om Umidsizlikka Tushishi

Zirg'om Jahondan darak topib kelish uchun kunchiqar tomondagi joylarga yashirin ravishda kishilar yubordi. Bir necha kishi Farg'onaga ham ketgan edi. Anchadan keyin ular Jalon to'g'risida biror tayin gap topmay qaytib kelishdi. Zirg'omning ko'ziga yorug' dunyo qorong'i bo'lib, Jahondan umid rishtasi uzilay deb qoldi. Uning yo'qolishiga kim sababligini o'ylab-o'ylab, Afshindan gumon qiladi. Somonni, uning ikki yuzlamaligini, makkor va bevafoligini eslab, undan ham shubhalana boshhladi. Zirg'om Mu'tasim bilan ov, sayohat va namoz vaqtidagina birga bo'lardi. Boshqa vaqtini u uyida tanho o'tkazar edi. Ba'zida u kamolot va husnda Jalonni eslatadigan Yoquta bilan suhbatlashib, o'zini bir oz ovutar edi. U Yoqutaga qaragan vaqtida do'sti Hammadni eslab: "Shu ikkalasini bir-biriga qovushtirishga muvaffaq bo'lsam, meni ham sevgilim bilan uchrashadiragan kishi chiqib qolarmikin?" - deb chin ko'nglidan orzu qilardi.

Zirg'om ko'p kutdi, Jahondan darak bo'lindi. Uning barhayot ekanidan umidi uzildi. Endi unga olam qorong'u. Bu dunyoda yashashdan nima foyda. U urushga borib, biror falokatga uchrash yoki yarador bo'lish yo'li bilan o'zini ovutmoqchi bo'ldi. Bu dunyodan ko'z yumsa-yu, muhabbat va hijron azobidan qutulib qo'ya qolsa. O'lish ham o'zi bo'lmaydi. U o'zini o'zi o'ldirishi kerak. Bunday qilish esa nomardlik. Hech bir chora topolmaydigan ojiz yoki aqlidan ozgan kishigina shu yo'lni tanlaydi. Shu bilan birga, Zirg'om Jahondan darak topish orzusidan hali butunlay voz kechgan emas.

Jahonning o'chini olmay, o'lib ketish ham Zirg'om uchun og'ir, albatta. Turli-tuman xayollar uning boshini gangitardi. Sirini yashirishga har qancha urinsa ham, uni ko'rgan kishi bir qarashdayoq bezovtaligini sezmay qolmasdi. U o'z dilidagi og'ir g'ammni onasidan sir tutishga, uni xafa qilmaslikka urinardi. Lekin onasi hamma gapdan voqif edi. Jalon to'g'risida o'smoqchilab Zirg'omdan so'raganda, u: "Kishilarim xabar topolmay kelishdi, yana boshqa tomonlarga odamlarni yubordim, ehtimol, ular biror xushxabar olib kelishsa", - derdi. Onasi uning gapiga ishongan bo'lib: "Ha, noumid shayton. Ajab emas, o'zini olib kelishsa", deb uni yupatar edi. Zirg'omga Vardonдан bo'lak tasallি beradigan kishi qolmadи. U hamma vaqt Zirg'omning eng yaqin kishisi edi, Zirg'om zeriksa yoki biror narsadan tashvish qilsa, dilidagi gapni Vardoniga aytar va undan maslahat so'rар edi. Vardon uning dardini yengillatadigan aqli maslahatlar berardi. Kunlarning birida ular ikkalasi qasr bog'ida aylanib yurarkan, Zirg'om hayotdan bezganini aytgan edi, Vardon unga tasalli berdi:

- Mavlono, sizdek zot bu qadar ojizlikni o'ziga ravo ko'rishi ma'qul emas.
- Vardon, sen meni "mavlono" dema. Sen mening birodarimsan. Shuning uchun senga dardimni aytaman, eng mahram sirlarimni ham sendan yashirmayman. Jalonni ko'rishdan umid uzganimdan buyon hayotda hech bir halovat topolmayapman.
- Har bir kishining bir kun olamdan o'tishi bor. Ajal yesa, uni bir daqiqa ham keyinga surib bo'lmaydi. Sabr qiling. "Tangri sabr etuvchilar bilan birgadir".[7]
- Ey Vardon, sabr etaverib holdan toydim. O'limdan bo'lak rohat topolmaydiganga o'xshayman. Lekin o'z-o'zini o'ldirish, o'zimni o'zim xor qilishim demakdir.

Vardon Zirg'omni xursand qiladigan va Iroqqa kelganidan buyon ko'ngliga tugib yurgan bir fikrini unga bayon qilmoqchi bo'ldida:

- Mu'tasimning xos kishisi va musulmon sardorlarining kattalaridan bo'lgan sizdek kishi musulmonlar bilan fors, rum yoki arab qo'shinlari o'tasida urush to'xtamay turgan bir paytda hayotdan bezib, o'limga yo'l izlab yurishi g'alati emasmi? - dedi.

Vardonning bu so'zi Zirg'omning ko'zini ochdi. Zotan, uning ko'zi allaqachon ochilishi kerak edi:

- Rost ayding, menga o'xshashlar uchun urush maydonida o'lish osondir. Lekin xalifa meni o'z yonidan qo'zg'atmaydi. Meni o'ziga hamnishin qilib oldi. Hech qayerga borishga ijozat bermaydi.

- Bundan keyin u sizning biror yerga borishingizni man etmasa kerak.

- Nechun? - hayajonlanib so'radi Zirg'om.

- Chunki Armanistonda xurramiyalar kuchayib ketgan. Bobak va uning qal'alari Afshinni qiyin ahvolga solib qo'ygani haqida ketma-ket ma'lumotlar kelib turibdi.

- Buni senga kim aytdi? Men bu gaplarning teskarisini o'ylab yurardim. Xalifa hech narsani mendan yashirmsadi.

Vardon bosiq ohangda dedi:

- To'g'ri, xalifa o'zi biladigan narsani sizdan sir tutmaydi, lekin bu aytganlarimdan u bexabar.

Zirg'omning hayajoni ortdi:

- Qiziq, bu urush haqidagi xalifaga ma'lum bo'limgan gaplar senga qaydan ayon bo'la qoldi?

- Ha, xojam, vazirlar va xalifaga xos kishilar yaxshi siyosat olib borishning yo'llaridan biri - ba'zi xabarlarini xalifadan yashirishdir, deb hisoblashadi.

- Bu gaping to'g'ri, - dedi Zirg'om, - lekin men ham o'sha xos kishilardan biri bo'la turib, bundan bexabarman.

- Bu xabarni mendan bo'lak kishi sizga yetkaza olmas deb o'layman, chunki uni men xalifaning xabarchilariga hech bir daxli bo'limgan manbadan eshitdim.

Vardonning bu gapi Zirg'omga g'alati tuyuldi-da: "Nima eshitding?" - deb so'radi.

- Bobak al-Xurramiy Ardabildan Bazzga ko'chib o'tib, uni o'z istehkomiga aylantirgandan keyin harbiy qudrati zo'rayib ketgan

emish.

Zirg'om uning gapini bo'ldi:

- Buni kecha eshitgandim.
- U mag'lubiyatga uchrab, qochmoqchi bo'lib turgan bir paytda birdan kuchayib ketganligi sababini ham bildingizmi?
- Ha, bildim. Musulmonlarga "xap sanimi" deb yurgan kishilar u bilan birlashib qolgani tufayli Bobak yangi kuchga ega bo'lib olgan.

Vardon tabassum qildi:

- Asl sabab bu emas, ehtimol, bugun xalifaga ham ma'lum bo'lib qolar. Haqiqiy sabab butunlay boshqa.
- Xo'sh, bo'lmasa nimada, aytib ber-chi? - so'radi Zirg'om.
- Armanistondan kelgan kishilardan biri menga bir gap aytdi. Bu gapni boshqa odam aytgudek bo'lsa, men ishonmasdim. Uning aytishicha, behayolik, sharobxo'rlik, dag'allik va buzuqlik bilan dong'i chiqqan Bobak o'sha nomatlub ishlardan qaytib, yaxshi yo'lga kirgan, ulfatlari bilan may bazmlarida o'tirganda sharob ichmaydigan bo'lib qolgan emish. Askarlarining ishini tartibga keltirgan, hamma kuchlarini to'plab, odamlarini musulmonlarga qarshi qo'zg'atayotgan emish. Bu gaplarni aytgan kishi Bazzning butun ichki ishlardan voqif. Bobakning hayotidagi bu o'zgarishlarga uning xotinlaridan Gulnor degan aqlli va tadbirli bir ayol sabab bo'lgan emish. U xotin Bobakning jilovini qo'lga olgan, hamma ishlarida uning o'ng qo'li hisoblanar emish.

Zirg'om bir fursat boshini egib jim turdi. Bobakning yomon xulq-atvordan qaytgani uchun xafa bo'ldi. Chunki Zirg'om uning xulq-atvori biz uchun foydali deb o'ylab yurardi. Zirg'om bir olma daraxtining yonida turib, qo'lidagi kaltak bilan uning mevasini tushirarkan, Bobak haqida o'yldi. Vardon uning yonida suket saqlab turardi. Shu payt xalifa xizmatchilaridan biri yugurib keldi. Uni ko'rgan Zirg'om o'zini xalifa chaqirtirganini payqab, Vardonga: "Xalifa meni urush voqealaridan xabardor qilmoq uchun chaqirtirgan bo'lsa kerak, bu odamning shoshib kelganligi bejiz emas", - dedi.

- Agar siz bu jangga qatnashishga rozilik bersangiz, men ham birga xizmatingizni qilib boraman. Chunki men u yerlarning past-balandini yaxshi bilaman, foydam tegib qolar.

Zirg'om: "Yaxshi bo'ladi", - dedi-da, uyiga kirib qalpog'ini, xalifa oldiga borganda kiyadigan boshqa kiyimlarini kiyib, xalifa saroyidagi xos xonaga qarab yo'l oldi. Yetib borishi bilan darvozabon unga yo'l oshib, xalifadan ruxsat ham olmay, to'g'ri ichkariga kiritib yubordi. Xalifa huzurida faqt qozi Ahmad hayajon va g'azab ichida o'tirgandi. Zirg'om xalifaga ko'rinish, salom bergach, uning chehrasi ochilib, o'tirishga taklif qildi. Zirg'om o'tirgandan keyin xalifa unga qarab: "Qasrdan tashqari chiqmay ko'p zerikkan ko'rinasan, bu yerdagi kayf-safo ham joningga tegib, jang maydonini qo'msayotganga o'xshaysan", - dedi.

Xalifaning urushga otlanish kerakligi to'g'risida gap ochmoqchi ekanini, o'zining yordamiga qattiq zarurat bo'lmasa, bunday qilmasligini payqagan Zirg'om:

- Janoblarining yonlarida bo'lish men uchun ulug' iltifot va sharaf. Lekin qurollanib, qilich-yarog' taqib, dushmanga qarshi jangga borish muqaddas burchimdir. Armanistondagi muhorabaga borishni menga ham loyiq ko'rsangiz, deb iltimos qilishni ko'pdan o'ylab yurgandim. Agar ijozat bersangiz, ulug' marhamat qilgan bo'lardingiz. Men hamisha sizning otgan o'qingizman, dasturxonningizdan yeb-ichib, mammun bo'lgan kishiman.

Zirg'omning ziyrakligi va ayni muddaoni topib gapirganligi xalifaga ma'qul tushib, qozi Ahmadga qaradi. Qozi "Sen xalifaning tayanchlarisan. Yonlaridan aslo siljigilari kelmaydi. Lekin qasrdan tashqari chiqmaganing uchun ancha siqilgan ko'rinasan. Negaki, botir sarkarda jang maydoniga borib, g'alaba qozonib kelmaguncha, ko'ngli o'rniga tushmaydi. Hozir Armanistonda urush olib boryapmiz. Qaysar Bobak o'z istehkomlariga kirib mustahkamlanib olgani uchun poylab turibmiz. Endi o'sha tomonga seni yo'llasalar, sening qo'ling bilan g'alabaga erishsak, degan umidda men amiral mo'mininga maslahat solgandim", - dedi.

Zirg'om qo'l qovushtirib dedi:

- Mening inon-ixtiyorum amiralmo"mininda, "hozir bor" desalar ham tayyorman.

Xalifa Zirg'omga qaradi:

- Armanistondagi musulmon askarlarga Afshin boshchilik qilayotganini bilsang kerak. Qo'mondonlaridan biri bo'lib, uning ixtiyoriga borish senga malol kelmaydimi?

- Men amiralmo"minining qinidan sug'irilgan qi-lichlariman, istasalar boshliq, istasalar itoatgo'y qilib yubora beradilar. Hammasini ham bajonu dil qabul qilaman.

Xalifa xursand bo'lib:

- Borakallo, boshqa qo'mondonlarga nisbatan sening qadring ortiqligini hisobga olishni ta'kidlab, Afshinga noma yuboraman, - dedi.

Zirg'om oyoqqa turib:

- Bo'lmasa, oq fotihalarini bersalar, men jo'nab ketdim. Bazz qo'lga olinib, Bobak qatl etilmaguncha qaytib kelmaslikka so'z beraman, - dedi.

Xalifa tabassum qilib: "Zirg'omga bosh-oyoq sarpo berilsin", deb buyurdi. Zirg'om xalifaning oldidan ustidan og'ir bir yuk olib tashlangandek yengil tortib chiqdi.

Bo'lgan voqeani qasr darvozasi yonida uni kutib turgan Vardonga aytib berdi va: "Sen onamning ko'z oldilarida bo'lib, shu yerda qolaversang yaxshi bo'lardi", - dedi.

- Xotirjam bo'lavering, u kishi xalifaning qasrida, hamma xizmatchilar yonlarida.

Shundan keyin Zirg'om onasining oldiga borib: "Xalifa meni jang maydoniga jo'natyapti", - dedi. Onasi ham unga rozilik bildirib, xalifaning farmonini bajarishni tavsija etdi va eson-omon, g'alaba bilan qaytib kelishini xudodan so'rab, haqqiga duo qildi.

Keyin Zirg'om Yoquta yoniga borib, u bilan salomlashdi. Uning safarga otlanayotganini eshitib, Yoquta ko'ziga yosh oldi. Zirg'om uni yupatdi:

- Ishqimga ravnaq tilab, haqqimga duo qilib tur. Ajab emas, yo'lda Hammodni uchratib qolsam. Meni undan beparvo bo'lib ketdi, deb mutlaqo o'ylama, - Zirg'om shu gaplarni aytarkan, ichida qattiq xo'rsinib qo'ydi. O'z sevgilisini yo'qotib, g'amu g'ussaga mutbalo bo'lgani yodiga tushdi.

Yoquta unga so'z aytolmay, boshini quyi solib, indamay turardi, marvaridday ko'z yoshlari yuzlaridan oqib tushardi. Zirg'om Yoquta bilan xayrashib chiqdi-da, safar tadorikini ko'rishni Vardonga buyurdi. Keyin u: "Yoqutaning holdidan xabardor bo'lib turing", deb onasidan iltimos qilib, u bilan xayrashdi va farg'onalik baquvvat yigitlardan tuzilgan maxsus qo'shini bilan yo'lga chiqdi.

Ardabilda va boshqa jang maydonlarida musulmon askarlari bilan xurramiyalar o'rtasida bo'lgan bir necha to'qnashuvlar

xurramiyalarning Ardabilni bo'shatib chiqib ketishi bilan yakunlandi. Ular Bazzga, Bobakning qal'asiga borib qo'shilishdi. Bazz mustahkam istehkomli shahar yoki bir qancha qasr va qal'alardan tashkil topgan katta qal'a edi. Unng atrofi qalin paxsa devor bilan o'rالgan, bahaybat darvozalari va ko'p minoralari bo'lib, yo'li juda qaltis edi, unga tog' va vodiylar orqali borilardi. Bobak Bazzga qochgandan keyin musulmon askarlari uni izidan quvib borishdi. Bazz bilan Ardabil orasidagi bir qancha manzillarga musulmonlar o'z harbiy istehkomlarini qurishdi. Bu istehkomlar askarlarning qaytish yo'lini qo'riqlash va xalifaning turar joyi Somurro bilan aloqa bog'lab turish uchun mo'ljallangandi. Iroqdan keladigan oziq-ovqatlarni Armaniston chegarasiga kirganda, Ardabilda tushirib olishar, undan "Hisnunnahr" ("Anhor qo'rg'oni") degan istehkomga olib borishardi. Undan esa Arshaq, Xash, Barzand va Bazz yo'lidagi Ruz-Arruz degan oxirgi manzillarga olib ketildi. Bu anjomlar har manzilning soqchilaridan qo'lma-qo'l o'tib borardi.

Afshin askarlarni joylashtirish uchun ishonchli bir joy tanlashni o'z odamlariga topshirdi. Ular Ruz-Arruzda eski bino qoldiqlari turgan uch tog'ni tanlashdi: Afshin askarlarni u yerga joylashtirdi. Bazzga boradigan hamma yo'llarni katta toshlar bilan o'rab, qo'rg'ondek qilib olishdi. Hujum qilish uchun faqat bitta yo'lni qoldirib, boshqa hamma yo'llar oldiga toshlar orqasidan xandaqlar qazdirdi. Afshin bu ishga ko'p mehnat sarf qildi. Odamlar tinimsiz tosh tashish va xandaq qazish bilan band bo'ldi. Soqchilar kecha-yu kunduz poyloqchilik qilishdi.

Ruz-Arruz chalkash-chulkash tepalar orasida joylashgan bir vodiyidan iborat. Afshin askarlarini tayyorlab har bir qo'shilmani bir lashkarboshiga topshirdi. Lashkarboshilar uch kishi bo'lib, ular Ja'far al-Hayot, Abu Said va Ahmad ibn al-Xalil edi. Askarlarni Ruz-Arruz bilan Bazz orasini ajratib turgan vodiyidan yuqoriqdagagi hamma harbiy nuqtalarga joylashtirdi. Shu bilan Afshinning harbiy lageri juda kengaydi. Masofa olisligi, qo'shilmalarni tog' va vodiylar bir-biridan uzoqlashtirib turgani uchun qo'shinni qo'zg'atish yoki yurish boshlash kerakligi qo'ng'iroq chalinadi, to'xtasa, chalish to'xtatiladi. Askarlar o'z tartib va saflarini buzmay, shunga muvofiq harakat qilardi.

Afshin o'z lashkargohini baland bir tepaga o'rnatdi, undan Bazzga qarab, Bobak qasrini va boshqa qasrlarni kuzatib turardi. Bobak barcha urushlarda askarlari orasidagi bir to'da kishilarga qattiq suyanardi. Musulmon askarlarining yo'lini to'sish va chalg'itish maqsadida o'shalarni tepalar orqasidagi vodiylarda yashirinib turish uchun yuborardi. Afshin esa ularning hamma hiylanayrangini barbod berishga kirishar, bekinib yotganlarni topish va aniqlash uchun o'z ayg'oqchilarini yuborardi.

Afshin shu qamalda xurramiyalarni uzoq vaqt chalg'itib turdi. Bazzning ro'baro'sidagi vodiyning narigi tomoniga askarlardan bir to'dasi bilan kesib o'tishni lashkarboshilaridan biriga buyurdi. Sarkarda u yerga yetib borishi bilan Bobak qo'rg'ontepani dushman dan mudofaa qilish uchun o'z askarlardan bir qo'shilmani chiqardi. Kech kirishi bilan Afshin askarlarini xandaq orqasidagi lashkargohlarga qaytib kelib, shu yerda tunashardi. Afshinning bu harbiy taktikasi xurramiyalarning joniga tegdi. Ular Afshin askarlariga qo'qqisdan hujum qilmoqchi bo'ldi. Bir kuni Bobakning askarları Afshin askarlarining odatdagidek vodiy tomonдан qaytishini kuzatib turishardi. Shunda Ja'far al-Hayyotning otliq askarları qolib, boshqa odamlari o'tib ketgach, Bobak askarları Ja'farga tashlandi. Ja'far o'z askarlarini bilan xurramiyalarni Bazzgacha quvib bordi. Ikki tomon askarlarining qiyqiriq ovozi Afshinga eshitildi. Askarlarning urushayotganini ko'rib, u o'z rejalarining buzilib ketishidan xavotirlandi.

O'lja olish maqsadida jangdagilarga yordam berishga odatlangan ko'ngillilardan bir guruhi Ja'farga yordamga kelib, uning kuchiga kuch qo'shdi. Ja'far askarlarini bilan qo'rg'onga hujum qildi. Qo'rg'onidan oshib, shaharga kirmoqchi bo'layotgan Afshin unga: "Sen mening tadbirimni buzzing, asta-sekin askarlarining olib, orqaga qayt!" - dedi. Buning ustiga Bobakning yashiringan ayg'oqchilar ham harakatga tushgandan keyin, Ja'far fursat qo'ldan ketganiga qayg'urib, orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Shundan keyin ko'ngillilar o'zlarini qolib, bir necha kun urushni davom ettirishdi. Ularning yem-xashagi, oziq-ovqati tugadi, lekin ular achinib: "Afshin bizga yordam berganda Bazzga kirib borgan bo'lardik", - deyishardi. Askarlar to'polon qilib, urushni boshlab yuborishni talab qilsa ham, Afshin mag'lubiyatga uchrashdan qo'rqiб ishni orqaga siltardi. U mol-mulk ortirish uchun atayin urushni keyinga surayotgan bo'lسا-chi? Chunki xalifa Afshinning otga mingan har kuni uchun ovqat, qurol-aslahadan tashqari o'ng ming dirham, ot minmagan kuniga esa besh ming dirham yuborib turardi. Bu pullarni Afshin Ushrusanaga yuborardi. Urush bahonasi bilan qancha ko'p kun o'tsa, Afshinning daromadi shuncha ko'payardi.

Bir kuni Afshin o'zining Bazzga qarab qurilgan chodirida o'tirgandi, askarlarini shu yer xalqning kiyimdagagi bir kishini haydab kelayotganiga ko'zi tushdi. Uning oldiga yaqinlashganlari ham yo'q edi, ular asir olib kelayotgan odam Jahonning akasi Somon ekanligini payqab, iztiroba tushdi. Lekin undan foydalanish umidida: "Uni qiynamay, qo'llarini yechib yuboringlar", - deb buyurdi.

Somon boshini egib, Afshin yoniga kelib tiz cho'kdi. Afshin ochiq chehra bilan undan: "Boshingni ko'tar! Bu yerga sen qanday kelib qolding?" - deb so'radi.

- Janob xojam, men Bazzdan kelyapman.
 - Qani, bo'lmasa yaxshilab o'tirib ol-chi, - dedi Afshin unga qarab. Somon odob bilan Afshin ko'rsatgan joyga o'tirdi.
 - Xo'sh, bu shaharga nima uchun kirib qolding?
- Somon boshini chayqadi.
- Mavlono Afshinning xizmatlari bilan kelgandim.
 - Bu nima deganing, Somon? - hayron bo'lib so'radi Afshin.
 - Somurroda janobingizning ziyoratlariga musharraf bo'lganimdan buyon buyrug'ingizni bajarish uchun Jahonni izlab yurgandim. Oxiri uning Bobak qo'lida ekanini aniq bilib oldim.

Somonning bu gapdan Afshinning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi.

- Hozir Jahon shu yerda - Bazzda ekanmi?
- Ha, shu yerda ekan.
- Bunday olis bir shaharga u qanday kelib qoldi ekan? - hayron bo'ldi Afshin.
- Hamadon yaqinida qaroqchilar uni mening qo'lidan tortib olib ketganini sizga aytgan edim. Ko'p surishtirdim, oxiri bilsam, uni oldirib ketgan kishi Bobak ekan. Jahonning go'zalligini eshitib, sovchi yuborganda, otam uni kuyovlikka qabul qilmagandi. Keyin oradan bir qancha vaqt o'tib ketdi, otam vafot etdilar. Zamona zayli bilan Jahon Somurroga borish uchun otlanganini Bobak eshitib, yo'liga kishi qo'ygan va poylab yotgan yerlariga kelishimiz bilan uni ushlattirib olib ketgan ekan.
- Xo'sh, keyin nima bo'lgan? Hozir ham u Bazzdami?
- Singlimning ishiga tushunolmayapman. U hech bir qarorda turmadi. Ushrusana amirining marhamatini rad etib, arzimas bir kishiga turmushga chiqishga rozi bo'ldi. Keyin undan ham voz kechib, Bobakni ixtiyor etdi va uning sevimli xotini bo'lib oldi. Hozir u Bobakning o'ng qo'li, jonini fido qilib unga yordam beryapti. Men unga: "Bu ishing noto'g'ri, hali ham bo'lsa undan voz

kehib, Afshinga borishing kerak, u sening vasiying bo'ladi", - deb ko'p pand-nasihat qildim, gapimga qulq solmadi. Keyin uni tashlab, sizning oldingizga keldim.

- Borakallo, - dedi Afshin xursand bo'lib, - ba'zi ayg'oqchilarimning gapiga qaraganda, Bobakning eng sevimli xotinining nomi Gulnor emish. U juda aqli, tadbirkor ayol bo'lib, Bobakka yordam berib, uning qaddini ancha tiklab qo'ygan emish.

- Shu aytayotgan ayolingiz Jahonning xuddi o'zi. U o'zini tanitmaslik uchun atayin ismini Gulnor qilib olgan. Yangi qaylig'iga musulmon askarlarga qarshi urushda yordam berishga va'da qilib, jonbozlik ko'rsatyapti. Agar shu Jahon bo'limganda, Bobak allaqachon ko'radiganini ko'rardи.

Somonning niyati buzuqligi Afshinga ma'lum bo'lsa ham, faqat yomon kishilar bajara oladigan ishlarda undan foydalanish maqsadida yaxshi muomala qildi. Afshin Somon o'zini yomon ko'rishini va qo'lidan kelsa, o'ldirib yuborishga ham tayyor ekanini bilsa ham, xushmuomalalikni qo'ldan bermadi, boshini chayqab, iyagini qashladi, telpagini tuzatib oldi-da, o'tirgan joyida bir qimirlab:

- Bizning yaxshiligidizga bu qiz shunday nonko'rlik qildi. Uni deb men seni bir vaqtlar xafa qilgandim ham. Ajab emas, yomonlik deb o'ylagan ishing bir vaqt kelib yaxshilik bo'lib chiqsa, - dedi.

Afshin bir oz jumlidan so'ng: "Jahonning bu yerdaligini Zirg'om bilgan emasmi?" - dedi.

- Yo'q, albatta, Jahon ham Zirg'omning o'lik-tirikligidan bexabar.

Afshin uning gapiga ishongisi kelmadi:

- Nega shunday deysan. Zirg'om uni qidirsa, darak topmay qo'yadigan odam emas-ku.

- Nomlarining o'zgargani bu ishda katta yordam berdi. Men Jahonga Zirg'om o'ldirilgan deganman. Uning shunga ishonganligiga xo'p deyavering. Zirg'om bo'lsa: "Jahonni qayergadir olib ketilgan", deb hayotdan umid uzib qo'ygan. Janoblarining menga teskari qarab yurganlariga, otamning merosidan meni mahrum qilganlariga qaramay, rizoliklariga erishmoq uchun shu ishlarni qilganman,

- dedi-da, Somon ko'zlarini alang-jalang qilib Afshinga qaradi.

- Men uchun astoydil xizmat qilganingga endi inondim. Endi shu harakatingni intihosiga yetkazib, ishonchimni oqlasang, ulug' mukofotga sazovor bo'lasan.

- Farmoningizga ma'talman, nima desangiz bajarishga tayyorman.

- Bazzda bo'ldim deyapsan, xo'sh, Bazzning odamlari, qo'rg'on va askarları to'g'risida nimalarni bilasan? - dedi Afshin.

- O'zingiz ko'rib turibsiz: shahar juda mustahkam. Askar va qurol-yarog'lari yetarli. Xurramiyalar mol-joni bilan birlashgan, boshliqlarining buyrug'inib bajarishga astoydil bel bog'lashgan. Shunga qaramay, ularning mag'lub bo'lishidan umidvorman.

Afshinning tusi o'zgarib, tetiklanib ketdi:

- Nimaga tayani shunday deyapsan?

- Bazzning ichki ahvolini mulohaza qilib, Bobakning mag'lubiyatga uchrashidan umid qilaman. Bilishimcha, u yerda musulmon va boshqa kishilardan juda ko'p asirlar bor. Shulardan yetti ming olti yuztasi ayollar va yosh bolalar. Bobak o'ldirgan kishilarni ikki yuz ellik mingtacha deb taxmin qilishadi. Odamlar, hatto uning shaharchasida yashayotganlar ham Bobakning hukmdorligidan bezor bo'lishgan deb eshitdim. Agar sizdan yigirma kishi shaharga bostirib kirishga yo'l topsa, Bobak odamlari ularni ko'rsa, butun xalq taslim bo'lishiga aminman.

- Seningcha, shaharga kirish uchun hujumni qaysi tomondan boshlasak ma'qul bo'ladi?

Somon o'rnidan turib Bazz tomondagi bir tog'ga ishorat qildi va: "Mana bu tarafdan. Bu tog'ni ko'ryapsizmi? Dushman shu tog' chekkasidan nari yoqqa o'tsa, shaharga kirish yo'li ochilishini bilgan Bobak yashirin askarlarini shu yerga joylashtirib qo'ygan.

Janoblari shu tog' chekkasining orqa tomonidan borishga iloj topsalar bo'ldi, marra o'zlariniki, muqarrar g'alabaga erishadilar". Somonning kelganidan xursand bo'lgan Afshin undan yana ko'proq ma'lumot olishga harakat qilayotganida hojib kirib: "Xalifa Mu'tasimning noma eltuvchisi kelib, eshikda kutib turibdi", - dedi. Afshin hojibga qarab: "Ayt, bu yoqqa kiraversin!" - dedi.

Safardan toliqib kelgan, ko'kragini bir parcha mis osilgan[8] noma eltuvchi ichkariga kirib, oyoqqa turdi. Afshin: "Qani, bu yoqqa kelaver, nima yangilik bor?" "B" deb uni o'z yoniga chaqirdi.

Noma eltuvchi uning oldiga kelib, ustiga xalifalik muhri bosilgan bir ipak o'ramani topshirdi. Afshin uni qo'liga olib o'pdi va surg'unchini ochdi. Uning ichidan muhrlangan kumush nay, kumush nay ichidan esa o'ralgan bir qog'ozni chiqarib oldi-da, uni o'qiy boshladi. Uning avzoyini va xatti-harakatini kuzatib turgan Somon xatni o'qib turib, Afshinning rangi o'chib ketganini payqadi. Afshin maktubni o'qib bo'lib, noma eltuvchiga "mayli, ketaver", degandek ishora qildi. U chiqib ketdi. Keyin Afshin tik turgan Somonga qaradi va uni o'ziga ko'proq jalb qilish uchun zo'rlab jilmayib, o'tirishga buyurdi-da:

- Bu xat nima xususda ekanini bilasanmi? - deb so'radi.

- Yo'q, janob, men ilmi g'oyibdan bexabarman.

- Bu Mu'tasimning xati, xatda meni mustahkam turishga da'vat qilib, birodari Zirg'om boshchiligidida menga qo'shimcha askar yuborganini aytibdi.

- Ushrusana hokimi - askari tog'u toshlarni to'ldirib yotgan bir qo'mondon yordamiga muhtoj ekanmi?

- Yo'q, albatta, amiraldo"minining o'zi buni yaxshi biladi. Zirg'om urush uchun emas, boshqa maqsadda kelayotgan bo'lsa kerak bu yerga. U Jahonning ishidan xabardor bo'lib qolmaganmikin degan xavotirdaman. Mayli, u xoh bilsin, xoh bilmisin, baribir Jahon meniki. Mendan bo'lak hech kim unga qo'l tegiza olmaydi. Sevgi va muhabbat ish bermasa, zo'ravonlik va andishasizlik bilan Jahondan o'ch olish qo'limdan keladi. Farg'onadagi o'sha kun sira ko'nglimdan chiqmaydi.

Somon yana Afshinga dalda bera boshladi:

- Singlim bu yerdaligini Zirg'om mutlaqo bilmaydi. Balki uni tirik deb o'ylamasda ham kerak. U: "Jahonsiz hayotning menga nima keragi bor", deb o'limni ma'qul ko'rib, atayin urush maydoniga kelgandir. Odamlarda shunda bir bema'ni taomil bo'libdi: birovni sevib qolsa, jinniga o'xshab qoladi. Hatto o'z hayotini ham sevgilisi yo'lida ayamaydi. Bittasi shu yo'lda o'lsa, boshqalar ham shuning orqasidan borishni istaydigan bo'lib qoldi.

Afshin xoxolab kulgan edi, tishining oqi ham ko'rini ketdi:

- Zirg'om o'lim istab kelgan bo'lsa, bosh ustiga, jonimiz bilan uni qabul qilamiz. Ammo oshiqlarni jinni deb aytayotganing uchun ma'zursan. Senda muhabbat ahlining zavqi, shuuri yo'q, undan bexabarsan, - dedi-da, boshini ozgina yerga egib turib so'radi: - Biz ertaga shaharga hujum qilib kirsak, singlingni qasrdan topa olamizmi?

Somon o'rnidan turib, Bizz tomonga qaradi va qo'li bilan ishora qilib:

- Sharqiy darvoza yonidagi hashamatli qasrni ko'ryapsizmi? O'sha - xotinlar qasri. Jahon ham shu qasrda yashaydi. Shu qasrga to'g'ri kirmoqchi bo'lgan odam o'sha darvozadan borishi kerak, - dedi. Keyin g'arb tomondagi bir qasrni ko'rsatdi: - Mana bu

This is not registered version of TotalDocConverter
g'alib qolmoqda. Siz qaysi versiyani olib keling qasbi. U hamma qasrlardan ham mustahkamroq. Unga hujum qilgan kishi o'lmay qolmaydi. Mana endi, "nima qilaman" desangiz, ixtiyor o'zingizda.
Afshin o'tirgan yerida bir qimirlab qo'ygandi, Somon o'rnidan turib, ketishga ijozat so'radi. Afshin unga: "Biz bilan bo'lasan, zarurat bo'limganda bu yerdan qimirlamaysan", - dedi.
Afshinning maqsadiga tushungan Somon:

- Siz ixlosimni, niyatim pokligini aniqlaguningizcha, huzuringizda asir bo'lib turishni istayman. Mening ishim Zirg'omga ham, boshqalarga ham bildirilmay, sir tutilishini sizdan iltimos qillardim. Bo'lmasa, ko'rayotgan choramiz buzilib, ishimiz barbob bo'ladi, - dedi.

Afshin unga "xo'p" degandek boshini qimirlatib qo'ydi-da, g'ulomini chaqirib, uni e'zoz-ikrom bilan muhofaza qilib turishni topshirdi. Shundan keyin Somon o'zini Afshin yaxshi qarshi olganini, singlisidan o'ch olish uchun otasining merosini o'ziga berishga va'da qilganini o'ylab, o'zida yo'q xursand bo'ldi. Zirg'om kelsa, bir hiyla bilan uni o'dirtirib, singlisidan o'ch olish payti yaqinlashayotgani uchun u yana ham mammun edi. Somon ilgari Afshindan ko'ngli qolganligini, Zirg'omdan unga qarshi yordam so'raganligini hamda singlisidan ko'p yaxshiliklar ko'rganligini ham unutdi. U o'z manfaati uchun har qanday behayolikdan, qalloblikdan qaytmasdi. U Afshindan vasiylik burchini bajarmagani yoki singlisiga yomon ko'z bilan qaraganligi tufayli emas, balki otasining merosidan o'zini mahrum qilgani uchun xafa bo'lgan edi.

U Zirg'omni bahodirligi, saxovatpeshaligi yoki boshqa olijanob fazilatlari uchun emas, balki o'z maqsadiga erishishida undan yordam olish uchun unga tilyog'lomalik qilib yurgandi. Keyinchalik Somonning bu qadar o'zgarib ketgani ham uning manfaatparastligidan edi. Unda na sevadigan qalb, na uyaladigan yuz bor. Uning butun fikr-zikri, vujudi mol-mulkka hirs qo'yishga qaratilgan. O'zining yomon xulq-atvori uchun kishilar nazaridan qolganligi uning mol-dunyoga bo'lgan hirsini yana ham oshirdi. "Boy bo'ljam, kishilar meni hurmat qiladi, ulug'laydi", deb kishilar orasida mol-dunyo bilan hurmat topmoqchi bo'ldi. Odamlar xoh uni sevsin, xoh yomon ko'rsin, buning Somon uchun farqi yo'q edi.

Avvalgill- qismB Keyingi

B†‘ To'rt yuz kilo.

b†‘ Arablarda qo'lni o'pish odati bor, lekin tavoze yuzasidan kattalar o'z qo'lini o'pishga bermaydi.

B†“ Arab tilida sherning yetti yuzga yaqin nomi bo'lib, undan bittasi "Zirg'om"dir.

Б†‘ MubTtazila - Islom avvalida vujudga kelgan bir mazhab.

B†‘ Ushr - hosildan olinadigan soliq. Hosilning o‘ndan bir hissasi.

B†‘ Odatda saroylardagi haramlarda xizmat qiladigan erkaklarni bichib qo'yildi.

B†“ Qur'onning "Baqara" surasi, 156-oyat.

B†‘ Xalifaning maxsus xat tashuvchisining belgisi.